



2023-yil. 3-son.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI  
**Elektron jurnal**

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING |

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



2023-yil  
3  
son

«Til va adabiyot ta'limi»  
«Преподавание языка и литературы»  
«Language and literature teaching»  
ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov  
Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Nargiza Rahmonqulova  
Yorqinjon Odilov  
Nasirullo Mirkurbanov  
Jabbor Eshonqulov  
Valijon Qodirov  
Baxtiyor Damiyarov  
Abdurahim Nosirov  
Tolib Enazarov  
To'iqin Saydaliyev  
Ravshan Jomonov  
Zulkumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Tajixxon Sabitova  
Salima Jumayeva  
Nilufar Namozova  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulxayrov  
Lutfullo Jo'rarev  
(bosh muharrir o'rinosari)  
Aljon Safarov (elektron nashr uchun)  
Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)  
Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)  
Barno Kadirova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova  
Nigora Uralova  
Emma Torosyan  
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

## MUNDARIJA

TAHLIL

Alijon Safarov.	Front gazetasida til, uslub hamda mafkuraviy ta'sir vositalari .....	3
Saida Maksumova.	O'zbek tilining amaliy uslubiyat darslarida matnlar bilan ishlash texnologiyasi .....	4
Oltoy Nurulloh.	O'zbek tili sheva emas, o'zbek xalqining milliy tilidir .....	6
Nazokat Jivanova, Shaxnoza Sharofova.	Erkin Vohidov she'riyatida xalq maqollarining uslubiy o'rni .....	8
Gulabza Umarova.	Adabiyot – ma'naviyatni yuksaltiruvchi vosita .....	11
Qayum Baymirov.	Dars natijasi: ilmiy izlanish va ishonchli hamjihatlik .....	12
Sevara Jalalova.	Speaking skills as one of the important problems of teaching and learning a foreign language .....	13
Nargiza Shirinova.	Harbiy oliy ta'lif muassasalari kursantlarining bilish darajasi va ular yoshining o'ziga xos xususiyatlari .....	15

TADQIQOT

Abror Ochilov.	Til – ma'naviyat komposi hamdir .....	17
Orzigul G'aniyeva, Nilufar Aminova.	Jon Steynbekning "East of Eden" romanida oilaviy munosabatlar tasviri .....	18
Gulruh Bahodirova.	O'zbek tilshunosligida sohaviy leksika tadqiqi va kashtachilik leksikasining tutgan o'rni .....	20
Maxbuba Qarshiyeva.	"Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlarda adab, tavoze, vafo, qanoat kabi fazilatlar tarannumi .....	24
Qodirjon Mo'yдинов, Salomat Rustamova.	Xalq og'zaki ijodidagi o'xhashliklar .....	25
Gulmira Zulaypoyeva.	Iqbol Mirzo idios tilida qush nomlarining tahlili .....	27
Rashid Zohidov.	Ilmiy-tanqidiy matn imkoniyatlari .....	29
Zilola Shukurova.	Bayozlarning kelib chiqish tarixi va taraqqiyot omillari .....	31
Firuza Xalimova.	Poetik matnda freym faollashuvি .....	33
Gulnoza Qurbanova.	Gidronimlar va ularning nomlanish xususiyatlari .....	35
Omila Yuldasheva, Umida Nasirova.	Methodology for developing discourse (spoken communication) skill among high school students .....	37
Saida Gazieva.	Overcoming dyslexic obstacle in teaching english .....	39
Mohinu Anvarova.	Bahodir Qobulning "Ena shamol" va "Otachiroq" hikoyalari ayrim chegaralangan leksikaga oid so'zlarning lingvopoetik imkoniyatlari .....	41
Nozima Hamroyeva.	Kurshid Davronning poetik uslubi .....	43
Dilnoza Mamirova.	Adresant-adresat munosabatiga ko'ra reklamalar tasnifi .....	44
Mokhira Ziyadullayeva.	Specific features of the addressing .....	47
Saodat Kambarova.	O'quvchilarning obrazli va konseptual tafakkurini rivojlantirishda tizimli yondashuvlar .....	50
Шоҳида Ҳолматова, Наргиза Сираҷитдинова.	Инновационные методы изучения русского языка в вузе .....	52
Umidjon Toshmamatov.	Jamol Kamol she'riyatida janrlar rang-barangligi .....	53
I.Turdiyev.	Ayrim ish yuritish hujjatlarining o'zbek va ingliz tili tarjima lug'atlarida berilishi, tafovutlar va muammolar .....	55
Ilxom Xolmuminov.	"Alpomish" dostonida stilistik vositalar tahlili va ularni ingliz tiliga tarjima qilish muammolari .....	56
Дилноза Аминова.	Контекстуальное определение полисемии в военной терминологии .....	59
Mahfuza Muxtorova.	Surxon elining kuychisi .....	62
Farida Muminova.	Tog'ay Murod qissalarida folklor tasviri .....	64

<b>Nasiba Nasrulloyeva.</b> Ingliz kompyuter va internet jargonlarining yasalish xususiyatlari .....	66
<b>Mushtariy Vohidova.</b> Jahon adabiyotshunosligi asarlarining yuksak mafkuraviy-tafakkur yo'nalishi bilan .....	68
<b>I.S. Qilichev.</b> Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida o'qitish mexanizmini takomillashtirish .....	70
<b>Zohida Tursinova.</b> Maktab ingliz tili o'qituvchilarini pedagogik kompetentligini baholash .....	72
<b>Fotima Ismoilova.</b> Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida modernistik ohanglar .....	73
<b>Maftuna Khasanova.</b> Modern methods of teaching english in higher education institutions .....	74
<b>Nasiba Mirzayeva.</b> Non-traditional methods in EFL .....	76
<b>Jayron Radjabova.</b> The role of multilingualism and monolingualism In ESL teaching .....	78
<b>Roza Turdieva.</b> The role of transformative learning in uzbek higher education system .....	79
<b>Dilfuza Toshpulatova.</b> Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarning mazmuni va uni takomillashtirish jarayoni .....	81

**TISSHUNOSLIK**

<b>Arofat Sharipova, Gulchekhra Tursunova.</b> Implementation of the culture-oriented linguistics approach using role-playing games in efl classes .....	43
<b>Aytkul Djalilova.</b> Translating idioms from english into uzbek .....	86
<b>Dilafruz Umarova.</b> The role of pragmatic meaning in teaching english .....	87
<b>Eldorbek Khamitov.</b> Newspaper and magazine headlines .....	89
<b>Go'zal Maxamatxo'jayeva, Iroda Siddiqova.</b> O'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashgan va o'zlashayotgan so'zlar haqida ba'zi mulohazalar .....	91
<b>Kamola Alautdinova.</b> Nutqiy faoliyat muloqot negizi sifatida .....	93
<b>Odina Arifjanova.</b> Gamification as a tool to improve second language acquisition .....	95
<b>Sitora Yadigarova.</b> Kiyim nomlarining ingliz tilshunosligida o'rganilishi .....	96
<b>Mukhlisa Kenjayevo.</b> Types of evaluative adjectives in english and uzbek .....	97

**KICHIK TADQIQOT**

<b>Madina Ashirbayeva, Muhabbat Yusupova.</b> Og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan WebQuest vazifalarini 11-sinf o'quvchilarida qo'llash .....	99
<b>Eldorjon Shermatov.</b> Elektron platforma xorijiy tillarga o'qitish vositasi sifatida .....	101
<b>Laylo Alimjanova.</b> Challenges in esp teaching: needs analysis in ESP .....	104
<b>Mavluda Djurayeva.</b> The choice of language in note-taking .....	107
<b>Shohida Isakova.</b> "Temur tuzuklari" ning fransuzcha va inglizcha tarjimalarida harbiy terminologiyaning ifodalananishi .....	110
<b>Zanjiloy Abdusalamova.</b> O'zbekning yuragidan joy olgan rus shoiri Faynberg .....	112

**ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ**

<b>Рануша Атаева.</b> Русский язык как средство формирования зунов по специальности .....	113
<b>Эльдар Гиздулин, Зухридин Нуридинов.</b> Современные информационные технологии – важное средство повышения качества образования .....	115

**ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

<b>Гулчехра Саримсакова.</b> Развитие сравнительно-сопоставительной лингвистики в Узбекистане.....	117
<b>Нилуфар Кахарова, Дилдорахон Хасанова.</b> Синонимия фразеологизмов и другие единицы лексико-сематического уровня .....	119

**ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

<b>Насиба Хайдарова.</b> Особенности передачи восточного религиозного дискурса в прозе русскоязычных писателей Узбекистана.....	122
---	-----

**ПОЛЕМИКА**

<b>Махбуба Раимжанова.</b> Современный подход к преподаванию русского языка как иностранного в неязыковом вузе .....	124
--	-----

**ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ**

<b>Дилмура Умарова.</b> Проблемы и перспективы современного урока русского языка в национальных школах .....	126
--	-----

**ОБРАЗОВАНИЕ: ОПЫТ, АНАЛИЗ, РЕЗУЛЬТАТЫ**

<b>Фарида Умарова.</b> О взаимодействии обучающихся и преподавателей в совершенствовании личностно-ориентированного обучения в военных вузах .....	128
--	-----

**ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ**

<b>Гулжазира Утенбаева.</b> Применение технологии «SMARTEF» при обучении русскому языку будущих офицеров ввоу .....	131
---	-----

**ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ**

<b>Индира Наркулова.</b> Работа с песнями как средство мотивации в высших военных образовательных учреждениях.....	133
--	-----

Alijon SAFAROV,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasи  
mudiri filologiya fanlari bo'yicha falsafadoktori (PhD), dotsent

## FRONT GAZETASIDA TIL, USLUB HAMDA MAFKURAVIY TA'SIR VOSITALARI

Tarix fanlari doktori, professor Nazira Abduaizizovaning yozishicha, 1941-1945-yillardagi urush davrida sobiq ittifoq hududida o'zbek tilida ham harbiy davriy matbuot tashkil etildi. Ya'ni urush yillarida o'zbek tilida jami 14 ta harbiy gazeta nashr qilingan<sup>1</sup>. Ayniqsa front gazetalari ikkinchi jahon urushini yoritisha alohida o'rın tutganini ta'kidlash joiz. Front gazetalari harbiy davriy nashrlarning o'ziga xos turi hisoblanib, nafaqat urush yoki jangovar harakatlar borishi haqida axborot bergen, balki g'alabaga erishish uchun jangchilarning ruhini ko'tarishga ham xizmat qilgan. Shu o'rinda o'zbek tilida chop etilgan "Qizil askar haqiqati" front gazetasining bitta soni misolida materiallarni tili va uslubi bo'yicha tahlil qilsak<sup>2</sup>. Mazkur gazeta xususida tarix fanlari doktori, professor R.Shamsutdinov ham kitobida ma'lumot berib o'tgan<sup>3</sup>.

Gazetaning 1945-yil 3-mart soni. Nashrning o'zbekcha nomi yoniga "Krasnoarmeyskaya pravda" na uzbeksom yazylige deb yozilgan. Demak, nashr avval rus tilida, so'ngra o'zbek tilida chop etilgan, degan xulosa kelib chiqadi. Front gazetasiga xos yana bir muhim jihat "O'qib bo'lib, o'rtog'ingga ber!", "Jangchi! Dushman yerida ekaningni esdan chiqarmay, hushyorligingni yana ham oshirishing kerak!" singari matnlarning nashr kolontitliga alohida yozilishidir. Ya'ni qizil askarlarga da'vatlar ta'sirchanligini oshirish maqsadida so'z va shrift alohida tanlangan.

"Qizil askar haqiqati" gazetasining birinchi sahifasida "Sovet informatsiya byurosidan" rukni ostida front dan so'nggi xabarlar berilgan. Unda jumladan shunday satrlar bor:

*"Pomeraniya yerida Noyshtettin shaharining shariqi-shimolida va shimolida qo'shinlarimiz, hujum janggi natijasida, aholi yashaydigan Flemmingsort, Fletenshtayn, Falkenxagen, Xelkevize, Noydorf, Sexendorf, Buxvald, Eshenrige degan punktlarni egaliladilar.*

*Breslau rayonida qo'shinlarimiz, dushmanning sharda qurshab olingen gruppovkasini yakson qilish bo'yicha jangni davom ettirdilar.*

*Frontning boshqa uchastkalarida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan janglar va razvedkachilar qidirishmali bo'ldi.*

*Havo janglarida va zenit artilleriyasi o'ti bilan dushmanning 28 samolyoti urib tushirildi"<sup>4</sup>.*

Mazkur yangiliklar ruscha matndan tarjima qilingan.

Avvalo, matnda ishlatilgan harbiy atamalarga e'tibor qarataylik. Birinchi yangilik matnida "qo'shin", "hujum" ikkinchi yangilik matnida ham takror uchraydi. Umuman olganda yangiliklarning deyarli barchasida "front", "jang", "razvedka", "qo'shin" kabi harbiy atamalar ishlatiladi-ki, bu jarayonlarning "qaynoq" nuqtada kechayotgani haqida o'quvchiga axborot beradi. Yangilik matnida "razvedkachilar qidirishmali", "artilleriyasi o'ti" kabi so'z birikmlari tarjimonning mahoratini ko'rsatadi.

Gazetaning ikkinchi sahifasida "Kommunist Norbo'tayev", "Odamboyevning qahramonligi", "Ergashevga rahmat" kabi materiallarning sarlavhasida matnga askar familiyalari chiqqan va bu uslubiy xatoga olib kelgan. Bunga sabab quydagicha deb hisoblaymiz:

– mafkura buyurtmasi asosida qizil askarlar ruhini ko'tarish;

– qahramonlik ko'rsatgan jangchilarni namuna qilib ko'rsatish;

– qahramon askarlarni aniq tasvirlash va ifodalash.

Uchinchi sahifada "Bo'ta botir", "Jasur komsomol qiz", "Remont a'llochisi" kabi sarlavhalarni o'qib, gap muayyan bir qahramon haqida ketayotganini gazetxon darhol anglaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, front gazetasi o'zbek askari jasorati haqida hikoya qilishda shunday uslubga asoslanadi.

Umuman olganda, front gazetasi auditoriyasi uchun quydagi masalalarga e'tibor qaratgan:

– Sovet inform byurosining so'nggi xabarlarini o'zbekchada yetkazish;

– jangovar harakatlar bilan bog'liq yangiliklardan xabardor qilish;

– o'zbek askarlari qahramonligi tasvirlangan xabarlarni berish;

– targ'ibot uchun o'zbek jangchilari imzosi bilan xabarlar chop etish;

– front orti ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarni aks ettiruvchi yangiliklardan o'zbek askarlarini ogoh etish.

Bunday asosga qurilgan targ'ibot urushda ustunlikka erishish, ruhiy barqarorlikni ta'minlash, dushmanga nafrat tuyg'ularini oshirish kabi maqsadlarga xizmat qilgan. Xulosa qiladigan bo'lsak, "Qizil askar haqiqati" front gazetasining matn tili va uslubiga filologiya fanlari doktori, professor G.Pochepsovning "Dushman – zolim, urush –adolatli" bo'lib ko'rinishiga qaratilgan mafkuvaviy talab yaqqol ta'sirini o'tkazgan<sup>5</sup>.

1. N.Abduaizova. "Toshkent matbuoti". –Toshkent, 2010. 14-bet.
2. "Qizil askar haqiqati" gazetasi, 1945-yil, 3-mart, 14 (207)- soni.
3. Shamsutdinov R. Ikkinchiji jahon urushi va front gazetalari. Birinchi kitob. – T.: Akademnashr, 2017. 438-bet.
4. "Qizil askar haqiqati" gazetasi, 1945-yil, 3-mart, 14-son. 1-bet.
5. Почепцов Г. Психологические войны. – М.: Рефл-бук, 2002. – С. 528

### Foydalaniqlgan adabiyotlar

1. Abduaizova N. «Toshkent matbuoti». –T.: Akademiya, 2010. 186-bet.
2. Pocheppov G. Psixologicheskie voynы. – M.: Refl-buk, 2002. – S. 573
3. Shamsutdinov R. Ikkinchiji jahon urushi va front gazetalari. Birinchi kitob. – T.: Akademnashr, 2017. 608-bet.
4. «Qizil askar haqiqati», 1945-yil, 3-mart, 14-son.

**Saida MAKSUMOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti dotsenti*

## O'ZBEK TILINING AMALIY USLUBIYAT DARSLARIDA MATNLAR BILAN ISHLASH TEKNOLOGIYASI

Ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lgan matn bilan ishslash metodi ta'lim oluvchining kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Matn bilan ishslash texnologiyasi orqali talabalarda uslublarni farqlash, har bir uslubga xos matn yaratish, matnga sarlavha qo'yish, undagi xatoliklarni aniqlash, matnni grammatik tahlil qilish malakasini oshirish imkonini beradi.

Matn ustida ishslash topshiriqlarini uch bosqichga ajratish mumkin. Matn oldi bosqichi, matn usti bosqichi, matn osti bosqichiga bo'linadi. Matn oldi bosqichida oldindan bashorat qilish, ya'ni matn sarlavhasi asosida matnda aytib o'tilgan muammolar bo'yicha talabalarning bor bilimlarini aniqlash, savollarga javoblar kabi mashqlardan foydalaniлади. Matn usti bosqichiga jadvalni to'ldirish, matn rejasini tuzish, matnning har bir abzasiga sarlavha tanlash, tushirib qoldirilgan so'zlarни qo'yish, to'g'ri noto'g'ri mulohazalarni aniqlash, rasmlarni matndagi gaplar bilan birga muvofiqlashtirish, gaplarni mantiqan qayta guruhlash, matnni paragraflarga bo'lish va hokazolar kiradi. Matn osti bosqichida xulosaviy fikrlar berish, ya'ni matnda ko'tarilgan har bir masalaga o'z munosabatini bildirish, matn tuzilishi dan kelib chiqib, boshqa janrda o'z matnnini tuzish va hokazolar kiradi. Matn bilan ishslash texnologiyalariga "Insert", "Pinbord", "Lingvopoetist", "Soxta Vikipediya", "Birgalikda harakat qilish" metodlari, "Autentik materiallar", "Bosma materiallar bilan ishslash", "Tushunchalar asosida matn tuzish", "Ikki qismli kundaliklar", "Surat ustida ishslash" kabilar kiradi. Shulardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

**"Insert" metodi asosida matnni tahlil qilish.**

"Insert" usuli talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi. Yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn talabalarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish qilinadi. Talabalar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilarni orqali ifodalandaydilar. Matn bilan ishslashda talabalarغا quyidagi maxsus belgilardan foydalaniш tavsiya etiladi.

- (✓) – men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;
- (+) – yangi axborot belgisi;
- (-) – mening bilganlarimga zid belgisi;
- (?) – meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.

V	+	-	?

Masalan, yangi mavzuni o'tishda quyidagi matn talabalariga taqdim etiladi. Ular matn bilan tanishib chiqib yuqorida жадвалга belgilarni qo'yib chiqadilar.

*A. Abdullayev sinonim so'zlarning xususiyati to'g'risida fikr bildirar ekan, quyidagilarni bayon qiladi: «Sinonimlarning muhim xususiyatlaridan biri belgini darajalab ko'rsata olishdir. Ular mana shu xususiyati bilan o'ziga xos gradatsiya hosil qiladi». Olim gradatsi-*

yani shartli ravishda ikki turga ajratadi: progressiv va regressiv gradatsiya.

Ma'lumki, gradatsiya sinonimik qatorning dominansasi asosida belgilanadi. Agar sinonim so'zning belgi darajasi dominant so'zning belgi darajasiga nisbatan izchillik bilan rivojlanib borsa, progressiv gradatsiya, aksincha, dominant so'zga nisbatan belgi darajasining izchilligi pasayib borsa, regressiv gradatsiya sanaladi. Gradatsiya hodisasi ayni shu xususiyati orqali nutqda konnotativ ma'noni yuzaga chiqaruvchi unumli usullardan hisoblanadi.

So'ngra guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini o'zaro o'rtoqlashadilar, guruh bo'yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Liderlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O'qituvchi guruhrular tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi. O'qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama qarshilik va tushunmovchiliklarni talabalar to'g'ri hal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi.

"Nutq uslublari" mavzusini o'tishga bag'ishlangan amaliy mashg'ulotda "**lingvopoetist**" metodini qo'llash samarali hisoblanadi. Bu metod 2 bosqichda olib boriladi. Amaliy mashg'ulotning birinchi bosqichida talabalarga badiiy asardan ma'lum bir parcha o'qib beriladi, ammo asar nomi va muallifi haqida ma'lumot berilmaydi. Keyin aqliy hujum tarzida "Agar siz ushbu fikrni aytmoqchi bo'lsangiz, uni qanday ifodalagan bo'lardingiz?" mazmunidagi savol o'taga tashlanadi va badiiy uslubdagi matnni boshqa uslubga o'zgartirish topshiriladi. Har bir talaba topshiriqni yozma bajardi, ifodali o'qib eshittiradi. Quyidagi matnni ilova qilish mumkin.

*Inobat yettinchi kelin bo'lib tushgan edi. Kampir yetti o'g'il ko'rgan: yettovini ham o'qitib, oyoqqa turg'azgan. O'g'illari ona izmidan bir qadam chiqishmasdi. Topgan-tutganlarini ona qo'liga tutqazishardi. Lekin oila katta*

*bo'lsa ham, tinch edi. Yetti o'g'il, yetti kelin bir qozondan ovqat yeyishar, bironqa kelin o'zicha qozon osolmasdi. Kelinlarining hammasi ishlashardi. Har oyning o'n beshida o'g'illari, kelinlari birin-ketin kelib, maoshlarini uning oldiga qo'yishadi. Katta ro'zg'or bo'lsa-da, bozor-o'char yaxlit qilinad edi. Kampirning yana bir odati bor edi. U kechqurun kelinlar, o'g'illar uy-uylariga kirib ketganlarda hammasining uyi ostonasida g'imirsib yuradi. Qaysi birining tuflisi yirtilgan, yo tag charmi yedirilgan bo'lsa, yig'ib oladi. Ertasiga ishdan qaytguncha guzardagi ustaga bir xalta qilib opchiqib, butlab olib kelardi.*

O'qib eshittirilgan matnlar tarkibidagi gaplar tahlilga tortiladi. Eng yaxshi matnlar aniqlanib, matn muallifiga "Lingvopoetist" unvoni beriladi.

**"Soxta Vikipediya" metodi.** Ushbu metod talabalarning mavzu bo'yicha materiallarni qanchalik o'zlashtirganini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari ushbu metod talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'tilgan mavzularni o'zlashtirish darajasini aniqlash, mavzu yuzasidan umumiy ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Metodni o'tkazish bosqichlari:

- talabalarga o'tilgan mavzular yuzasidan ikkita alohida matn beriladi. Matnlarning birida xato kuzatilmaydi, ikkinchisida esa aralash va chalg'ituvchi ma'lumotlar mavjud bo'ladi;
- talabalar guruhlarga bo'linadi, har bir guruhga 1-matn beriladi;
- 25 daqqa ichida har bir guruh yozma ravishda matndagi xato ma'lumotlarni aniqlab, ularning to'g'ri variantlarini taqdim etishlari talab qilinadi. Topshiriq bajarish jarayonida internet tarmog'idan foydalanishga ruxsat beriladi;
- talabalar o'z javob varaqalarini topshirishadi. So'ngra har bir guruhga 2-matn beriladi. Unda 1-matndagi xatolar tuzatilgan shaklda taqdim etiladi;
- guruhlar topgan xatolari soniga qarab baholanadilar.

O'tilgan mavzular bilan bog'liq matnni diqqat bilan o'qing	Matndagi xatoliklarni aniqlang.
<p>Denotatsiya tilning baholovchi – emotsiyal aspektiga doir lisoniy kategoriya bo'lib, gapiruvchi shaxsnинг (muallifning) predmetga, narsa va hodisalarga, suhbatdoshi shaxsiga, suhbat jarayonidagi vaziyatga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalab keluvchi leksik birliklarda o'z aksini topadi. Leksik birlik semantikasidagi bunday konnotatsiya unga qo'shimcha emotsiyal, baholovchi ma'nolarni berib, so'zning, birlikning jumla va kontekstning emotsiyal ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.</p> <p>Sh.Rahmatullayev, E.Begmatovlarning qayd etishlaricha, so'zning konnotativ ma'nosi nafaqat kontekstda, balki muayyan sinonimik qatorda ham yuzaga chiqishi mumkin. Bunda konnotativ ma'no so'zlarning sintagmatik munosabati asosida belgilanadi.</p> <p>Shu nuqtayi nazardan, olimlar konnotatsiyaning ingerent va adgerent turlarini farqlaydilar. Ularning fikricha, ingerent konnotatsiya bu – suhbat jarayonidagi vaziyatga nisbatan anglanadigan, adgerent konnotatsiya – so'zning o'zagi bilan bog'liq holatida anglashiluvchi ma'nosidir emas, ingerent konnotatsiya bu – so'zning kontekstdan tashqari olingan holatda anglanadigan, adgerent konnotatsiya – so'zning ma'lum kontekst asosida anglashiluvchi konnotativ ma'nosidir.</p>	<p>1-xatolik: Denotatsiya tilning baholovchi emas, konnotatsiya</p> <p>2-xatolik: Sh.Rahmatullayev, E.Begmatovlarning emas, E.Qilichev, B.Qilichevlarning</p> <p>3-xatolik: sintagmatik emas, paradigmatic</p> <p>4-xatolik: Ularning fikricha, ingerent konnotatsiya bu – suhbat jarayonidagi vaziyatga nisbatan anglanadigan, adgerent konnotatsiya – so'zning o'zagi bilan bog'liq holatida anglashiluvchi ma'nosidir emas, ingerent konnotatsiya bu – so'zning kontekstdan tashqari olingan holatda anglanadigan, adgerent konnotatsiya – so'zning ma'lum kontekst asosida anglashiluvchi konnotativ ma'nosidir.</p>

### **“Tushunchalar asosida matn tuzish”**

*Ikkita guruhga tayanch so'z va iboralar qatori beriladi. Tayanch iboralar asosida to'g'ri va to'liq tuzilgan matn muallifi bo'lgan guruh yuqori ball bilan baholandi. Masalan*

*1-guruhga quyidagi tayanch so'zlar beriladi.*

*1. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, sinonimlar, dominanta, kontekstual sinonimlar, gradatsiya, antonimlar, kontekstual antonimlar, oksyumoron, konnotatsiya.*

*2-guruhga esa quyidagi tayanch so'zlar beriladi.*

*2. Sintaktik sinonimiya, sodda va qo'shma gaplar doirasida sinonimiya, sintaktik omonimiya, erkin va turg'un birikmalar doirasida omonimlik.*

Bu usul asosan mustahkamlash bosqichida qo'llaniladi. Asosiy bosqichda bo'lsa, talabani faol lashtirishga xizmat qiladi. Bu usul talabanining xotirasini mustahkamlashga, o'z-o'zini nazorat qilish, baholashga, e'tibor qaratmagan tomonlarini qayta o'rganishga da'vat etadi.

“O'zbek tilining amaliy uslubiyati”, “O'zbek tili” darslarida matnlar bilan ishslash texnologiyasi samarali natija beradi. O'tilgan mavzularni mustahkamlashga, talabalarning mustaqil fikrlesh qobiliyatini o'stirishga, matndagi uslubiy va boshqa xatolarni topishga, matnni kengaytirish, qisqartirish, shuningdek, tarjima jarayonlarida so'zlarini to'g'ri qo'llashga o'rgatadi. Bu esa talabalarning ham og'zaki, ham yozma nutqining rivojlanishiha yordam beradi.

**Oltoy NURULLOH,**

*Andijon universiteti*

*o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti*

## **O'ZBEK TILI SHEVA EMAS, O'ZBEK XALQINING MILLIY TILIDIR**

So'nggi vaqtida ayrim ilmiy-madaniy yig'inlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarimiz orasida “biz o'zbek emasmiz – turkmiz, tilimiz o'zbek tili emas – turk tili, dushmanlar bizni tahqirlash uchun o'zbek so'zini bizga zo'r dan qabul qildirgan” qabilidagi mulohazalar asnosida o'zbeklikdan xijolat bo'lish va turklidan panoh izlash holatlari kuzatilmoqda.

Dunyoning turli hududlarida yashab kelayotgan 30ga yaqin turkiy xalqlar o'tmishda umumiy nom bilan o'zbek, deb atalgan. Balki qachonlardir hozirgi kunda ham fonetik, ham grammatik, ham leksik jihatdan bir-biridan farq qiladigan 30ga yaqin turkiy tillar namoyandalari yagona tilda so'zlashganlar. Lekin hozirgi kunga kelib bir-biriga qarindosh bo'lgan bu xalqlarning tilida ham, madaniyatida ham, urf-odatida ham, hatto yuz tuzilishlariada ham katta farq vujudga kelgan. Buni tilshunoslik va turkiyshunoslik ilmlari ham tasdiqlaydi.

Aslida bir millat bo'lish til birligi, hudud birligi, iqtisodiy birlik va ruhiy birlikni talab qiladi. Shunday ekan, dunyo turkiy xalqlarini bir til, bir bayroq ostiga yig'ish amrimahol. Chunki bundan sakkiz yuz yil muqaddam yagona turk millati uzoq tarixiy jarayon natijasida 30ga yaqin katta-kichik millatu elatlarga bo'linib ketgan. Hozir turk alohida millat va alohida til hisoblanadi. Xuddi o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, ozar, tatar, yoqut, qoraqalpoq, boshqird, chuvosh, qorachoy, oltoy, xakasu no'g'aylar singari. Bu xalqlarning tili, adabiyoti, urf-odati ma'lum davrgacha mushtarak bo'lib, keyincha lik mustaqil rivojlanish jarayoniga o'tdi.

To'g'ri, Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy, Sakkociy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi shoirlarimiz o'zlarini o'zbek emas, turk degan. Shunday bo'lsa-da, biz ularni turk adabiyoti vakili, deya olmaymiz. Bu adiblarning asarlarini o'zbeklardan boshqa barcha turkiy xalqlar tarjimada o'qiydi. Shuningdek, o'zbeklar ham boshqa turkiy xalqlar adabiyoti tarixiga kiritilgan simolar asarlarini tajimada o'qiydi. Demak, hozirgi kundacha turkiy xalqlar va turkiy tillar turli sabablarga ko'ra har biri mustaqil millat va mustaqil til sifatida shakillanib bo'ldi. Tilshunoslik tarixida qarindosh bo'lgan, hatto ba'zan qarindosh bo'lmagan kichik qabila va elatlarning tillari tadrijiy yaqinlashuv natijasida uzoq zamon mahsuli sifatida yagona tilga aylanish, yoki aksincha, keng hududa yashovchi yagona til namoyandalari bir-biridan uzoqlashib, turli xalqlarga, turli tillarga bo'linib ketish hodisisi ko'plab uchraydi. Bunga slavyan va lotin tillarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ularning har biri ma'lum zamonda iste'molda bo'lgan, ammo hozirgi kunga kelib bir necha mustaqil tillarni paydo qilgan o'lik til hisoblanadi.

XX asrning boshlarida turk qardoshlarimiz qolgan turkiy xalqlar bilan hisoblashmasdan “turk” so'zini o'zlarini qilib olmaganida, balki turk so'zi o'zbeklarga meros bo'lib o'tardi. O'zbeklar bunga haqli edi. Zatan, hozirgi kunda barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak meros hisoblangan “Devoni lug'tit turk”, “Qutatg'u bilig”, “Hibbat ul-haqoyiq” asarlarining tili hozirgi o'zbek adabiy tili

asoslangan qarluq-chigil-uyg'ur, shuningdek, qipchoq, o'g'iz lahja birligi asosida yozilgan. Qolaversa, XIII-XIV asrlarda turkiy tilda yaratilgan asarlarning deyarli bar-chasi yana o'sha – qarluq-chigil-uyg'ur, qisman, qipchoq, o'g'iz lahjalari asosida shakillangan tilda, ya'ni eski o'zbek tilida yozilgan. Bu til aksariyat turkiy sulo-lalarda saroy tili sifatida qo'llanilgan, shuning uchun eski o'zbek tiliga "xoqoniya tili", "xoqoni turkcha", "chig'atoy tili" kabi nisbatlar berilgan. Hazrat Navoiy yozganidek:

Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa mingdur,  
Muayyan turk ulusi xud meningdur.  
Olibmen tahti farmonimda oson,  
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.  
Xuroson demakim, Sheroz-u Tabrez,  
Ki qilmishdur nayi kilkim shakarrez.  
Ko'ngul bermish so'zumga turk jon ham,  
Ne yolg'uz turk, balki turkmon ham.  
Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,  
Aning zabitg'a bir devon yibordim,

Navoiy "xoqoniya turkchasi"ni yoki eski o'zbek tili "turk tili", deb, hozirgi Turkiya turkchasini esa "Rum tili" yoki "rumiy til", deb atagan. Navoiy asarlarida "rum tili" atamasini bir necha joyda uchratish mumkin. Chunonchi, "Nasoyim ul-muhabbat"da Said Imoduddin Nasimi haqida ma'lumoq berar ekan, shoир quyidagilar ni yozadi: "Eroq va Rum tarafidagi mulkdin erkandur. Rumiy va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmida haqoyiq va maorif bag'oyat ko'p mundarijdur. Mazkur bo'lg'an mulk ahlig'a aning she'ri muqobilasida hamonoki she'r yo'qdur. Hamono taqlida ahli ani mazhabida qusur tuhmatig'a muttaham qilib, shahid qildilar. Mashhur mundoqdurki, terisin so'yar hukm bo'lubdur. Ul holatda bu she'rni debdurki,

Nazm:

Qibladur yuzung, nigoro, qoshlaring mehrobralar,  
Surating - mushaf, vale xol-u xating - e'roblar.

Va bu she'rning taxallusi ushbu muddaog'a doldurkim,

Nazm:

Ey, Nasimi, chun tuyassar bo'ldi iqboli visol,  
Qo'y, teringni so'ysalar so'ysun bu paliyd qassoblar.

Bu satrlardan ma'lumki, Navoiy o'sha zamon usmonli turkchasini "turk tili" emas, "Rum tili" yoki "rumiy turkcha" va hozirgi Turkiya hududini "Rum mulki", degan. Ayrim tarixiy manbalarda Jaloluddin Muhammadi Balxiyning "Rumi" deyilishi ham Navoiyning Said Imoduddin Nasimiyni "Rum va Eroq tarafidagi mulkdin erkandur" degan fikrini tasdiqlaydi. Chunki Said Imoduddin Nasimi Iroq turkmanlardan bo'lib, umrining asosiy qismini Turkiya va Suriyada o'tkazgan.

Yuqorida aytganimizdek, XX asr boshlarida yagona mustaqil turkiy mamlakat bo'lgan hozirgi Turkiya Jumhuriyati boshqa turkiy xalqlar bilan hisoblashmasdan turk nomiga ega chiqqan. Bu holat xalqaro miyosda hujjatlashtirilgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda turk deganda faqat Turkiya istiqomat qiladiganlar va turk tili deganda faqat shu mamlakatning rasmiy davlat tili tushuniladi. Bu bilan qolgan turkiy xalqlar o'zini turk deyish huquqidan mahrum etilgan. Turkiston Markaziy Osiyo, Xitoy va Afg'onistonda "Shimoliy Turkiston", "Sharqiy Turkiston" va "Janubiy Turkiston" nomlari bilan hozirgacha yashab kelayotgan bo'lsa-da, bu jug'rofily hududda yashovchi xalqlar tili turk tili yoki o'zları turk xalqi, deb atalmydi. Balki har biri o'z etnik nomi bilan o'zbek, qozoq, turkman, uyg'ur, deb yuritiladi. Shu sababli inglez va rus tillarida barcha turkiy xalqlarni umumlashtiruvchi "turkish" va "түркчи" so'zlari iste'molga kirgan. O'zbek tilida ham turk tili deganda Turkiya turkchasi, turkiy tillar deganda esa ona turk tilidan tarqalgan barcha turkiy tillar tushuniladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda o'zbeklar "biz o'zbek emasmiz – turkmiz, tilimiz o'zbek tili emas – turk tili", deb iddao qiladigan bo'lsalar, bu nifoqqa olib kelishi tayin.

Yana bir qiziq jihat shuki, tarixiy haqiqatni tan olgisi kelmayotgan ayrim yoshlarimiz XIII asrning ikkinchi yarimigacha yagona tilga ega bo'lgan turk millatining parchalanib ketishini ruslardan ko'radi. Bu nihoyatda yuzaki qarash.

O'zbek tili tarixini turkshunos olimlar bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarga suyanib uch davrga bo'ladi: 1. Qadimgi turkiy adabiy til; 2. Eski o'zbek adabiy til; 3. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

Qadimgi turkiy adabiy til davri milodiy V-XIII asrlar ni o'z ichiga oladi. Bu davrga V-XIII asrlarda yaratilgan O'rxon-Enasoy yozma yodgorliklari, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yo'gnakiyning "Hibbat ul-haqqiyiq" asarlari va boshqalar kiradi. Ta'kidlash lozimki, bu davrda yaratilgan ilmiy va adabiy yodgorliklar barcha turkiy xalqlar uchun umumi hisoblanadi.

Eski o'zbek adabiy tili davri XIII-asrning 2-yaridan boshlanib, XIX asrning oxirigacha davom etgan. Bu davrga Hofiz Xorazmiy, Amiriyy, Xorazmiy ("Muhabbatnoma") muallifi, Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Zahiruddin Muhammad Bobur, Mashrab, Munis, Muqimiy, Oghahiy, Avaz O'tar kabi adiblar tomonidan yaratilgan asarlar kiradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili davri esa XX asr avvalidan boshlanib hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili bir asrdan ko'proq vaqt davomida takomillashib kelayotgan adabiy til hisoblanadi. Bu vaqt ichida o'nlab shoир va yozuvchilar o'zlarining qimmatli asarlari bilan o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti karvoni bilan hamnavo qilib kel-

di. Shuningdek, hozirgi kunda o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida barcha sohalarda qo'llanilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan yangramoqda. Ilg'or mamlakatlar bilim yurtlarida

o'zbek tili va adabiyoti bo'limgari ochilgan. Shunday ekan, o'zbek tilini mustaqil til mas, turk tili shevalaridan biri deyish o'zbek xalqini kamsitish va haqorat qilish bilan barobar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Aburahmonov G'. Rustamov A. "Qadimgi turkiy til". – Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 1982.
2. Abdurahmonov G', Rustamov A. "Navoiy tilining grammatic xususiyatlari". – Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 1982.
3. Koshg'ariy M. "Devoni lug'otit turk". Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S. I-III jildlar. – Toshkent, "Fan" nashriyoti. 1960-1983.
4. Mahmudov Q. "Ahmad Yugnakiyning "Hibbata tul-haqoyiq" asari haqida. – Toshkent. "Fan" nashriyoti, 1972.
5. Navoiy A. "Nasoyim ul-muhabbat". 20 jiddlik mukammal asarlar to`plami, 17-jild, – Toshkent. "Fan" nashriyoti 2002.
6. Tursunov U., O'rincev B. "O'zbek adabiy tili tarixi". – Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 1982.

**Nazokat Jiyanova,**

**O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti**

**Sharofova Shaxnoza,**

**O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti 2-kurs talabasi**

## **ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA XALQ MAQOLLARINING USLUBIY O'RNI**

*Erkin Vohidov butun ijodi misolida bizga, o'zidan keyingi avlodga, eng avvalo, milliy qadriyatlardan uzilmay ijod qilish lozimligini uqtiradi. Bu bilan u, har qanday ijodkor asriy an'analarni o'zida mujassam eta olgandagina nafaqat milliy adabiyot, shu bilan birga dunyo adabiyotining bir qismi bo'la olishi haqida o'git beradi.*

Xurshid Davron

Til – bu millatning ko'zgusidir. Har bir millatning o'ziga xos yashash tarzi udumlari, an'analari mavjud. Milliy tilimizning rivojlanishida xalq tomonidan yaratilgan va qo'llanilgan til birliklarining amaliy o'rni beqiyosdir. O'zbek tili ham boshqa til birliklari qatorida maqol, matal va hikmatli so'zlarga boy bo'lib, xalqning ma'naviy merosining naqadar bo'yoqdorligi mana shu maqollarda ham o'z aksini topgan. Xalq yaratgan maqollar janr xususiyatiga ko'ra, serko'lamligi, hajmi, she'riy va nasriy shaklga egaligi, shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni ifodalashi, mazmunning yetakchiligi, o'z va ko'chma ma'noni ifodalashi kabi jihatlari fanda o'rganilgan. Davrlar osha xalq og'zaki ijodining eng qadimgi namunalardan biri sifatida shakllanib kelgan maqollar ham badiiylikni oshiruvchi vosita sifatida she'riyatda va badiiy asarlarda keng qo'llaniladi.

Badiiy adabiyotda o'zining o'tkir qalami bilan iz qoldirgan shoir Erkin Vohidov ijodida ham maqollar dan foydalanishi alohida o'rin tutadi. Xalq maqollarining ma'nolarini to'g'ri anglash va she'rlarida foydalana olish mahorat talab etadi. Mana shu iste'dod va mahorat xalq

shoiri Erkin Vohidovda mujassamdir. Shoir xalq maqolalari yordamida baytlaridagi ma'no qirralarini yanada yorqin, yanada ma'noli qilib yoritib bera olgan. Bu esa she'riyat muxlislarining she'r mazmunini teran anglab olishlariga yaqindan yordam beradi. Erkin Vohidov mohir so'z ustasi, so'z sehrining ma'no qirralarini to'g'ri anglagan holda she'rlarida o'rinni qo'llay olgan shoir ekanligi minglab kitobsevarlar tomonidan tan olingen. Shoir o'z ijodida mumtoz adabiyot namunalarini qayta jontantirgan va qayta ma'no kasb etgan shoirdir. Shuning uchun ham uning she'rlarini yosh-u qari birday sevib o'qiydi. Ushbu maqolada shoir she'rlarida qo'llangan xalq maqollarining uslubiy o'rni xususida to'xtalamiz.

Bizga ma'lumki, adabiyotshunoslikda irsolai masal san'ati she'lda maqol, matal, hikmatli so'zlarni muayyan maqsad bilan ishlatish usuli ekanligi ta'kidlab o'tilgan. O'zbek she'riyatida qalam tebratgan va bugungi kunda ham ijod qilayotgan shoirlar she'riyatida xalq maqollarini uchratish mumkin. Erkin Vohidov ham ijod namunalarida bunday san'at turidan o'rinni va unumli foydalana olgan.

Maqollardan mumtoz adabiyotimizda ham keng foy-dalanib kelingan. Irsoli masal san'ati qoidalariga ko'ra xalq maqollar shoirlar tomonidan bir necha usulda qo'llaniladi. Birinchidan, maqollar hech qanday o'zgarishsiz she'r mazmuniga monand holda foydalaniadi. Ikkinchidan, maqollarning mazmuni she'rning mazmuniga singdirib yuboriladi. Bu kabi holatni Erkin Vohidov lirikasida ham kuzatishimiz mumkin.

### **Yaxshidir achchiq haqiqat**

*Lek shirin yolg'on yomon.  
 Ul shirin yolg'onga mendek  
 Aldanib qolg'on yomon.*

Ko'rib turganimizdek, bu misralardan “to'g'ri so'z, ya'ni haq gap achchiq bo'ladi” degan ma'no-mazmun mujassam. Insonlarni yolg'on gaplarga aldanib qolmasligini, har qanday vaziyatda ham to'g'ri so'z yaxshi ekanligini ifodalagan.

*Sen-ku Zuhrosan falakda,  
 Intizingman faqat.  
 Ne ajab, talpinsa ko'nglim,  
 Yo'q emish orzuda ayb.*

Shoirning so'z qo'llash mahorati, so'zdan o'rinni foydalanish, shuningdek, xalq maqollarining ma'nosini she'r mazmuniga singdira olishda ko'rindi. Shuning uchun ham aynan mana shu leksik birliklar, ya'ni xalq maqollar she'rga ajib bir badiiyat olib kirgan va mazmun ma'nodorligini yanada shakllantirgan. Yuqorida baytimizda xalq orasida “Orzuga ayb yo'q” shaklida tarqalgan maqoldan she'riyat talabi bilan Yo'q emish orzuda ayb shaklidan foydalangan va she'r mazmuniga moslashtirilgan.

Shoir xalq maqollarini she'rning mazmuniga singdirib yuboradi. Natijada, maqol she'r mazmunini, ohangdorligini yanada ochib bergan. Bunda lirik qahramon aytmoxchi bo'lgan fikr aniqligi bilan o'z ifodasini topgan:

*Umrini oshiq hamish*

*O'tkazur orzu bilan.*

*Oyning o'n beshi qarong'u,  
 O'n beshi yorug' bilan.  
 Sevgida ko'ksingga tomgan  
 Ko'z yoshingdan foya yo'q,  
 Ishq axir shunday olovki,  
 O'chmagay u suv bilan.*

Shoir she'rida xalq maqolining “Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'” shaklidan foydalangan. Bunday holat she'r talabi va fikr ixchamligiga erishish maqsadida qo'llanilgan. Aslida bu maqolning xalq tilida “Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorugdir” shakli mavjud. Lirik qahramon ishq sahosida olov kabi yongan yurakni ko'z yoshi bilan o'chirib bo'lmashlig-

ini, unga sabr va chidam bilan erishish mumkinligi ni bashorat qilgan. Bu bilan ishq sahosiga qadam qo'ygan har bir insonni sevgi bobida matonatli bo'lishga chorlagan.

Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida keltirilgan “Boshinga qilich kelsa ham rost so'zla” hikmatini Erkin Vohidov ijodida ham bir necha marta qo'llanilganligini kuzatishimiz mumkin:

*Gar qilich kelsa boshinga,  
 Qo'rhma Erkin rost gapir.  
 Yaxshidir achchiq haqiqat,  
 Lek shirin yolg'on yomon.*

Bu she'rda ham maqol mazmuni she'r mazmuniga singdirib yuborilgan va shoirlarning maqsadini to'g'ri ochib bergen. Rostlik hamma vaqt insonning ziynati ekanligi shoир maqsadiga hamohang xalq maqolining uyg'unlashuvi yuz bergen. Bu esa she'r mazmunini aniq anglab olishga yordam beradi.

Xalqimiz orasida “Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib” maqoli bejiz aytilmagan. Insonlarni do'stlashishga chorlovchi bu maqoldan ham shoир o'rinni foydalangan, hammaning ham haqiqiy va chin do'sti bo'lishi va qoqliganda to'g'ri yo'lni ko'rsatishi ta'kidlangan: Chunki insonning faqat chin do'stigina rost so'zlaydi va xatolarini ko'rsatib to'g'ri yo'lda boshlaydi:

*Achchiq esa ham  
 Chinni demak sharti sadoqat  
 Do'st anglamasa,  
 Yot buni qay on tushunibtur.*

Yoki yana bir she'rida “Do'st ming bo'lsa ham – oz, Dushman bir bo'lsa ham – ko'p”, degan xalq maqoldidan foydalaniadi:

*Do'st qidir top jahonda,  
 Do'st yuz ming bo'lsa oz,  
 Ko'p erur bisyor dushman  
 Bo'lsa u bir dona ham.*

Bunda haqiqiy do'starning ko'p bo'lishi, yaxshi-yomon kuningda yoningda turishi xususida fikr yuritilgan. Xalq maqollaridan mosini qo'llash Erkin Vohidov uslubigagina xos jihat. Shoир xalq ijodi namunalarni she'r mazmuniga moslagan holda, ko'pni ko'rgan inson, teran fikrga ega donishmand sifatida, hayotiy haqiqatlar misolda olib kirgan. Shuning uchun ham uning she'rlaridagi mazmun kitobxon ko'z o'ngida aniq va ravshan gavdalanadi:

*Degaylar: o'zgadin kulma,  
 O'zgadin bo'lmayin ogoh.  
 („O'zgaga kulguncha o'z aybingni bil!”)*

Insonlarning fe'l-atvorini ochib beruvchi "O'zgaga kulguncha o'z aybingni bil!" xalq maqolining mazmuni she'r mazmuniga uyg'unlashib ketgan. Jiddiy mulohaza bilan o'qimasak, maqolni anglab olish qiyin. Bunday qo'llash usuli faqat xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub. Yoki yana bir o'rinda:

*O'zi tushgay emish oxir  
 Birovga kimki qazgay choh.  
 ("Birovga choh qazigan o'zi  
 tushar")  
 ("Birovga choh qazisang  
 o'zing tushasan")*

Yaxshilik va yomonliklar kurashi xususidagi fikrlar xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan. Masalan, shoir "Birovga choh qazima, o'zing tusharsan" maqolining "Birovga choh qazigan o'zi tushar" variantidan foydalangan. Bu maqolning "Birovga choh qazisang o'zing tushasan" varianti ham mavjud bo'lib, so'zlashuv uslubida keng qo'llanadi. Bu she'rda ham yaxshilik qilish yaxshi ish ekanligi, yomonlik qilishdan qochish kerakligi ifodalangan.

Xalq ichida "Toqqa chiqmasang do'lona qayda, Jon chekmasang jonona qayda" maqoli ko'p qo'llanadi. Bu maqol insonlarni ezgu ishlarga harakat qilish, intilish, kurashish kabi tuyg'ularga undaydi. Shoir "O'rtada begona yo'q" she'rda shunday yozadi:

*Ko'yida men tosh boshimni  
 Urmagan ostona yo'q,  
 Elda bor shunday masal:  
 Jon chekmasang jonona yo'q.*

Yashash uchun kurash shoir maqsadi, u tosh boshini turli ostonalarga urib chiqdi. Ba'zida yaxshi natijalar bo'ldi, ba'zida esa yo'q. Biroq lirik qahramon kurashdan charchamadi va natijada shunday xulosaga keldi "Jon chekmasang jonona yo'q". Shoir bir o'rinda shunday yozadi:



Bo'libsan oshiq, Erkin,  
 Uz umid jondin, o'kinch qilmay.  
 O'zingga, deydilar, dushman  
 Keyin chekkan pushaymon, oh.

Xalq tilida, ayniqsa, so'zlashuv va badiiy uslublarida "So'nggi pushaymon – o'zingga dushman" maqoli keng qo'llanadi. Shoir shu maqolni she'r mazmuniga singdirib yuborgan. Erkin Vohidov she'riyatida xalq maqollaridan o'rinci va unumli foydalanan holatini ko'plab kuzatish mumkin. Aytmoqchi bo'lgan fikriga mos holda xalq maqollaridan foydalana olish mahorati har bir shoir uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, Erkin Vohidov she'riyatida xalq maqollari juda ham ko'p berilgan. Ular shoirning turli mavzudagi she'rlarida uslub nuqtayi nazaridan qo'llangan. Lirik qahramonning maqsadini, she'r mazmunini to'laqonli yoritib berishga xizmat qilgan. Shoir she'riyatida qo'llanilgan maqollarning uslubiy o'rnnini barchamiz birdek bilishimiz va tahlil etishimiz kerak. Ayniqsa, yoshlarning badiiy matnda mavjud xalq maqollarining uslubiy ma'nosini bilishlari ularni to'g'ri tahlil etishga o'rgatadi. Bu esa ota-bobolarimiz yaratgan maqollarning ma'no qirralarini va qanday uslubiy vazifaga xoslanganligini bilib olish imkoniyatini beradi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar


1. E.Qilichev. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. N.Jiyanova. O'zbek tilining amaliy uslubiyati. – Toshkent, 2018.
3. E.Vohidov. Saylanma. 3-jild. Umrim daryosi. – Toshkent: "Sharq", 2001.
4. E.Vohidov. Yoshlik devoni. – Toshkent: "Sharq", 1969.
5. E.Vohidov. 1-jild. Bahor tarovati. – Toshkent: "Sharq", 2015. 144–145-betlar.
6. E.Vohidov. Asarlar. 3-jild. Kuz saxovati. – Toshkent: "Sharq", 2016. 51-bet.

**Gulabza UMAROVA,**  
*Samarqand viloyati Urgut tumani Xalq ta'limi  
bo'limiga qarashli 147- umumta'lum maktabi ona tili  
va adabiyot fani o'qituvchisi*

## ADABIYOT - MA'NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI VOSITA

Adabiyot xalq, jamiyat hayotining o'ziga xos ifodasidir. Adabiyot darsini hayotni o'rgatuvchi dars deb hisoblayman. Chunki asosan adabiyot darsi o'quvchini hayotga tayyorlaydi. Adabiyot darsini o'qitish o'qituvchidan katta tajribani talab qiladi. Chunki darslikda berilgan har bir asardan yoki she'rdan parchami hamma-hammasida insoniy, ma'naviy, axloqiy qarashlar bor. Bularni tushuntirishda o'quvchiga shunday tushuntirish kerakki, u bundan o'ziga yetarlicha tarbiya olsin. O'quvchi adabiyot darsini hayot darsi deb bilsin. O'qituvchi, avvalo, adabiyot nafosatining notig'i va os-hig'i bo'limasa, o'quvchiga hayot darsini qanday singdiradi. Hozirgi yoshlar chet ellardan kirib kelayotgan urf-odatlarga odatlanib qolmoqda. O'zimizni hech bir chet eldan qolishmaydigan go'zal urf-odatlarimiz, insoniylik tuyg'ulari, mehr-oqibat xislatlari, mehr-shafqat tushunchalari bor. Shu o'rinda shoirimiz Abdulhamid o'g'li Cho'lponning adabiyot haqidagi fiklari yodga tushadi. «Ha, to'xtamasdan harakat qilib turg'on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o'lmag'an va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo'ur».

Buni har doim o'quvchi ongiga singdirib borishimiz kerak. Ayniqsa, adabiyot darslarida ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak. Bu esa o'qituvchidan katta tajribani talab qiladi. O'qituchining o'zi qiziqmasa, darslikda berilayotgan asar mazmunini yosh murg'ak qalbiga qanday joylaydi. Adabiyotni o'qitishda asarlardagi ba'zi so'zlarni, ya'ni kechagi o'tmishimizdagи so'zlarning ma'nolarini o'quvchilar umuman tushunishmaydi. Shu borada yoshlarga o'zimizning shunday go'zal so'zlarimizni bilmay ulg'ayishi alam qilib ketadi. Bugungi kundagi biz tengqurlar bilishi mumkin, lekin farzandlarimiz bilmaydi. Tiliimiz boy til, shu boyligi qishloqda yashovchilar orasida qisman saqlanib qolyapti. Dars jarayoni ba'zi so'zlarni ishlatsam, o'quvchilar tushunmay qolishadi. Shu darajada davom etaversak, so'z boyligimiz qashshoqlashib boraveradi. Hozir yangi ona tili va adabiyot darsligida shunday so'zlarga e'tibor qaratilayotgani quvonarli, albatta. Hayotda g'urur, erk,



diyonat, sadoqat kabi insonni komillikka chorlovchi tushunchalar bor. Bundan tashqari yuqori sinf darsligida muhabbat, sevgi tushunchalari bor. Masalan, Navoiy asarlarini olaylik. Farhod va Shirin o'rtasidagi samimiy, sof milliy muhabbatni boricha o'quvchilar ongiga to'g'ri singdirish kerak. Bundan tashqari Abdulla Qodiriyning asarlarida ham shunday muhabbat bilan yo'g'rilgan Otabek va

Kumush, Anvar va Ra'no tilmsollarini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarimiz bu obrazlar orqali sof milliy sevgini, bu sevgida g'urur, iffat, hayo bosh mezon ekanligini ongiga shunday singdirishlari kerakki, toki chetdan kirib kelayotgan behayo sevgilardan nafratlanadigan bo'lib tarbiyalansin. Bugungi kundagi 10- sinf darsligida Mansur Siddiqovning "Muhabbat nima?" matni asosida muhabbat, sevgi, ishq so'zlariga izoh berib o'tilgan. Bunday tushunchalarni hozirgi yoshlar to'g'ri qo'llay olishlari uchun yaxshigina dasturulamal bo'la oladi. Hozirgi yangi darsliklarga ana shunday unitilish arafasida turgan so'zlardan matn asosida ham berib borilayotgani kishini quvontiradi.

Adabiyot darsligidagi mavzularda tasvirlangan fikr, tuyg'ularni so'zlar, gaplar yordamida tasvirlab, o'quvchi qalbiga ham xuddi shunday qilib yetkazilsa, asar o'quvchi yuragida to'lqinlarni yaratса, albatta, maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Aslida ham asardagi voqealar turmushni aks ettiradi, undagi hodisalar, umumiy tuyg'ular umumlashtirilib, obrazlar orqali beriladi, buni tushungan o'quvchi dunyoni anglab boradi. Xalqimizga xos bo'lgan insoniy tushunchalar adabiy asarlarda jonli tarzda ifodali qilib beriladi. Zero, Abdulla Qahhor aytganidek, "Adabiyot — ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi — meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi..."

... Quyosh, havo, yer, suv barcha jonivor va ko'katlarga ozuqa berganidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste'dodli, uning qalam tutgan qo'li qan-chalik tajribali bo'lsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minnatdor bo'ladi, uning ijodini, umuman, adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi."

Shuni ham aytib o'tishim kerakki, avvalo, o'quvchini badiiy adabiyotni o'qishga qiziqtirishimiz, turli xil usullardan foydalananib darsni qiziqarli qilib o'tishimiz kerak.

**Qayum BAYMIROV,**  
*pedagogika fanlari nomzodi*

## DARS NATIJASI: ILMIY IZLANISH VA ISHONCHLI HAMJIHATLIK

*"Bilimga eltuvchi yagona yo'l bu – faoliyatdir".*

**Bernard SHOU**

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti har bir tadqiqotchidan timilsiz ilmiy - amaliy izlanishlarni fidoyilik va faoliik bilan bajarish uchun keng yo'l ochmoqda.

Davlat va jamiyat rivoji ilm-fanning amaliy asoslangan holda joriy etilganligi bilan belgilanishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Aytmoqchimizki, davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun joriy etiladigan ilmiy-amaliy yo'nalishdagi har qanday tashabbus va g'oyalar har jihatdan mukammal bo'lishi shart. Shu jihatdan qaralganda, har bir fuqaro, qolaversa, har bir mas'ul shaxs bu haqda o'ziga jiddiy savol berishi va aniq javob topishga intilishi, izlanishi darkor.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar xalqimiz hamda kelajak avlodlar orzu-umidlarining ro'yogha chiqishi, sog'lom dunyo-qarashi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun xalqimizning: "Bilimgiga dunyo yorug", Bilimsizga – qorong'u, – degan hikmatli maqolini jiddiy mushohada qilib, chin yurakdan anglab, kasbiy faoliyatni tubdan yangilash yo'lida zamon talabiga javob beradigan izlanishlar olib borishni davrning o'zi taqazo etmoqda. Albatta, bu oson emas, lekin boshqa yo'l yo'q.

Ta'lrim sifatini oshirish, ilg'or g'oya va tashabbuslarni joriy etishda erishilajak natijalar timilsiz izlanishlar bilan o'chanadi. Yutuqlar esa kishini keyingi yangi marralalar sari boshlaydi. Shu ma'noda har bir tadqiqotchi o'tgan vaqt mobaynida nima qilding-u nimalarga ulgura olmagani, qanday yutuqlarga erishgani-yu oldinda yana qanday vazifalar turibdi, kabi savollarni o'z-o'ziga berib, ta'lrim jarayonidagi mas'uliyatini his etishi zarur.

Fikrimizcha, amaliyotni anglash ko'p hollarda innovatsiya yoki biron yangilik qilish o'ziga xos murakkab intilish jarayoni sifatida qaralgan. Ammo pedagogning dars jarayonidagi vazifasini to'g'ri va asoslangan holda anglash bilan kelishining o'zi innovatsiya bo'lishi hamda ijodiy muloqotga tayyor holda bo'lishi shart, degan oddiy talabni to'g'ri tushunish lozim.

Darhaqiqat, bugungi kunda dars jarayonida bir qator savol o'rta ga qo'yilishi o'ta dolzarb bo'lib turibdi. Ya'ni "O'tayotgan darsim o'zimga kerakmi?", "Darsdan o'zim qanday foyda ko'raman va amaliyotga tatbiq etaman?" degan aniq savollarga o'ta mas'uliyat bilan javob izlash ayni muddao.

Darsda "Ommalashtiriladigan namunaviy tushuncha", "Innovatsion yangi g'oya muallifi", "Eng sifatlari

javob" kabi ilmiy mushohodalarga kelish uchun ta'limgarayoni ishtirokchilarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, dars jarayoniga bunday yondashuvilar o'z holicha qiziqarli bo'lmaydi. Buning uchun pedagog darsga oldindan mukammal va asosli tayyorlanishi zarur.

Pedagogika nazariyasida uzoq vaqtgacha dars doimo tashkilotchi, ya'ni pedagog ustuvorligida o'tishi shart, degan qarash ustuvor bo'lib kelgan. Biroq bugungi kunga kelib bu biryoqlama qarash ekani ma'lum bo'lmoxda. Ta'limga oluvchilar bilan ijodiy ishlash uchun dars natijasi strategiyasini ishlab chiqish va uning taqdimotini tayyorlash, shu bilan birga ta'limgarayoni ishtirokchilari erishadigan amaliy natijalarni oldindan belgilash maqsadga muvofiq.

Boshqa tomondan, ta'limga oluvchilar "Nimani va qaysi tushunchani o'rgansam, darsni o'zlashtiraman?" degan savolga tayangan holda tahsil olishi hamda ta'limgarayonining mohiyat-mazmunini mukammal o'zlashtirish ustida asoslangan harakatlarni mas'uliyat bilan olib borishi ijobjiy natijaga olib keladi. Aytish mumkinki, ta'limga oluvchilar tashabbusi va g'oyasi bilan mashg'ulot jarayoniga aralashgan har bir o'qish vositasi bugungi talablarga batafsil javob berishi, keyin dars jarayoniga tatbiq etilishi shart, degan talab ostida tubdan yangi nuqtai nazar bilan dars jarayoni tashkil etish borasida pedagoglar ilmiy izlanish olib borishi juda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy izlanish natijalaridan ruhlanish barobarida ta'limgarayoni ishtirokchilari o'zi ustida mukammal ishlashi, kelgusida malakali kadr bo'lib etishish uchun ta'limgarayonida yangidan-yangi ilmiy g'oyalar bilan ishtirok etishi ham dolzarb masalaga aylangan.

Shu bilan birga doimiy izlangan holda ilg'or innovatsion g'oya va texnologiyalarni o'z faoliyatida tatbiq etishi lozim. Bugungi kunda faqat ta'limga oluvchilar amaliyot davrida o'zlashtirgan ijodiy malakalarini boyitishi malakali kadr bo'lib shakllanishida aosiy mezon bo'lmoxda. Ko'zi chaqnab, yonib turgan izlanuvchan ta'limga oluvchilar soni ortishi bilan dars jarayoni tobora ijodiy hamda ilmiy jahatdan takomillashadi. SHuning barobarida ishbilarmon, tadbirkor, bugungi davr talabiga javob bera oladigan kadr bo'lib shakllanishi asosiy maqsad hisoblanadi.

Ta'limgarayoni ishtirokchilari tomonidan dars jaray-

onida beriladigan topshiriqlarni bajarish ham shaklan, ham mazmunan tubdan yangilanishi zarur. Ta'lrim oluvchilarga beriladigan topshiriqlar bugungi amaliy ta'lrim muammolariga va ta'lrim mazmuniga qaratiladi hamda darsliklar mazmuni, uni o'zlashtirishga doir topshiriqlarni bajarish muhim ahamiyatga ega. Dars yaxshi tushuntirilsa ta'lrim oluvchilar o'tasida sog'lom muhit shakllanadi. Bu muayyan muvaffaqiyat va yutuqlarga olib keladi. Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, pedagoglar ilmiy izlanishi faqat amaliyat, ya'ni ta'lrim oluvchilar va darslik – o'quv vositalari ustida ish-lash haqida ijodiy fikr yuritishi maqsadga muvofiq.

Har bir pedagog ta'lrim oluvchilar kelajagimiz tamal toshi ekanini anglagan holda o'zi ustida tinmay ish-lashi va dars mashg'ulotlarining sifatini oshirishi zarur. Mashoyixlar "**O'qituvchining mahorati u tarbiyalagan o'quvchilarning bilimdonligi bilan o'Ichanadi**", deb bekorga aytмаган. Darhaqiqat, t'lim jarayoni ishtirokchilar ilm nurlarini sochayotgan bilimga chan-qoq ta'lrim oluvchilarning har biri yaqin kelajakda yosh avlodni tarbiya qiladi, ustozlardan oлган bilimini amalda tatbiq etadi. Tarbiya bu – itoat qilish, shuningdek, u qonun hujjatlariga mos kelishi kerak. Ta'lrim oluvchilar malakali bo'lishi uchun normativ-xuquqiy hujjatlar asosida tashkil etilayotgan darslarni tubdan yangi fikr bilan tushunishi kerak.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lrim oluvchilar o'tasida korrupsiyaga yo'l bermaslik haqida tushunchalar shakllanishi muhim o'ringa ega. Bu borada timsiz tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Ta'limga nazorat ishlarinining onlays, ya'ni shaffof tarzda tashkil etilishi, ta'lrim oluvchilar bilimini baholashning ochiq va ishonchli tizimi yaratilgani ijobji natijalar bermoqda.

Albatta, korrupsiyadan holi muhitda o'zaro hurmat paydo bo'ladi. Qolaversa, haqiqat qaror topgan joyda rivojlaniш, taraqqiyot bo'ladi.

O'z vatani va xalqiga sadoqatli, erkin fikrlaydigan va izlanuvchan avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dars jarayonida ta'lrim oluvchilarning "Bu menga nima berdi?" degan g'oya bilan har bir darsga mas'uliyat bilan qarashi ta'lrim jarayoni ishtirokchilaridan timsiz izlanishni talab etadi. Bu nuqtai nazarga ijobjiy yondashgan holda dars jarayonida navbatma-navbat turli qiziqarli tadbirlar, musobaqalar uyuşhtirish yaxshi samara beradi.

Albatta, ta'lrim beruvchilar dars jarayonida tavsiya etiladigan o'quv vositalarini o'zları batafsil o'rgangan bo'lishi kerak. Shu bois navbatdag'i darslarda o'quv adabiyotlari bo'yicha savol va topshiriqlar berish hamda yangi o'quv adabiyotlari yoki manbalar haqida ma'lumotlar berish lozim.

Jadid adabiyoti namoyandas, ma'rifatparvar bobomiz **Mahmudxo'ja Behbudiy**: "**Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur**", – deb barchani dunyoviy ilm olishga da'vat etgan. Hozirgi kunda dunyoviy ilm o'rganish jadal sur'atlarida rivojlanmoqda. Bunda ilmiy izlanishlar talab etiladi. Barcha sohalarda erishilayotgan yutuqlar zamirida ilmiy-ijodiy ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilgani hamda ilmiy salohiyatdan samarali foydalilanilganlik yotadi.

Ulug' muhaddis bobomiz Imom Buxoriy ta'kidlag'anlidek: "**Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'Imagay**".

**Sevara JALALOVA,**

*Chirchik State Pedagogical University  
of Tashkent Region, a bachelor student*

## SPEAKING SKILLS AS ONE OF THE IMPORTANT PROBLEMS OF TEACHING AND LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

Speaking is an activity used by someone to communicate with others. It takes place everywhere and has become part of our daily activities. When someone speaks, he or she interacts and uses the language to express his or her ideas, feelings, and thoughts. He or she also shares information to others through communication. It is not a secret that learning a foreign language is one of today's vital questions. Language learning is very complicated or we can say it is very difficult when there are no any chances to communicate with native

speakers. Language learners are often too embarrassed or shy to say anything when they do not understand another speaker or when they realize that a conversation partner has not understood them. Language teachers can help learners overcome this reticence by assuring them that misunderstanding and the need for clarification can occur in any type of interaction, whatever the participants' language skill levels. Language teachers can also give students strategies and phrases to use for clarification and comprehension check.

By encouraging students to use clarification phrases in class when misunderstanding occurs and by responding positively when they do, teachers can create an authentic practice environment within the classroom itself. As they develop control of various clarification strategies, students will gain confidence in their ability to manage the various communication situations that they may encounter outside the classroom. Many language learners consider speaking ability as the measure of knowing a language. These learners define fluency as the ability to converse with others, much more than the ability to read, write, or comprehend oral language. They regard speaking as the most important skill they can acquire, and they assess their progress in terms of their accomplishments in spoken communication. Language learners need to recognize that speaking involves three areas of knowledge.

**The first** is mechanics and it includes pronunciation, grammar, and vocabulary. This means using the right words in the right order with the correct pronunciation.

**The second** is function. Function consists of transaction and interaction. Transaction means when clarity of message is essential. Interaction means when precise understanding is not required.

**The third** is social and cultural rules and norms. This stage includes turn-taking, rate of speech, length of pauses between speakers, relative roles of participants. Understanding how to take into account who is speaking to whom, in what circumstances, about what, and for what reason.

In the communicative model of language teaching, language teachers help their learners develop this body of knowledge by providing authentic practice that prepares students for real-life communication situations. They help their students develop the ability to produce grammatically correct, logically connected sentences that are appropriate to specific contexts, and to do so using acceptable pronunciation.

Traditional classroom speaking practice often takes the form of drills in which one person asks a question and another gives an answer. The question and the answer are structured and predictable, and often there is only one correct, predetermined answer. The purpose of asking and answering the question is to demonstrate the ability to ask and answer the question.

In contrast, the purpose of real communication is to accomplish a task, such as conveying a telephone message, obtaining information, or expressing an opinion. In real communication, participants must manage uncertainty about what the other person will say. Authentic communication involves an information gap. Each participant has information that the other does not have. In addition, to achieve their purpose, participants may have to clarify their meaning or ask for confirmation of their own understanding. To create classroom speaking activities that will develop communicative competence, language teachers need to incorporate a purpose and an information gap and allow for multiple forms of expression. However, quantity alone will not

necessarily produce competent speakers. Instructors need to combine structured output activities, which allow for error correction and increased accuracy, with communicative output activities that give students opportunities to practice language use more freely.

In teaching and developing speaking skills we use several activities such as: structured output activities, information gap activities, completing the picture, jigsaw activities, etc. Now we are going to explicate about some activities which help to develop speaking skills.

Two common kinds of structured output activities are information gap and jigsaw activities. In both of these activity types, students complete a task by obtaining missing information – a feature the activities have in common with real communication. However, information gap and jigsaw activities also set up practice on specific items of language. In this respect, they are more like drills than communication.

**Information Gap Activities.** Filling the gaps in a schedule or timetable: Partner A holds an airline timetable with some of the arrival and departure times missing. Partner B has the same timetable but with different blank spaces. The two partners are not permitted to see each other's timetables and must fill in the blanks by asking each other appropriate questions. The features of language that are practised would include questions beginning with "when" or "at what time". Answers would be limited mostly to time expressions like "at 8:15" or "at ten in the evening."

**Completing the picture.** The two partners have similar pictures, each with different missing details, and they cooperate to find all the missing details. In another variation, no items are missing, but similar items differ in appearance. For example, in one picture, a man walking along the street may be wearing an overcoat, while in the other the man is wearing a jacket. The features of grammar and vocabulary that are practised are determined by the content of the pictures and the items that are missing or different. Differences in the activities depicted lead to practice of different verbs. Differences in number, size, and shape lead to adjective practice. Differing locations would probably be described with prepositional phrases.

These activities may be set up so that the partners must practise more than just grammatical and lexical features. For example, the timetable activity gains a social dimension when one partner assumes the role of a student trying to make an appointment with a partner who takes the role of a professor. Each partner has pages from an appointment book in which certain dates and times are already filled in and other times are still available for an appointment. Of course, the open times do not match exactly, so there must be some polite negotiation to arrive at a mutually convenient time for a meeting or a conference.

Jigsaw activities are more elaborate information gap activities that can be done with several partners. In a jigsaw activity, each partner has one or a few pieces of the "puzzle" and the partners must cooperate to fit

all the pieces into a whole picture. The puzzle piece may take one of several forms. It may be one panel from a comic strip or one photo from a set that tells a story. It may be one sentence from a written narrative. It may be a tape recording of a conversation, in which case no two partners hear exactly the same conversation. In one fairly simple jigsaw activity, students work in groups of four. Each student in the group receives one panel from a comic strip. Partners may not show each other their panels. Together the four panels present this narrative: a man takes a container of ice cream from the freezer; he serves himself several scoops of ice cream;

he sits in front of the TV eating his ice cream; he returns with the empty bowl to the kitchen and finds that he left the container of ice cream, now melting, on the kitchen counter.

These pictures have a clear narrative line and the partners are not likely to disagree about the appropriate sequencing. You can make the task more demanding, however, by using pictures that lend themselves to alternative sequences, so that the partners have to negotiate among themselves to agree on a satisfactory sequence.

#### References

1. Jalolov J.J. Foreign language teaching methodology. – Tashkent: Ukituvchi, 2012.
2. Khoshimov U., Yakubov I. English teaching methodology. – Tashkent, 2003.
3. Rogova G.B., Rabinovich F.M., Sakharova E.E. Methods of teaching foreign languages in secondary school. – Moscow: Prosveshchenie, 1991.
4. Baswood T. New methods of using computers in language teaching (new methods in Tesol II Series). – California: English teachers to speakers of other languages, 1997.
6. Harmer J. How to teach English. – Harlow, Essex: Pearson-Longman, 2007.
7. Johnson D. and Eisenberg M. Learning and teaching information technology – computer skills in context, 2006. East Lansing, Mi, Eric document ED465377, retrieved 7 June 2007, <http://www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm>.
8. Varschauer M., and Kern K. Teaching network-based languages: concepts and practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

**Shirinova Nargiza**  
*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi  
 universiteti dotsenti*

## HARBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING BILISH DARAJASI VA ULAR YOSHINING O'ZIGA XUSUSIYATLARI

Harbiy kadrlarning ta'lif-tarbiyasi, bo'lajak himoyachilarimizni barkamol ko'rish istagi barcha xalqlar, mamlakatlar uchun dolzorb hayotiy muammo bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun ham har qanday millatning mutafakkirlari va yo'lboshlovchilarining harbiy kadrlar ta'lif-tarbiyasi bilan bog'liq masalalar ustida bosh qotirgani ilmiy manbalardan ma'lum. Shuning uchun bo'lsa kerak, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev dastlabki kunlariданоq, harbiy kadrlar ta'lif-tarbiyasi, Vatan, millat istiqbolini eng muhim, dolzorb masala sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Tadqiqotimizning ob'ekti qilib harbiy oliy ta'lif muassasalari kursantlarini tanlashimizdan maqsad, ularga ingliz tilini o'rgatishning nihoyatda muhimligidir, chunki hozirgi davr har tomonlama rivojlangan, o'z kasbining mohir bilimdonlari bo'lgan harbiy kadrlar tayyorlashni taqozo etadi.

Harbiy oliy ta'lif muassasalari kursantlarining yoshi psixologik jihatdan o'spirinlik yoshi hisoblanib, 17-22 yoshli kursantlarga to'g'ri keladi. O'spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilar keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajri-

ba yetishmayotganligini, buning uchun ko'prok o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar. Hayot faoliyati kengaygan sari, o'spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomonrangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o'zgarib boradi.

O'spirinlar aqliy rivojlanishida tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hyech qanday ishni to'g'ri rejalahtirish mumkin emas. O'spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo'lsagina, u o'z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi, shunga ko'ra uzoq va yaqin rejalarini tuzadi. Hozirgi yigit va qizlarni 30-40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda, ularning umumiyo saviyalari naqadar o'sganligini ko'rish mumkin. O'spirinlarning intellektual qiziqishlari doirasi keng va ko'pqirralidir. O'spirinlarning qiziqishlari aksariyat holdarda o'zi tanlagan kasb va yo'nalish shuningdek, hayotiy rejalariga asoslangandir. O'spirinlik yoshiga kelib, yigit va qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog'onaga ko'tarila boshlaydi. Bu esa o'spirinning tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi.

O'spirinlarning dunyoqarashi endi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy va diniy qarashlari tizimidan iboratdir. Ma'lum bir kasbda faoliyat ko'rsatishni boshlayotgan o'spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo'lishi kerak [2].

O'spirinlik davrida kursantlarda bilishga oid qiziqish ko'lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, kasbiy, ya'nı harbiy sohaga, ijtimoiy-siyosiy masalalariga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqishi kuchayadi. Kursantlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik yana-da takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qolishining oqilona yo'li sifatida ta'lif jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. Mazkur pallada o'spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda kursantlarning nutq madaniyati rivojlanadi. Ular turli janrdagi ingliz tilidagi adabiy asarlarni o'qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va mu-nozara ga kirishishga o'rganib boradi. O'spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, ken-gligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilalar kiradi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o'spirin ongida tevarak-atrofdagi voqyelik to'g'risida qancha miqdorda mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi.

Kursantlarning ingliz tilidagi xorijiy harbiy kontekstga ega bo'lgan matnlarni o'qishi va uni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, yuzaga keladigan muammolar yuzasidan bahslashuvi insoniy xislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi tanqidiy tafakkurning aynan o'zginasidir. O'qituvchining asosiy vazifasi kursantlar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqyelikka odilona, oqilona, tanqidiy nuqtai-nazardan qarashni o'rgatishdan iborat. Kursantlarda shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojiana boshlaydi. Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi harbiy masalalarga asoslangan o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, ta'lif jarayonida tashabbuskorlikka, voqyelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalar tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar to'g'risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Kursantlarning qobiliyati va iste'dodi ta'lif jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar,



malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsnинг kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi[1].

Kursantlarning til materialini o'zlashtirish jarayoni ko'pgina pedagogik va psixologik omillarga bog'liq: til materialining talabga javob berishi, til o'rganish tajriba-si va kursantlarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi shular jumlasidandir. Biz mashg'ulotlar uchun material tanlashda uning harbiy sohaga mosligi, uning zamonaviyliги va uning kursant uchun ahamiyatini hisobga olishimiz zarur.

O'quv materialini sohaviy va zamonaviy qilish orqali biz kursantlarning bilish faolligi va ularning qiziqishlarini oshirishga erishamiz. Tanlanadigan material kursantlar didiga mos va ular uchun ahamiyatli bo'lishi zarur. Agar o'rganilayotgan material harbiy hayot va amaliyot bilan bog'liq bo'lsa, kursant ularga ko'proq ehtiyoj sezadi, ularda qiziqish uyg'onadi.

Dars jarayonida harbiy mazmunga ega bo'lgan matn ustida ishslash, muammoli vaziyatlarga kichik guruhlarda ishlagan holda yechimlar taklif qilish, ya'nı ijodiy va tanqidiy fikrlash muhim ahamiyatga egadir. Ixtisosiy materiallar bo'yicha ko'nikma va malaka hosil bo'lganidan keyin, kursantlar mustaqil holda harbiy sohaga oid bo'lgan turli vaziyatlar bo'yicha fikr yuritishda qiyinalishmaydi. Kursantlarning harbiy kontekstga ega bo'lgan matnlar yuzasidan ingliz tilida erkin va mustaqil xulosa chiqara olishlari bilish faolligining darajasi bilan o'chanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy oliy ta'lif muassasalari kursantlarining bilish darajasi va ular yoshining yoziga xos xususiyatlarini hisobga oлган holda dars jarayonini tashkil qilish maqsadga muqoffiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Давлетшин М.Г., Дўстмуҳамедова Ш., Мавлонов М., Тўйчиева С., Джумабаева М. Ёш ва педагогик психология. – Т., 2007, 129 б.
2. Дўстмуҳамедова Ш.А., Нишанова З.Т., Жалилова С.Х., Каримова Ш.К., Алимбаева Ш.Т. Ёш даврлари ва педагогик психология. – Т., 2013, 363-б.
3. Ширинова Н.Д. Инглиз тили дарсларида академик лицей ўқувчиларининг билиш фаоллигини ошириш/Пед.фан. дисс.-Т., 2006, 143-б.

Abror Ochilov,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

## TIL - MA'NAVIYAT KOMPOSI HAMDIR

**Annotatsiya:** Til har qanday xalq mavjudligining ma'naviy asosidir. Bu eng katta milliy boylikdir. Millatning saqlanib qolishi va rivojlanishi, avvalambor, o'sha millat tilining saqlanishi va faoliyati bilan bog'liq. Ona tilini asrab-avaylash va rivojantirish, boshqa tillarga hurmat bilan qarash har bir fuqaroning burchidir.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, til, buyuk, ona tili, inson, tafakkur.

**Abstract:** Language is the spiritual basis of the existence of any nation. It is the greatest national wealth. The preservation and development of the nation is primarily related to the preservation and activity of its language. It is the duty and duty of every citizen to preserve and develop their mother tongue and respect other languages.

**Key words:** Spirituality, language, great, mother tongue, human, thinking.

**Аннотация:** Язык является духовной основой существования любой нации. Это величайшее национальное богатство. Сохранение и развитие нации в первую очередь связано с сохранением и активностью ее языка. Долг и обязанность каждого гражданина сохранять и развивать свой родной язык и уважать другие языки.

**Ключевые слова:** Духовность, язык, великий, родной язык, человек, мысль.

Ma'naviyat bu qalbning eng oliy faoliyatidir. Tilning ma'naviyati – tilning semantik yukida yaxshi bo'lgan narsani anglatadi. Har qanday til tashqi shaklga (rus, ingliz, qozoq, shuningdek, shevalar, nutq qurish qobiliyati va boshqalar) va ichki tajriba va uyushmalar, ma'nolar va boshqalarga ega. Bu tilning logotiplari deyiladi. Til o'z logotiplarini yo'qotmagan hamda vaqtinchalik o'zgarishlar ta'sirida o'zgarmagan bo'lsa, u buyuk va quadratlidir.

Til shaklda grafik (harf) va tovush qismlaridan iborat. Ular bosma ommaviy axborot vositalari va audio ko'rinishida bo'ladi. Ichki mazmuniga ko'ra – rasmiy vositalar orqali uzatiladigan fikrlar, g'oyalar bo'lsa, shuningdek, odamlarning fikrlari va barcha ma'naviy mazmunining tashqi ifodasi sifatida xizmat qiladi.

Zero, tilning ma'naviy ontologiyasi muammosini taniqli nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt tilni xalq ruhining in'ikosi, uning harakatlantiruvchisi, timsoli sifatida talqin qilgan. Albatta, biz jamiyat va tilning ma'naviy tuzilishini aniqlamaymiz, chunki bu prinsipial jihatdan mumkin emas. Aksincha, ruhiy tuzilma ancha kengroq, chuqurroq, insonning tafakkuri, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarda u tildan tashqarida bo'lib, so'zda (og'zaki bo'limgan darajada) o'z aksini topmaydi, deb hisoblaymiz. Tilning ideal tizim sifatidagi o'ziga xosligi, uning ma'naviy sohada rivojlanishi, insonning aqliy va hissiy faoliyatiga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Inson tilining u aks ettiradigan dunyoga nisbatan avtonomligi nafaqat atrofdagi voqelikning ideal aksini (ya'ni dunyoning ideal modelini) yaratishga qaratilgan intellektual va kognitiv faoliyat ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bundan tashqari, til nafaqat dunyo va shaxs haqidagi ma'lumotlarning to'planishi, balki intellektual madaniyatni shakllantirish, atrofdagi voqelikka nisbatan muayyan xatti-harakatlar usuli hisoblanadi. Ammo shuni unutmasligimiz kerakki, inson madaniyatni, madaniyat esa insonni yaratadi. Inson tafakkur madaniyatida, mehnat madaniyatida va til madaniyatida bir-biriga uzviy bog'liq. Madaniyat

insonning qo'li va aqli bilan yaratilgan barcha narsa emas, balki asrlar davomida shakllangan, xalq urf-odatlarida, e'tiqodlarida, bir-biriga, mehnatga, tilga munosabatda ifodalangan ijtimoiy xulq-atvor usulidir. Til esa nafaqat muloqot vositasi, balki bizni o'rab turgan olam, birinchi navbatda o'z jamiyatni haqidagi ma'lumotlarning tabiiy ombori hamdir. Bugungi kunda madaniyat va til har bir inson va butun jamiyatning ma'naviy qadriyatlar sohasida birlashtirilgan. Nutq madaniyatining pastligida ma'naviyatsizlikning yaqqol belgilari borligini hech kim inkor etmasa kerak. Shu bilan birga, til madaniyati fikr mustaqilligini ifoda etishda, inson tuyg'ularini rivojlanishda, faol, haqiqiy vatanparvarlikni tarbiyalashda ishonchli tayanchdir. Til madaniyati bizning zamonamizning umumiyligi madaniyatini tavsiflovchi millatlararo muloqotning axloqiy me'yorlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, jamiyat muayyan vaziyatdagi xatti-harakatlarning namunalari haqidagi g'oyalar bilan belgilanadigan ijtimoiy xulq-atvorning ma'lum standart normalarini (shu jumladan tilni) ishlab chiqadi. Bir butun sifatida, murakkab ijtimoiy tizim sifatida faoliyat yuritish uchun jamiyat odamlarning xatti-harakatlari uchun shunday asos yaratishi kerakki, unda bu xatti-harakatlar monoton, barqaror takrorlanadi. Odamning tashqi madaniyatni, uning xulq-atvori, odob-axloqi, yaxshi xulq-atvori va shunga o'xshash qoidalar tizimi – odob-axloq aynan shunday asosdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyatning ma'naviy hayoti uning hayotining o'ta muhim elementi bo'lib, uning umumiyligi taraqqiyoti uning optimal rivojlanish jarayoniga bog'liq. Jamiyat ma'naviy hayotining, xususan, ma'naviy madaniyatning bevosita asosiy subjekti shaxsdir. Ijtimoiy subyektlar maqsadli faoliyatining butun tizimi insonning ma'naviy salohiyatini, til madaniyatini, o'z-o'zini anglash, uning muhim kuchlarini, turli xil hayotiy ko'rinishlarini ijodiy o'zini-o'zi anglash, yangi ma'naviy yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqish uchun har tomonlama sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda madaniyat va til har bir inson va butun jamiyatning ma'naviy qadriyatlari sohasida birlashtirilgan. Til madaniyatida shaxs va jamiyat ma'naviyatining yaqqol belgilari borligini hech kim inkor etmasa kerak.

O'z jamiyat madaniyati bilan aloqalarning zaiflashishi, tilini yo'qotishi, urf-odatlariga e'tibor bermaslik shaxsnинг xatti-harakatlarining o'zini o'zi qadrlashi-ga, vatandoshlariga bo'lgan munosabatiga, jamoaviy va individual faoliyat natijalariga salbiy ta'sir qiladi. Binobarin, ma'naviy madaniyat moddiy madaniyat bilan mustahkam, ammo ko'rinas iplar bilan bog'langan.

Kompyuterlashtirish, moddiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishi munosabati bilan zamonaviy dunyoda inson o'z ona yurti bilan rishtalari, ildizlari uzilib qoladi, o'z xalqini, afsuski, tilini ham bilmasligi ayanchlidir. Vatanni, uning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini bil-

masdan, milliy g'urur tuyg'usisiz haqiqiy fuqaro, vatanparvarni tarbiyalash oson bo'lmaydi. Bugun yoshlar jamiyat e'tiboridan chetda qolib ketgan, barcha umid mакtabdan. Bugun nafaqat yo'qolganlarni tiriltirish, balki avvalgi avlodlar saqlab qolganlarning o'rmini to'ldirish, xalqning ijtimoiy hayoti, madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlarini yanada rivojlantirish muhim. Shu o'rinda Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning «Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dos-tonlarimizni, o'limas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin» degan so'zlaridan shuni anglash mumkinki, til millatning aorta tomiri, u abadiy qon-qonimizga singib bizni bir millat sifatida birlashtiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Izzat Sulton. "Adabiyot nazariyasi". – Toshkent: "Sharoq", 1992-yil.
2. Boqjon To'xliyev. "Adabiyot". – Toshkent: "O'qituvchi", 2005-yil.
3. Ona tili va adabiyot. A.Rafiyev, N.G'ulomova. 2011-yil.
4. Ona tili va adabiyot. A.G'ulomov. 1998-yil.

**Orzigul G'aniyeva,**

*Buxoro davlat universiteti f.f.f.d (PhD)*

**Nilufar Aminova,**

*Buxoro Davlat Universiteti 2- bosqich magistranti*

## JON STEYNBEKNING "EAST OF EDEN" ROMANIDA OILAVIY MUNOSABATLAR TASVIRI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada romanada jamiyatning kichik bir bo'lagi hisoblangan oiladagi o'zaro munosabatlar tahviliga tortiladi. "East of Eden" romanining bosh g'oyasi oila hisoblanib, yozuvchi oiladagi munosabatlar, ziddiyatlar va kelishmovchiliklar inson taqdiriga ta'sir etish darajasini o'z asarida ochib bergen va hayotda yaxshilik va yomonlik doimo yonma-yonligini asar qahramonlari timsolida tasvirlagan.

**Tayanch tushunchalar:** Jon Steynbek, Amerika adabiyoti, roman, realizm, obraz, oila, jamiyat, qahramon, munosabat.

Har bir yozuvchi yaratgan asarida o'zi yashagan davrining ruhiyati, ijtimoiy holati va muammolari haqida to'xtalib o'tadi. Realizm Amerika adabiyoti rivojining burilish nuqtasida, milliy xarakterning bo'ronli energiyasini namoyon qilishi bilan ajralib turadigan, erkinlikka tashnalik davrida paydo bo'ldi. Realizm, ayniqsa, naturalizm realizmnинг bir tarmog'i sifatida shaxs, jamiyat, ularning tabiatini va o'zaro ta'sirini anglash ufqlarini kengaytirishga yordam berdi va buyuk adiblarning asarlarini haya-jon va ishtiyoq bilan qamrab olgan buyuk asarlarning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Jon Steynbek zabardast realist yozuvchilardan biri

sifatida jahon adabiyotiga katta hissa qo'shgan va XX asrning eng buyuk yozuvchilaridan biri hisoblanadi va u "quintessential American writer" degan nomni olgan. Steynbek Amerikaning eng mashhur romanichilaridan biri hisoblanadi. Romanlari uzoq vaqt oldin nashr etilganiga qaramay, ular hozirgi davrga qadar mashhur bo'lib qolmoqda. Uning romanlari qiziqarli personajlar va hikoyalar satrlari bilan to'ldirilganligi bilan doimo o'quvchilarni o'ziga jaib qiladi. Nafaqat bu, balki Jon Steynbek hikoyada sodir bo'layotgan voqealarni tasvirlash uchun juda yorqin tafsilotlardan foydalanadi. U qo'llaydigan tafsilotlarning o'ziga xosligi o'quvchining

e'tiborini tortadi va ularga voqeal qayerda sodir bo'layotganini tasavvur qilishga yordam beradi.

Jon Steynbek asarlari Amerika adabiyotida keng shuhrat qozongan bo'lsa-da, uning asarlari bir necha bor qattiq tanqidga uchragan. Uning asardagi g'oyalarini tushunmovchiliklarga sabab bo'lib, u ko'p tanqidchilar tomonidan mohir amerikalik yozuvchi sifatida tan olinmagan. Ko'pgina tanqidchilar vafotidan so'ng uning mavqeyi pasayishini taxmin qilishgan, ammo Steynbekning har yili ikki milliondan ortiq asarlarining nusxalari sotilayotgani tanqidchilar fikri xatoligini isbotlaydi. Steynbek asarlarida o'z o'quvchilari bilan munosabat o'rnatishga harakat qilgan. To'g'ri syujet, hissiyot, xarakter va tempni tanlab, u o'quvchilariga hikoyalarning bir qismiga aylanishiga imkon berdi. U bir marta yozgan edi: *"I want the participation of my reader. I want him to be so involved that it will be his story".*

Qahramonlarining jasorati va ma'nnaviy yetukligi, xalqning panoramik tasvirlari Jon Steynbek yetkazib bermoqchi bo'lgan insoniyat uchun umid xabari edi. Steynbek tabiiy va realistik uslubni rivojlantirdi, ammo u fantastik aks-sadolardan qochmadi. Uning siymlari ko'pincha jamiyatning chekkasidagi odamlar bo'lib, ularni har doim o'z nuqtayi nazaridan rahm-shafqat va hamdardlik bilan tasvirlaydi. Jon Steynbek ko'p qirrali yozuvchi edi. Eng diqqatga sazovor mavzulardan biri bu – oilaning mustahkamligi, atrof-muhitning insonga ta'siri, kapitalizmning noinsoniy ta'siri, ishchilar sinfigagi muammolar va ijtimoiy noroziliklar haqida bo'lib, ularni o'ziga xos yozish uslubi bilan tasvirlagan.

Steynbek realizmnning adabiy an'anasi doirasida ishlagan va hayot kurashlari, shuningdek, amerikaliklarga xos bo'lgan tengsizliklar va ekspluatatsiya jarayonlarini, sanoatlashtirishdagi tengsizliklarni borligicha bo'rttirmay asl tarzida tasvirlagan. Uning faoliyati ma'lum darajada kuchayib borayotgan ilg'or siyosiy harakatlar yaxshilanishiga, ijtimoiy muammolarni, jumladan, ayol-larga nisbatan zulmni, xurofotni yo'q qilishga, irqchilik muammolarini hal qilishga, ekspluatatsion mehnat amaliyotlari kabi muammolar yaxshi tomonga o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

"East of Eden" romani amerikaliklar haqida hikoya bo'lib, voqealar 1860- yildan to 1918-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan, uch avlod hayotini tasvirlab berган asardir. "East of Eden" biografik asar bo'lib, yozuvchi asarda Samuel Hemilton (ona tarafdan bobosi) va Adam Trask oilalarining hayoti, uch avlod vakillarining taqdiri haqida so'z yuritgan. "East of Eden" romani Jon Steynbekning besh yil davomida olib borgan timimsiz va mashaqqatlari mehnati samarasini bo'ldi, asar uning haqiqiy romannavis sifatida mavqeyini mustahkamla-di[2]. Muallif yillar davomida to'plagan tajribasidan kelib chiqib, o'zining hayotga bo'lgan falsafiy munosabatini romanda qahramonlari taqdiri misolida ifodaladi. Odam zoti yaralgan kundan beri ezzulik va yovuzlik orasida boradigan kurash o'ttasida ekani, umri davomida qaysi

yo'lni tanlashi, haq yo'lga kirishida kuch topa olishi o'z qo'lida ekani mohirona tasvirlandi. Yaxshilik va yomonlik o'tasidagi murosasiz bahsda qurban bo'lgan, g'olib chiqqan, chin insoniy fazilatini asray olgan odamlar qismati Hemiltonlar va Trasklar oilasi misolida gavdalantirildi [3].

"East of Eden" romanining bosh g'oyasi oila va mehr-muhabbat hisoblanib, bu asar oilaviy munosabatlar: nikoh, ota-onal, farzand orasidagi ziddiyatlar va aka-uka raqobati haqida mohirona yozilgan asardir. Bu qarama-qarshiliklarning barchasida asosan ota-onaling farzandiga bo'lgan adolatsiz munosabati yotadi. Romandagi ko'plab syujetlar ota-onal sevgisini o'z ichiga oladi – bolalar sevgini ota-onalaridan, ota-onalar esa farzandlaridan izlaydilar. Charlzning qalbida otasining akasi Adamni undan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rishi dan doimo qahr-g'azab jo'sh uradi. Charlz otasini juda yaxshi ko'radi va doimo uning mehrini qozonish uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi, lekin Adam doimo otasining mehr-u muhabbatini, e'tiborini hech qanday urinishlarsiz qozonib keladi.

Asarning Trasklar oilasi haqida fikr yuritilishi boshlanganida muallif Adam otasiga nisbatan qalbida mehr-muhabbat bo'lmaganini tasvirlaydi. Masalan, *"Sometimes he scared me. Sometimes—yes, sometimes I admired him, but most of the time I hated him".* [4] Garchi Adamning otasiga nisbatan nafrati ko'p bo'lsa-da, muallif negadir uni Sayrusning sevimli o'g'il sifatida tanlaydi, ammo Charlzni otasining mehr va e'tiboriga muhtoj farzand sifatida tasvirlaydi. Bu munosabat har xil vaziyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Sayrusga sovg'a tayyorlayotganda Charlz otasiga yoqish maqsadida ancha mashaqqat chekib pichoq yasash uchun juda ko'p mehnat qiladi, lekin Adam shunchaki ko'chada tentirab yurgan itni olib otasiga uni sovg'a sifatida taqdim etadi va bu sovg'a Sayrusga juda yoqadi. Ajablanarli shundaki, Sayrus Charlzning anchagina mashaqqat natijasi bo'lgan pichoqdan ko'ra Adamning sovg'a qilgan daydi itini ustun ko'radi. Charlz esa bu vaziyatdan qattiq g'azablanadi va Adam bilan qattiq janjallahadi. Janjaldan so'ng, Adam jarohatlanadi, shunda Sayrusning jahli chiqadi va quyidagi so'zlarni aytadi:

*"You 're not clever. You don 't know what you want ... Does that answer your question? I love [Adam] better. I always have. This may be a bad thing to tell you, but it 's true."* [4]

Bu parchada otaning o'g'llariga nisbatan munosabatida tafovutning mavjudligi ochiqchasiga tasvirlangan. Trasklar oilasidagi asosiy oilaviy muammolar nezigi ham aynan shu – Charlzdan ko'ra Adamga bo'lgan ota mehrining ko'pligi va buni ochiqchasiga namoyon qilinishi bo'lgan. Sayrusning o'g'llari uchun yaratgan muhit Charlz va Adam o'tasidagi aka-uka raqobatini keltirib chiqaradi. *"The torment and fighting that is often*

*shrugged off as normal sibling rivalry may not always be so benign” [4]*

Bu namuna keyingi avlodgacha saqlanib qoladi. Adamning egizak farzandlari Kaleb va Aron xuddi shunday munosabatlarni otalaridan ko’radilar. Kaleb ham Charlz kabi otasidan doimo mehr-muhabbat tuyg’ularini qidirib yashaydi, chunki uning egizagi Aron otasi Adamning ko’proq sevimli farzandi ekanligi otasining munosabatida yaqqol namoyon bo’lar edi. Adamning ota sifatida farzandlariga bo’lgan munosabatda tafovut mavjudligi aka-uka o’tasidagi nizolarga asos bo’lib xizmat qiladi.

Kaleb Aronni yomon ko’rish uchun doimo sabablarni izlay boshlaydi, ulardan biri Aron mifik tabda katta yutuqlarga erishishi ekanligi romanda ta’kidlanadi. Kaleb bundan juda g’azablanadi, chunki egizak birodari uni yana qiyin vaziyatga solib qo’yadi, chunki hamma Aronni yaxshi ko’rib e’tirof etardi. “*Let me be like Aron*” [4] chunki u Aron kabi muvaffaqiyatlarga erishib, otasi Adam tomonidan sevimli farzand sifatida qabul qilinishni va sevilishni xohlaydi. Garchi Adam Aronni ko’proq yaxshi ko’rishini ochiqchasiga ko’rsa-

tayotgan bo’lsa ham, Aron bundan xursand bo’lmaydi. Adam buni ko’rmasa ham, u otasining yangi shakliga aylanib bo’lgandi. Adam Aronni xuddi Sayrus uni yaxshi ko’rgani kabi yaxshi ko’ra boshlaydi. Bu esa o’z navbatida, Kalebni otasining e’tiborini jaib qilish uchun samarasiz harakatlar qilishga undaydi. “*Cal very naturally competed for attention and affection in the only way he knew—by trying to imitate Aron*” [4]. Bu esa xuddi oldingi oiladagi vaziyatning takrorlanishiga sabab bo’ladi, chunki yana bir bola e’tborsiz qoldiriladi, boshqa bola esa barcha mehr-muhabbatga sazovor bo’ladi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, “East of Eden” asari yaratilganiga yarim asrdan ko’proq muddat o’tgan bo’lsada, unda hozirgi kunda barcha jamiyatlarda mavjud bo’lgan muammolar ochib berilgan. Jon Steynbek “East of Eden” romanida ota va o’g’il munosabatlarda kelishmovchiliklar, aka-uka o’tasidagi ziddiyatlar va ular asnosida qahramonlar hayotida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar haqida so’z yuritarkan, yozuvchi aslida bu asarni butun insoniyat uchun hayot yo’lida saboq beruvchi pandnomha sifatida xizmat qiluvchi asar bo’lishini nazarda tutgan edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Susan Shillinglaw, Melinda Pham, TK Martin and Pete Baraza .  
Teaching and Living Steinbeck’s Stories. Penn State University Press (2015).
2. Howard L. The Novels of John Steinbeck. A Critical Study. – USA: University of Missouri Press, 1974.
3. G’aniyeva , Orzigel Khayriddinovna. “East of Eden romanida qahramonlar xulq-atvoriga jamiyat fikrining ta’siri” (bux. du.uz) 8.9 (2022).
4. John Steinbeck. East of Eden . Viking Press (1952).
5. <https://adonisebooks.blogspot.com/2017/09/east-of-eden.html>

**Gulruh BAHODIROVA,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika  
instituti katta o’qituvchisi,*

## O’ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOHAVIY LEKSIKA TADQIQI VA KASHTACHILIK LEKSİKASINING TUTGAN O’RNI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o’zbek kashtachiligiga doir leksekalar tasnifi ifodalangan. Kashtachilik terminlarini tizim sifatida o’rganishda genetik asosi va tarixiy-etimologik tarkibi, leksik-semantik xususiyati, grammatik, derivatsion tarkibi va nomlanish mezoniga tasnif asosi sifatida qaraladi.

**Kalit so’zlar:** Kashta, sohaviy leksika, kasb-hunar leksikasi, o’z qatlam, o’zlashgan qatlam, kashtado’zlar.

**Аннотация:** В данной стране описывается классификация лексики узбекской вышивки. При изучении терминов вышивки как системы в основу классификации положены генетическая основа и историко-этимологическая структура, лексико-семантические особенности, грамматическая, словообразовательная структура и критерии номинации.

**Ключевые слова:** Вышивка, полевая лексика, профессиональная лексика, собственный слой, освоенный слой, вышивальщицы.

**Abstrakt:** In this article, information related to uzbek national art of needlepoint is clarified. In the study of embroidery terms as a system, the genetic basis and historical-etymological structure, lexical-semantic features, grammatical, derivational structure and naming criteria are considered as the basis of classification.

**Keywords:** Embroidery, field lexicon, professional lexicon, own layer, mastered layer, embroiderers.

**Kirish.** Amaliy san’at namunalari xalqning turmush madaniyati, estetik didi, ma’naviy taraqqiyotidan darak

beradi. Mamlakatimizning har bir viloyati, tumanida shu hudud tabiatni, iqlimi, joylashuv o’rni, turmush tarzi, kun-

dalik kasb-kori bilan bog'liq holda qaysidir amaliy san'at turi taraqqiy etgan. Aniqrog'i, muayyan amaliy san'at turining takomillashishi hududiy xoslangan bo'lib, bu shu joyda qadimdan ushbu amaliy san'at turi bilan shug'ullangan o'z kasbining mohir ustalari yashagan va uning sir-asrorlari, an'analari avloddan-avlodga o'tib, kulolchilik, kashtachilik, duradgorlik, me'morchilik, o'ymakorlik, naqqoshlik, temirchilik, kosibchilik, zardo'zlik, zargarlik, misgarlik, to'qimachilik, do'ppido'zlik, gilamchilik kabi maktablar va, tabiiy ravishda soha egalari nutqida har bir kasb-kor bilan bog'liq bir qator atamalar ham yuzaga kelgan.

Shu bilan birga har bir milliy kashtachilik o'ziga xos farqlovchi xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Ayrim xalqlarda uning paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarni choclash bilan bog'lansa, ayrim xalqlarda kiyimga bezak berish istagi bilan bog'lanadi. Garchi qadimiy kashta mahsulotlari saqlanib qolmagan bo'lsa-da, arxeologik topilmalar dunyo xalqlarining aksariyatida tabiiy muhit, yashash sharoiti bilan bog'liq holda kashtachilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganini tasdiqlaydi. Qolaversa, ular haqidagi tasvirlar turli tarixiy asarlarda ham uchra-ydi. Masalan, XI asrga oid ingliz kashtalari ko'proq jang lavhalari aks etgani, XII asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san'atining ta'siri ko'zga tashlanib turishi, Xitoyda XIV asrda „syuxua” (ignali tasvir) nomi bilan mashhur bo'lgan kashtali buyumlar uslub jihatidan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqinligi, Yevropada uyg'onish davrida buyuk rassomlar kashtado'zlar uchun andozalar tayyorlab berishgani haqida ma'lumotlar uchraydi[1:238].

Jumladan, O'rta Osiyo xalqlarida ham XIV – XV asrlardayoq kashtachilik keng rivojlangan bo'lib, tojik, o'zbek, turkman ayollari kiyimlarga bezak berish, badiy buyumlarni tayyorlash bilan qadimdan shug'ullanib kelishgan. Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroya kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod "Zafarnoma" qo'lyozmasiga ishlagan "Temur taxtda" miniyaturasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettig'an[2:264-265].

**Asosiy qism.** O'zbek kashtalari betakrorligi, nafisligi, bezak-naqshlarining turli-tumanligi va qadimiyligi bilan boshqa millatlarga oid kashtachilikdan farqlanadi. Kashtachilik, asosan, savdo-hunarmandchilik shaharlarida, yirik qishloqlarda hamda O'zbekistonning qadimiy dehqonchilik madaniyati markazlarida (Xorazmdan tashqari) keng tarqalgan. Kashtachilik asarlari mahalliy xalqning bayramlari, to'y marosimlarining ajralmas qismi sanalib, turmushga chiqayotgan qizlar uchun beriladigan "sep"ni bezagan[3:5/461]. Hatto M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham kashtachilikka doir ipak buyumlarning kelinlar uyini bezashi haqida qaydlar uchraydi: **mundaru** – ipaklar bilan bezatilgan kelin uyi (1, 481).

XIX asrda Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Farg'ona va Toshkent shaharlari badiy kashtachilikning yetuk markazlari hisoblangan. Mazkur kashtachilik maktablari naqsh-bezak shakllari, chok uslubi, ran-

glarning tanlanishi va kashtachilikka oid buyum, naqsh, asbob-anjom, ipak, rang turlarining nomlanishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Masalan, kashtachilikning asosiy mahsuloti, adabiy tilda *palak*, *so'zana*, *choyshab*, *kirpech* deb nomlangan badiy buyumlar Shahrisabz, Kitob tumanlarida umumiy holatda *kashta* deb yuritiladi. Uyni bezash maqsadida devorga osiladigan kashtaning hajmi, vazifasidan kelib chiqib xalq tilida *joypo'sh*, *joypatto* (taxmonga yoki sandiq ustiga yig'ib qo'yilgan ko'rpa-to'shaklarning ustiga yopiladigan), *ro'yijo* (kelin-kuyovlar uchun ko'rpa-to'shaklardan baland qilib to'shalgan taxtni berkitib turadigan, ustiga yopiladigan), *yostiqpo'sh* (yig'ib qo'yilgan yostiqlar ustiga yopiladigan), *bo'xchap'o'sh* (kiyim-kechak va boshqa narsalar tugib taxtlaq qo'yilgan tugunchaklarni berkitadigan) kabi turlari mayjud.

Millat ruhiyati, etnik-madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi turkiy kashtachilikning tarixiy ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladi. Biroq ayni paytda, asosan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari aholisining maishiy hayotida saqlanib kelayotgan qo'lda tikish kashtachiliqi leksikasining o'zbek kasb-hunar leksikasi tizimidagi o'rni, uning leksik-semantik, dialektal, struktur-grammatik, derivatsion xususiyatlari kabi tarixiy-etimologik (genetik) asoslari ham hozirga qadar monografik ko'lamma o'rganilmagan.

Kashtachilik terminlari genetik asosi va tarixiy-etimologik xususiyatiga ko'ra, avvalo:

- 1) o'z qatlamga mansub kashtachilik terminlari;
- 2) o'zlashma qatlamga mansub kashtachilik terminlari bo'linadi.

O'zbek kashtachilik leksikasining tarixiy-etimologik tahlili, avvalo, ontologik, genetik jihatdan o'zbek tiliga mansub, o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan terminlarni aniqlab olishni taqozo qiladi. O'z qatlamga oid kashtachilik terminlariga o'zbek adabiy tilining turli bosqichlari – qadimgi turkiy til, eski turkiy til va keyinги bosqichlarda ichki imkoniyatlar asosida paydo bo'lgan kashtachilik terminlari kiradi. Bunday terminlarni aniqlashda xalq og'zaki ijodi namunalari, qadimiy leksikografik manbalar, lug'at-grammatikalar, ilmiy, badiiy, tarixiy asarlar asosiy manba vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, til leksik qatlami taraqqiyoti va boyligi lug'atlarda aks etadi. Zero, "Lug'at – davr mahsuli, xalq tarixidagi muayyan davrning ko'zgusi. Uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, nazariy va amaliy tilshunoslikning holati, lug'atlarga ehtiyoji bo'lgan turli sohalar taraqqiyoti va yana ko'pgina jihatlarga bog'liq. Muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog'liq ravishda lug'atlarning rang-barang ko'rinishlarining yuzaga kelishi, umuman, lug'atchilik taraqqiyoti – til va uning egasi bo'lgan millatning taraqqiyoti bilan bog'liq, uning porloq kelajagi haqida gapirish imkonini beradi"[4:252]. Jumladan, o'zbek kashtachilik sohasi rivoji va uning leksik taraqqiyotini aniqlashda lug'atlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'z qatlam leksikasiga mansub kashtachilik terminlari uchragan ilk lingvistik manba sifatida Mahmud Koshg'ariyning XI – XII asrlar oralig'ida yaratilgan, o'z

davri madaniy, maishiy hayotida muhim rol o'ynagan "Devonu lug'otit turk" asarining roli muhim. "Devonu lug'otit turk"da turkiy tillarga mansub bir qator kasb-hunar nomlari bilan birga kashtachilik leksikasiga bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan leksik birliklar ham uchraydi. Masalan, birligina **chöknädi** (rasm solib tikdi) so'ziga keltirilgan illyustratsiya – *qiz chekin cheknadi* (*Qiz oltin iplar bilan ipak kiyimlik ustiga rasmlar solib tikdi*) jumlasida, **birinchidan**, ushbu kasb bilan shug'ullanuvchilar – kashtado'zning jinsi, xotin-qizlar tomonidan bajarilishi (qiz), **ikkinchidan**, tikish vositasi (oltin ip bilan), **uchinchidan**, tikish asosi (ipak matoga), **to'rtinchidan**, kashtali buyum turi (kiyimga), **beshinchidan**, kashta naqshi (rasmlar solib)ga doir qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

"Devonu lug'otit turk" kiyim yoki maishiy buyumlarga ipak, oltin, zarli iplar bilan kashta tikish, uni munchoq, dur, marvarid, oltin, kumush bilan bezash, hatto qalpoqdo'zlikda keng ishlatalidigan andaza asbobi nomining asarda izohlanishi ham ushbu kasb bilan turkiy xalqlar qadimdan yuksak saviyada shug'ullanganidan darak beradi.

Asarda kashtachilikka bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan buyum nomlari, kashtachilik asbob-uskunalar, ipak nomlari va shu kasb bilan bog'liq harakat fe'llarini ko'plab uchratish mumkin. Masalan, kiyimga zarli ip bilan kashta tikishgan va ushbu zarli ip turi *burta*, qizil rangli zar bilan kashtalangan mato *chuz* deb nomlangan:

**burta** – kiyimlarga chatiladigan girdak shaklidagi yupqa zarlar. (1, 393)

**chuz** – qizil rangli zar tikilgan Chin ipak gazmoli. (1, 314)

**batg'a** – qalpoq tikish uchun ishlatalidigan namat va yungni qo'yib qirqib olinadigan taxta. (1, 400)

Yoki ipning ikkinchi bir turi *chikin* deb nomlanib, bu ip turidan zarli qubbani tikishda foydalanilgan:

**chikin** – ipak. *chikin jipi* – ipak ip.

**chikin** – atlasni zar qubbali qilib tikish. *chikin chiknadi* – atlasni zar qubbali qilib tikdi. (1, 392)

**chöknädi** – qiz chökin chöknädi. *Qiz oltin iplar bilan ipak kiyimlik ustiga rasmlar solib tikdi*. (3, 316)

Umuman, "Devonu lug'otit turk"da kashtachilik leksikasiga oid ip va uning turlari nomi, masalan, *yigirligan ip* ma'nosida ishlataluvchi **ëgrik**, **tashratmish jip**, *yigirlimagan xom ip* ma'nosini anglatuvchi **taxtu** hamda ipni tayyorlash, u bilan ishlash jarayonlari bilan bog'liq turli turkumga mansub birliklarni uchratish mumkin:

**egrindi**: *urag'ut jip egrindi* – xotin o'zi uchun ip yigirgandek ko'rindi, aslida u yigirmagan edi. (1, 253);

**o'zto'rди**: *ol jip o'zturdi* – u ip o'zdirdi. (1, 226);

*Urag'ut jip egirdi* – xotin ip yigirdi (1, 88);

**ag'urshaq** – ip yigirladigan charx dugini tutib turadigan ayirli cho'p-chalmak (1, 165);

**ëgrik** – yigirligan ip (1, 130);

**tashratmish jip** – yigirligan ip (2, 418);

**basbal** – bir taqim ip (1, 445);

**ig//jig** – dug; ip yigiradigan dug// yig. (1, 113);

**taxtu** – yigirlimagan xom ipak (1, 393)

Shuningdek, M.Koshg'ariy ushbu asarda kashtachilikdagi chok turlari va chok tikish jarayoni xususida ham ma'lumotlarni keltiradi. Masalan, kiyim choki **ji**, **tikuvchi esa jichi** so'zi bilan ifodalanishi aytiladi:

**ji** – kiyim choki. Tikuvchiga *jichi* deyish ham shundandir (3, 235)

Bugungi kunda ham kashtachilik leksikasida keng ishlatalidigan **jiyak** so'zining etimologiyasi turkiy **ji** bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Negaki ushbu kashta elementi o'zbek tilida hozir ham kiyimning chekka qismiga bezak maqsadida o'rnatalidigan kashtali elementni ataydi.

"Devonu lug'otit turk"da **jiyak** tikish, **jiyakni** o'rnatish bilan bog'liq boshqa jumlalarni ham uchratish mumkin:

**qedishdi** – u menga to'n chalmasini, jiyagini tikishda yordam qildi (3-jild 78-bet)

**qirg'ag'** – to'n jiyagi, chalmasi. (2, 333)

**ko'njuklandi** – chalmali, jiyakli bo'ldi. *To'n ko'njuklandi* – to'n chalmali, jiyakli bo'ldi. *To'nga jiyak qilindi*. (2, 322)

**qidishdi** – jiyak tikishdi, choklashdi (2, 361)

**qidig'landi** – jiyaklandi (2, 361)

Bundan tashqari chokning *tafchitti* – ko'klab tikdi, *qiditti* – qayirib tikdi, *qizig'ladi* – chetlarini tikdi kabi bir necha turlari nomi uchraydi:

**tafchitti** – tepchitdi, tiktirdi. Ol to'nin tafchitti – u to'nini tepchitdi. U to'nini choklab emas, ko'klab tiktirdi. (2, 381)

**qiditti** – u to'nini qayirib tikishga buyurdi. (2, 348)

**qizig'ladi** – chetini tikdi. (2, 362)

Umuman olganda, "Devonu lug'otit turk"da 50 dan ortiq bevosita va bilvosita kashtachilik leksikasiga aloqador bo'lgan quyidagi umumturkiy nomlarni uchratish mumkin:

1) kashtali kiyim va badiiy buyum nomlari – *chuz*, *burunchuk*, *tarinchak*, *kerim*, *qur*, *qurshag'*, *qirg'ag'*, *qotirma bo'rк*, *suvluq*, *ulatu*, *jutgak*, *qaftan*, *mundaru*, *sachu*, *artig'*, *iqrushag'*, *ichqur*, *terinchak* va b.;

2) kashta tikish usulsi va chok turlari bilan bog'liq nomlar – *ji*, *jichi*, *bo'rкchi*, *chikin*, *chiknadi*, *cheknadi*, *tafchitti*, *qedishdi*, *ko'njuklandi*, *qidishdi*, *qidig'landi*, *qiditti*, *qizig'ladi*, *osmado'zi* va b.;

3) ip turlari va bezak vositalari bilan bog'liq nomlar – *burta*, *chikin jipi*, *ëgrik*, *tashratmish jip*, *taxtu*, *ag'urshaq*, *egrindi*, *o'zto'rди*, *jip egirdi*, *basbal*, *ig//jig*, *boz munchoq*, *sata marjon*, *kimsan* va b.

O'zbek tilida, xususan, Qashqadaryo kashtachilik maktabi – Kitob, Shahrисабз shevalarida ayni paytda mavjud bo'lgan kashtachilik terminlarining katta qismini o'zbek tilidagi boshqa kasb-hunar nomlari kabi turli lug'aviy qatlamlar, etnik guruhlarning hamkorlikdagi faoliyati natijasida shakllangan va murakkab rivojlanish bosqichini bosib o'tgan terminlar tashkil qiladi.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida kashtachilik terminlarining aksariyatini o'zbek xalqi qadimdan ijtimoiy, siyosiy, madaniy, maishiy aloqada bo'lgan boshqa tillar, masalan, arab yoki rus tillariga qaraganda sof fors-tojikcha o'zlashmalar va shu o'zlashmalar asosida yasa-lgan o'zbekcha so'zlar tashkil etadi. Buning bir necha sabablari mavjud.

**Birinchidan**, ushbu hudud aholisining katta qismini fors-tojik tilli so'zlashuvchilar tashkil qiladi. Tojiklar qadimdan O'zbekistonning bir necha yirik madaniyat markazlari – Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon, Namangan, Toshkent atroflarida o'zbeklar bilan birga yashab kelgan. Ushbu millat vakillari tabiatan hunarmand va ishbilarmon bo'lib, dehqonchilik, chovachilik bilan birga kasb-hunarning bir necha sohalari – yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, kashtachilik, cho'ptaroshlik (tovoq, cho'mich va qoshiqlar yasash)ning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan[5:867]. Xususan, ushbu soha nomi – *kashtado'zlik* ham bevosita shu tilga mansub:

**KASHTA** [کاشتا – ekilgan, urug' qadalgan; chizilgan, tortilgan, ishlov berilgan] 1 Igna bilan tikib tushirilgan gul, rasm, chiziq va sh.k.[6:672]

-**do'z** affaksi esa – tojikcha-forscha *do'xtan* (*tikmoq*) ma'nosidagi so'zning affikslashgan shakli bo'lib, o'zbek tilida so'z asosida ifodalangan narsani tikuvgchi shaxs ma'nosini ifodalaydigan ot yasaydi. Uning yordamida o'zbek va tojikcha asoslardan bir necha kasb-kor otlari yasalgan: *etikdo'z*, *mahsido'z*, *do'ppido'z* kabi.

**Ikkinchidan**, hududda o'zbek-tojik hamda tojik-o'zbek bilingvizmi yaxshi rivojlangan. Bu esa fors-tojik va o'zbek tillariga mansub aksariyat terminlarning bir-biri negizida yasalishiga sabab bo'lgan: *kashtado'zlik*, *kashtachilik*, *belqars*, *lo'lapo'sh* kabi.

**Uchinchidan**, qadimdan Samarqand, Buxoro kabi yirik madaniyat markazlarida feodal aristokratiya, shuningdek, badiiy adabiyot, ijod tili sifati fors-tojik tilining maqomi baland bo'lgan. Kashtachi xotin-qizlar tomonidan xirgoyi qilinib kelingan fors-tojik tiliga mansub xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari ham ushbu terminlarning ommalashishiga sabab bo'lgan. Ya'ni badiiy adabiyot, san'at va urf-odatlardagi mushtaraklik ham bunga zamin hozirlagan.

Shu nuqtayi nazardan kashtachilik terminlarini genetik jihatdan quyidagi ichki guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1) umumturkiy so'zlar – *qalpoq*, *qars*, *boshqars*, *to'yqars*, *xatnaqars*, *kuyovqars*, *itqars*, *belqars*, *qiyiq* (*cha*), *qizqalpoq*, *qur*, *tepa*, *kizak*, *ova*, *g'arib qalpoq*, *qiyomat qiyiq*, *belbog'*, *yengcha*, *kirpitch*, *choyshab*, *gulko'rpa*, *bo'g'joma*, *do'xta*, *qopchiq*, *oynaxalta*, *do'xta*, *qoshiq xalta*, *bodomgul*, *beshgul*, *gilosak*, *qo'shbodom*, *qalampir*, *butador*, *bulbul ko'zi*, *bosma chok*, *sanama*,

*terma sanama*, *chizma sanama*, *to'dirma chok*, *yetalatma gul*, *tagdo'zi* (*qalpoq*), *chakmato'r* (*qalpoq*), *ilmagaq-poq*, *tish*, *taroq*, *oy*, *kanava*, *ipak*, *bo'z*, *doka*, *surp*, *chit*, *avra*, *astar*, *ko'knori*, *shirozi*, *jiyak* (*jahak*), *iroqi*;

2) fors-tojikcha so'zlar – *kalapo'sh*, *peshanavat* (*peshonaband*), *ro'yparto*, *kulo'ta*, *zehak*, *kari*, *poya-cha*, *kultapechak* (*kultapo'shak*), *izmak*, *lachak*, *so'za-na*, *dorpech*, *darparda*, *sandalpo'sh* *bo'xchapatto*, *bo'xchapech* (*bo'xchapao'sh*), *takyapo'sh*, *shabpo'sh*, *morpech*, *ro'yijo*, *joynamoz*, *dasturxon*, *shonaxalta*, *gulishashbarg*, *sebarga*, *mo'hja/mo'g'ja*, *paxtagul*, *rayhon*, *dastagul*, *chorbarg*, *shox*, *gulinor* (*gulianor*), *bachki*, *lola*, *chordona*, *chashmiqush*, *qushpanja*, *parri kusho*, *parri bofta*, *pargori*, *guldo'zi*, *zamindo'zi*, *zar-do'zi*, *piltado'zi*, *xomdo'zi*, *ovado'zi*, *dannon*, *kandaxayol*, *kamkashta*, *serkashta*, *mohtob*, *mohi*, *sitora*, *angish* (*angishvona*), *nimdo'z* (*tevana*), *oshxo'rak*;

3) arabcha so'zlar – *palak*, *po'ta* (*fo'ta*);

4) ruscha so'zlar – *mulina*, *kurjuk* (*kryuchok*);

5) genetik aralash so'zlar – *nimcha*, *nimtanailma-do'zi*, *oypalak*, *zardevor*, *yostiqpo'sh*, *joypo'sh*, *lo'la-po'sh*, *choynakpo'sh*, *xamirturush dasturxon*, *qoziqlen-gi*.

**Xulosa:** Kasb-hunar terminlari tadqiqiga faqat bir tomonlama yondashish soha terminlari mohiyatini ochish va leksikografik izohlashda yetarlicha dalil bera olmaydi. Shu sababli soha leksikasi tadqiqiga kompleks – ham kasb-hunar turiga xos xususiyliklar, ham uning genetik qatlamlari, ham tarixiy-etimologik tarkibi, ham hududlar kesimida adabiy til, areal va dialektal aspektlarda qiyosiy yondashish maqsadga muvofiq.

Kashtachilik terminlarini tizim sifatida o'rganishda genetik asosi va tarixiy-etimologik tarkibi, leksik-semantik xususiyati, grammatic, derivatsion tarkibi va nomlanish mezoniga tasnif asosi sifatida qaraladi.

M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"da 50dan ortiq bevosita (*burta*, *chikin*, *ögrik*, *tashratmish jip*, *ag'ur-shaq*, *basbal*, *ig/jig*, *ji*, *jichi*, *qirg'ag'*, *qur*) va bilvosita (*egrindi*, *o'zto'rdi*, *jip egirdi*, *mundaru*, *jedishdi*, *ko'njuk-landi*, *qidishdi*, *qidig'landi*, *tafcitti*, *qiditti*, *qizig'ladi*, *ker-im*, *jutgak*, *bo'rkchi*, *artig'*, *bo'runchuq*, *sushluq*, *qaftan*) kashtachilik leksikasiga aloqador bo'lgan umumturkiy nomlarni uchratish mumkin.

O'zbek kashtachilik terminlari genetik jihatdan: 1) umumturkiy so'zlar; 2) fors-tojikcha so'zlar; 3) arabcha so'zlar; 4) ruscha so'zlardan tashkil topadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1991. 238-bet.
2. <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-5/461-kashtachilik>
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. K harfi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 264–265-bet.
4. <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-5/461-kashtachilik>
5. Bahriiddinova B.M. O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari: Filol.fan... doktori (DSc) diss. – Samarqand. 2020. 252-bet. 209-bet.
6. Tojiklar. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T harfi. – Toshkent «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 457-bet. 867-bet.
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 672-bet. 338-bet.

**Maxbuba QARSHIYEVA,**  
*SHDPI magistranti*

## **“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI HIKOYATLARDA ADAB, TAVOZE, VAFO, QANOAT KABI FAZILATLAR TARANNUMI**

**Annotatsiya:** Pand-o'git mavzusidagi hikoyatlar “Hayrat ul-abror”da alohida o'r'in tutadi. Ularning biri yettinchi maqolat ortidan keladi. Unda Qanoatning foydasi, ta'magirlikning zarari to'g'risida so'z boradi. Maqolada ham “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarda adab, tavoze, vafo, qanoat kabi fazilatlar xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** doston, adab, tavoze, vafo, qanoat, tarannum, tarbiya, qanoat.

**Аннотация:** Рассказы на тему Панд-огит занимают особое место в «Хайрат ул-Аброр». Один из них следует за седьмой статьей. Он говорит о пользе довольства и вреде самодовольства.

В статье также говорится о таких добродетелях, как скромность, смиление, верность, довольство в рассказах эпоса «Хайрат ул-Аброр».

**Ключевые слова:** эпос, нравы, скромность, верность, довольство, похвала, воспитание, довольство.

**Annotation:** Stories on the theme of Pand-ogit occupy a special place in “Khairat ul-Abror”. One of them follows the seventh article. He talks about the benefits of contentment and the harm of complacency.

The article also talks about such virtues as modesty, humility, fidelity, contentment in the stories of the epic “Ayrat ul-Abror”.

**Key words:** epic, morals, modesty, fidelity, contentment, praise, education, contentment.

Bu hikoyatning sarlavhasi bunday: “Qoni’ juvonmard ila tomi’ jahongard hamrohlig'i va biri farog'at ganji hirsidin mazallat ranjig'a qolib, birining qanoat ranji chekardin farog'at ganjig'a etkani” .

Ma'nosi: Mard qanoatlari kishi (qoni') bilan jahon kezuvchi ta'magir, g'arazo'y kishi (tomi') birga yo'l bosar edilar. Ulardan biri farog'at xazinasini topmoq hirsiga tushdi va xorlik azobiga duch keldi. Boshqa biri esa qanoat azobini chekdi-yu farog'at xazinasiga erishdi.

Bu sarlavhada ajoyib so'z o'yinlari bor. Farog'at ganji – mazallat ranji, qanoat ranji – farog'at ganji. Hamrohlardan biri (tomi') farog'at ganjiga intildi. Xomtama'lik uni xorlik (mazallat) ranjiga uchratdi. Qanoat ranjiga chidagan, ya'ni boriga Shukur qilib qanoatlari bo'lgan juvonmard oxiri farog'at ganjiga ega bo'ldi. Demak, kishini tama' xor qiladi. Qanoat esa kishini yuksaklikka ko'taradi.

Alisher Navoiy keyingi maqolatlarda ham birinchi maqolatda keltirilgan bosh mavzu – komil insonga xos sifatlar bayonini davom ettiradi. Xususan, 5-maqolat karam va saxovat, 6-maqolat adab, 7-maqolat qanoat, 8-maqolat vafo, 10-maqolat rostgo'ylik ta'rifidadir. Bu maqolatlardan orasida yettinchi maqolat badiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiyning fikricha, kimki, qanoatni o'ziga kasb qilgan bo'lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zeb-u ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

Kimgaki ish bo'ldi qanoat fani,  
 Bilki, ani qildi qanoat g'ani.  
 Ganji tajammulni g'ino bilmagil,  
 Balki g'ino ganji qanoatni bil.

Mazkur maqolatda qanoat tushunchasi chiroyli tashbehtarlar va tamsillar vositasida ifodalab berilganligini

ko'ramiz. Masalan, osmon qanchalik katta bo'lmasin, u bitta kulcha, ya'ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko'z doim Shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va ko'z singari bo'lislari kerak. Maqolatda kitobot (harf) san'atining ham yetakchilik qilishini kuzatish mumkin:

Qushlar aro Shohki, anqo durur,  
 Nuqtae bu amrda paydo durur.  
 Bordur agar fikr ila topsang vuquf,  
 Qoni'yu anqog'a muvofiq huruf.

“Qanoatli va qanoatsiz ikki do'st” haqidagi hikoyatda keltirilishicha, ikki do'st Fors mulkidan Chin mamlakati tomon yo'lga tushadilar. Biri taqdir berganiga qanoatli inson bo'lib, ikkinchisi ochko'z, ta'magir edi. Yo'lda ketayotib, bir toshga ko'zlarini tushadi. Uning yarmi yer ostida bo'lib, yarmi yer yuzasiga chiqib turadi. Tosh ustida: “Kimki mehnat qilib toshni aylantirib qo'ysa, ostidagi afsonada vayrona tagida be kitib qo'yilgan xazina haqida yozib qo'yilgan. Kimki bu mashaqqat, azob uqubatlarni xohlamasa, uning uchun sabr-u qanoat hammasidan yaxshiroqdir” degan yozuv bitilgan edi. Ochko'z yigit yozuvni o'qigach, xazina ilinjida tosh ostini qazishga tushib ketadi. Qanoatli odam esa beparvo tarzda shahar tomon yo'l oladi. Shaharga kiradigan bir necha darvoza bo'lib, u shaharga birinchi bo'lib kiradi. Shahar aholisining odatiga ko'ra, mamlakat podshosi qazo qilsa, darvozadan birinchi kirgan odamni podshoh qilib ko'tarar ekanlar. Shu tariqa bu do'st o'z qanoati tufayli mamlakatga podshoh bo'ladi. Uning tosh ostini qaziyotgan do'sti esa og'ir mehnatni bajarib bo'lgach, toshni ag'darib qarasa, “Xom tama bu dunyoda alam chekadi” deb yozib qo'yilgan ekan. Xulosa shuki, qa-

noatli inson o'z sabru qanoati tufayli Shoh martabasiga erishadi, qanoatsiz inson esa tama` ilinjida xor-u zor bo'ladi.

"Hayrat ul-abror" ning oxirgi hikoyati bir qul haqidadir. U qul ziyofta vaqtida Shohga osh keltirayotib oyog'i toyiladi va qo'lidagi ovqatni Shohning boshiga to'kib yuboradi. Shoh adolat yuzasidan uni kechiradi va jazolamaydi. "Ul qul hikoyatikim, ayog'i toyilib ayog'luq oshini Shohning boshi kosasig'a urdi va karamlig' Shoh oliga o'z oshin piShurdi". Sarlavha hikoya mazmunini to'la bermagan. Qulning qilmishi to'ppa-to'g'ri aytilgan. Lekin podshohning bu qilmishga munosabati badiiy bo'yolalar orqali tasvirlangan. Qulning o'z oshini pishirgani uningadolatlari podshohning karami tufayli o'limdan qutilib qolganimdir [5, 52-53].

Navoiy Allohnini olivjanob Shohga, o'zini oyog'i toyib ketgan qulga o'xshatar ekan, shunday yozadi:

Har necha ko'p bo'lsa gunohim mening,  
 Shukrki, bor sendek ilohim mening.  
 Xijlat ila qolmadi xud jom manga,  
 Eri durur aylasang ehson manga.

Asarda keltirilgan hikoyatlar Ilymon, Islom, Karam, Adab, Qanoat, Vafo, Ishq, Rostlik, Sultonlar, qalam va qalam ahllari kabi masalalarga bag'ishlangan. Mazkur hikoyatlarda Shayx Boyazid Bistoniy, Ibrohim Adham, Robiya Adaviya, Abdulla Ansoriy, Abdulloh Muborak singari mashhur so'fiylar, hukmdorlar nomlari bilan bog'liq hodisalar bayon etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Lison ut -tayr. Mukammal asarlar to'plami. 20 jiddlik. 12-jild. – Toshkent: Fan, 1994.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr (nariy bayoni bilan) – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
3. Alisher Navoiy qomusiy lug'ati. 1-2-jiddlar. Ma'sul muharrir Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2006
4. N.Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: Muvarounnahr-O'zbekiston, 2009.
5. Navoiy A. Hayrat ul-abror: [To'plab nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi A.Qayumov]. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 379-bet.

**Qodirjon MO'YDINOV,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
 gumanitar fanlar fakulteti,  
 o'zbek tilshunosligi kafedrasи dotsenti,  
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*  
**Salomat RUSTAMOVA,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti*

## XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI O'XSHASHLIKlar

O'zbek va tojik tili misolida

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek va tojik adabiyoti xalq og'zaki ijodidagi o'xhashliklar qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, janr, doston, rivoyat, qissa, hikmatli so'zlar, maqol va matallar.

**Аннотация:** В статье анализируются общие черты фольклора узбекской и таджикской литературы.

**Ключевые слова:** фольклор, жанр, эпос, повесть, новелла, мудрые слова, пословицы и поговорки.

**Abstract:** The article analyzes the similarities in the folklore of Uzbek and Tajik literature.

**Key words:** folklore, genre, epic, narrative, short story, wise words, proverbs and sayings.

O'zbek xalqi ko'plab qo'shni xalqlar bilan tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarga ega. Ayniqsa, o'zbek xalq og'zaki ijodi tojik xalq og'zaki ijodiga yaqin. Bu qardosh xalqlar folkloridagi ertak, latifa, maqol, janrlari mazmuni, syujeti, obrazi jihatidan juda ko'p o'xhashliklarga ega. O'zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon xalq og'zaki ijodining o'zaro ta'siri ham katta. O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi adabiy aloqalarni, birinchi navbatda, ularning og'zaki ijodida kuzatish mumkin.

Bu xalqlar xalq og'zaki ijodida mazmun va g'oya jihatdan bir-biriga juda yaqin bo'lgan hikoyat, rivoyat, qo'shiqlar, latifa, matal ko'p uchraydi. Shuning uchun ham ba'zan ularning qaysi millatga mansubligini aniqlash qiyin. O'zbek-tojik xalqlari adabiyoti tadqiqotchisi I.S.Braginskiy "Tojik-o'zbek adabiy aloqalarini o'rganishga havola" maqolasida bu xalqlarning adabiy-madaniy aloqalari epik asarlarda, ayniqsa, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlari qahramonlik hikoyalari juda yorqin namoyon bo'ladi, deb ta'kidlaydi [1,18].

Tojik folklorshunosи, akademik R.Amonov sharqshunosning ushbu qiziqarli fikriga amal qilib, eron xalqining mashhur va suyukli obrazi – Rustam Doston o'zbeklar orasida juda mashhur, turkiy tilli xalqlarning "Alpomish" dostoni ham shuhrat qozongan, deb hisoblaydi. tojik xalqi orasida ham shunday ma'lum-u mashhur. Shu bois tojikcha "Alpomish" ana shu xalq eposi ta'sirida yaratilgan bo'lsa, tojikcha "Go'ro'g'li"ning o'zbekcha variantlari bilan o'xhash tomonlari bor[2,24].

Bu xalq dostonlari bir syujet asosida yaratilgan bo'lsada, mustaqil xalq eposi hisoblanadi. Mazmun yaqinligi va uyg'unligi nafaqat ertaklarda, balki o'zbek va tojik xalq maqollarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu maqol va matallarda bir xil mazmun ikki tilda ifodalan-ganga o'xshaydi.

Darhaqiqat, xalqlarimiz hayotiy kuzatishlardan chuqur xulosalar chiqarib, ko'plab maqol, matal va hikmatlarni yaratgan. Hayotning turli daqiqalariga ko'ra, ular qo'shiqlar yaratdilar va ularni yurakdan kuyladilar. Bugun ham ular bir-birlariga bunday qimmatli tashriflar dan zavqlanishadi. Masalan, tojiklar suhbat chog'ida o'zbek xalq maqol va matallaridan o'z fikrining dalillari, hujjatlari va xulosalari uchun turlicha foydalansalar, o'z navbatida o'zbeklar ham tojik og'zaki adabiyotiga mur-ojaat qilib, undan samimi yoydalar. Bu borada bu ikki qarindosh xalqining kundalik hayotidan yuzlab misollar keltirish mumkin.

Aytish joizki, har ikki xalq adiblari bir-birining so'z boyligidan o'z asarlarida mohirona foydalaniib, shu yo'l bilan o'z fikr va obrazlarining jozibadorligini, badiyiligi ni ta'minlaydilar. Bu xususiyat, bir tomondan, badiy asardagi milliylikni chuqurlashtirsa, ikkinchi tomondan, so'zlovchilarning o'ziga xos ijodi uslubini aniqlashga yordam beradi. Ularning qahramonlari tabiatini ochib berish, o'quvchining rasm mohiyatini anglashi uchun yozuvchilar har ikki xalqning maqol va matallaridan, obrazli iboralaridan ko'p foydalanganlar.

Yana shuni aytish kerakki, adiblarimiz bir-birining maqol, matal va nasihatlarini, asosan, ikki xil – so'zma-so'z keltirish va tarjima qilish tarzida qo'llaydilar.

Masalan, tojik adiblari S.Ayniy, J.Ikromiy, R.Jalil ijodida "So'rab berguncha urub ber", "Ot kimniki? Minganniki", "Tayyor oshga bakovul", "Ba'zi kunlarni qurban bo'lay", "Itni ulfati bit" va boshqa majoziy iboralar keng qo'llaniladi. Bunday ifoda usuli o'zbek adabiyotida ham kam emas. Masalan, "девона ,гурез ки маст омад", "муросою мадоро", "тарки одат-амри маҳол", "инсоф дори-барака" kabilar. Yozuvchilarimiz ularni so'zma-so'z iqtibos tarzida qo'llashgan. Ba'zan tarjima-da maqol va matallar ham qo'llaniladi: "To'yga borsang, to'yib bor". Maqol va matallardan foydalishning yana bir usuli: xalqlarimiz maqol va matallar guruhini o'z suhbatlarda qo'shma shaklda qo'llaydilar. Jumladan, "Vaqt – g'animat", "Sukut – alomati rizo", "Salom ham farz, alik ham farz", "Sayl ham sayl, sarsonlik ham sayl", "Uzumini yegin-u bog'ini so'rama" va shunga o'xhash-

lar. Ayrim o'zbek-tojik maqol va matallari ikki tilda yas-aladi: "Qochmagan nomard!", "Tekinxo'r-haromxo'r", "Tegma nozuk" va boshqalar. Xullas, xalqlarimizning og'zaki adabiyoti va badiiy adabiyotida hamohang va mushtarak maqol va matallar, pand va hikmatlar juda ko'p. Bu ikki xalqlarining tarixan do'st bo'lib kelganini, urs-odat va an'analarida ko'p umumiylig borligini ko'rsatadi.

Xalqlarimiz og'zaki ijodi o'rtasidagi bog'liqlik folklo-ring barcha janrlarida, jumladan, latifalarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Agar tojik va o'zbek latifalarini solishtirsak, ular orasida jiddiy farq sezilmaydi. Ular mazmun jihatidan ham, tasvir jihatidan ham juda o'xhash. O'zbek va tojik latifalar, shubhasiz, rivojlanish tarixi davomida takomillashtirilgan va o'zgartirilgan. Bu ikki qardosh xalq og'zaki ijodi qonuniyatları va qoidalariga ko'ra, ular muntazam ravishda rivojlanib, o'ziga xos ayrim xususiyatlarni namoyon etadi, lekin ular ijod va nutq uslubi, mavzu, mazmun jihatdan bir-biridan farq qilmaydi. Tasvirlar va illyustratsiya vositalari orqali farq qilishi mumkin xolos.

Bu ikki xalq o'rtasida ma'lum va mashhur bo'lgan latifalar guruhlari turli xil variantlarda uchraydi va ularning har biri bir xil mavzuga ega bo'lib, faqat xarakter va belgilarni o'zgartirish bilan farqlanadi. Bu g'oyalari "Ikki es-hakning yuki" ("Ду хара бор"), "Qiyomat" ("Дар киёмат сары либос"), "Dumi xurjinda" ("Думаш дар хўрчин"), "Sichqon dorisi" latifalarida o'z ifodasini topgan. O'zbek va tojik xalq og'zaki ijodida bunday sinonimlar juda ko'p va ular uzoq tarixiy yo'l bosib o'tgan. Shunday ekan, bunday latifalar qaysi xalqning ijod mahsuli yoki qaysi xalqqa tegishli ekanligi haqida qat'iy fikr bildirish qiyin.

O'zbek va tojik adabiyotining og'zaki aloqalarida hikoya nasridagi asarlar alohida o'r'in tutadi. Qadimdan do'st va hamroh bo'lgan bu ikki xalq o'rtasidagi qardoshlik munosabatlarini mustahkamlashga munosib hissa qo'shdi. Hikoya turi tabiiy ravishda folklor va yozma adabiyot o'rtasida joylashganligi sababli, uning xususiyatlari ular bilan o'rtoqlashadi. Uning janrlari og'zaki ijodda ham, yozma asarda ham paydo bo'lgan. Chunki ular oddiy odamlarning didi, qiziqishi, tushunchasi, dunyoqarashiga juda yaqin.

O'zbek va tojik hikoya nasri o'rtasidagi munosabatlar qadim tarixga ega bo'lib, XI — XVIII asrlardan boshlanadi. Adabiyotshunos Y.Salimov bu borada quyidagi fikri bildiradi: "Ana shunday munosabatlar shakllaridan biri bu ikki xalqning hikoyachilari o'rtasidagi muloqot edi. Bir zaminda yashagan o'zbek va tojik hikoyanavisi bir-birining repertuaridan ko'p foydalanganlar.

Ko'pincha bir so'zlovchi ham tojik, ham o'zbek til-larida hikoya qilib berardi. O'zbek tiliga tarjima qilin-gan qissa nasri asarlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, hikoyachilarning zullisonaynligi yanada oydinlashadi. Hikoyachilar gap tarkibini biroz o'zgartirib, o'zbekcha so'zlarni qo'shib, tojikcha matn mazmunini saqlab qol-gan"[3,20].

Rivoyat va qissa janri tadqiqotchisi Y.Salimov chucher ilmiy izlanishlar natijasida ko'plab rivoyat va qissa mavzulari bir-birining adabiyotiga o'tib ketganligini, hatto tojik va o'zbek mumtoz shoirlarining bir qator hikoyalari mazmunini ham shakllantirganini isbotladi. O'tgan asrlarda "Samaki ayyor", "Shohnoma", "Abumuslimnoma", "To'rt darvesh", "Hotami toyning sarguzashtlari" va o'nlab fors-tojik qissa va rivoyatlar matni namunalari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Masalan, XIX – XX asrlarda "Samaki ayyor" qissaviy romani turk tiliga tarjima qilingan.

Yana bir muhim jihat shundaki, ushbu romanning beshinchchi jildi yo'q qilingan bo'lسا-da, uning turkcha tarjimasi bugungi kungacha saqlanib qolangan. Yoki XI asrda yashab o'tgan xorazmlik shoir Sanoiy o'zi ham iste'dodli hikoyachi bo'lib, bir qator tojik hikoyatlarini nazm va nasrda o'zbek tiliga tarjima qilgan. O'zbek va tojik qissalarini turkumida "Bahromu Gulandom" qissasi katta maqomga ega bo'lib, uning syujeti har ikki adabiyotda ham rivojlangan.

Hikoya nasrinining har ikki xalq ma'naviyatiga foydali ta'siri, shubhasiz, katta. Bu har ikki xalq ijodkorlarining adabiy mahoratini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, S.Ayniy, J.Ikromiy kabi mashhur adi-

blarning hikoya nasriga e'tibori va undan o'z maqola va tezislarida, o'z qaydlarida muhim moddiy va adabiy tajriba manbayi sifatida foydalanganliklari tilga olingan. Jumladan, J.Ikromiy Tursun aka – otasining xizmatkori uning o'sib-ulg'ayishiga ijobiy ta'sir qilganini eslaysdi. «Tursun aka, — deb yozadi u, — savodsiz edi». Lekin tabiatian shoir, san'at va adabiyot ishqibozi edi. Uyining bir burchagida doim to'qqiz xil kitob bo'lardi: "Ibrohim Adham", "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Hotamnoma", "Zamchinoma", "Abu Muslimnoma" va boshqa...

Aytish joizki, jajji adib qalbida, avvalo, Tursun akaning mana shunday ta'sirli suhbatlari, ikkinchidan, "... kechki payt ichki hovlida, hikoya va rivoyatlar tinglashi bilan ijodga ishtiyoq uyg'ongan edi[4,18-19].

Shubhasiz, bunday xalq ertak va rivoyatlar nafaqat adiblar ma'naviyatining yuksalishida, balki bu xalqlarning estetik didining kamol topishida ham muhim rol o'yagan.

Bu ikki xalq haqida gapirganda, "bir bodomning ikki mag'zi", "bir chinorning ikki ildizi", "bir shaxmat taxtasing ikki misrasi", "birini qosh-u birini ko'z"ga qiyosladilar. Bu bejiz emas, albatta. Chunki ularning azaliy do'stligi tarixiy va samimiyl bo'lib, buni og'zaki adabiyoti ham yaqqol isbotlab turibdi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O.Madayev., T.Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010.
2. В.Асрорӣ., Р.Амонов. Эҷодиёти даҳанакии ҳалқи тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1980.
3. Салимов Ю. Насри ривояти: Мачмӯи мақолаҳо. – Душанбе: Ирфон, 1986.
4. Икромӣ Ч.Устоди ман, мактаби ман, худи ман. – Душанбе: Ирфон, 1970.

**Gulmira Zulaypoyeva,**  
*Farg'on'a viloyati, Farg'on'a politexnika instituti  
o'zbek tili va tillarni o'rgatish kafedrasи o'qituvchisi*

## IQBOL MIRZO IDIOS TILIDA QUSH NOMLARINING TAHLILI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligiga nisbatan yangi kirib kelgan idiostil tushunchasi va uning o'rganilishi xususida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, tilshunoslikning onomastika, xusan, zoonimika (qush nomlari) sohasiga oid nazariy fikrlar shoir Iqbol Mirzo she'riyatiga bog'langan holda misol va tahillilar asosida yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье высказываются мнения о понятии идиостиль, недавно вошедшем в узбекское языкознание, и его изучении. Также теоретические идеи, относящиеся к области ономастики, особенно зоонимики (названия птиц) лингвистики, объясняются на основе примеров и анализов в связи с поэзией поэта Икбала Мирзы.

**Annotation.** In this article, opinions are expressed about the concept of idiostyle, which has recently entered Uzbek linguistics, and its study. Also, the theoretical ideas related to the field of onomastics, especially zoonymics (bird names) of linguistics are explained based on examples and analyzes in connection with the poetry of the poet Iqbal Mirza.

**Kalit so`zlar:** idiostil, leksikografiya, onomastika, zoonimika, mifologik qush obrazi.

**Ключевые слова:** идиостиль, лексикография, ономастика, зоонимика, мифологический образ птицы.

**Key words:** idiostyle, lexicography, onomastics, zoonymics, mythological bird image.

O'zbek tilshunosligiga yangi kirib kelayotgan tushunchalardan biri idiostildir. Ijodkorning o'ziga xos individual uslubi idiostil hisoblanadi. Idiostil lingvistik atama tarzida individual uslub (stil) birikmasining qisqartirilgan

shakli bo'lib, biror bir ijodkorning tildan foydalananish xususiyatlarini o'z ichiga olgan uslubning o'ziga xos kompleksi ma'nosini ifodalaydi [1:116].

Bunda muallifning adabiy til qoidalariga rioya qilishi

yoki buzishi, stilistik vositalardan foydalanishda ma'lum bir maqsad uchun o'zgarishlar kiritishi yoki o'z munosabatini aynan qaysidir shakllar orqali ifoda qila olishi kabi masalalar o'rganiladi. "Til doirasidan tashqariga chiqmasdan, uning ijodkoriga e'tibor qaratmay turib, tilning asosiy tashuvchisi - inson omili bilan hisoblashmay, til va uning tabiatи haqida aniqxulosalarga kelib bo'lmaydi", - deb yozadi Sh.Balli [2:27].

Har bir ijodkor til imkoniyatlardan o'z xohishidan kelib chiqib foydalanadi. Shoир Iqbol Mirzo she'riyatini tahlil qilish jarayonida unda o'ziga xos leksik birliklar, tarixiy va okkazional so'zlar hamda shevaga xos frazeologizmlarni uchratdik. Bundan tashqari, shoир ijodida o'z ruhiy holatini ifodalash uchun tabiatga, gullarga, qushlarga ko'p murojaat qilinganining guvohi bo'ldik. E'tiborimizni qush nomlarining shoир ijodida aks ettirilishiga qaratamiz.

Leksikografiyaning bir qismi sifatida onomastika bo'limi "nomlash" bilan shug'ullanadi. Onomastika (yun. onomastike - nomlash, nom qo'yish san'ati) - tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek, baracha atoqli yig'indisi. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi [3]. Onomastika o'z ichiga antroponomika (kishilarning atoqli nomlari), toponimika (geografik obyektlarning atoqli nomlari), teonimika (turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar nomlari), zoonimika (hayvonlarga qo'yilgan atoqli nomlari), kosmonimika (fazoviy bo'shilq hududlari, galaktikalar, nomlari); astronomika osmon jismlarining nomlari) kabi bo'limlarni oladi. Tirik mavjudotlarni nomlash bilan bionimiya bo'limi shug'ullanadi. Ular orasida biz hayvonlar va o'simliklarni ajratib ko'rsatamiz. Zoonimiya- bu hayvonlarni, fitonimiya esa o'simliklarni nomini o'rganuvchi sohadir.

Shoir Iqbol Mirzo she'riyatida qush nomlari: *turna*, *burgut*, *lochin*, *sor*, *to'rg'ay*, *bulbul*, *qarg'a*, (*olaqarg'a*,

*qoraqarg'a*), *laylak*, *qumri*, *qaldirk'och*, *boyqush*, *moviy qush*, *bedana*, *chumchuq*, *tovus*, *kaptar* (*kabutar*), *zog'*, *zag'cha*, *musicha*, *hakka* (*olahakka*), *chittak*, *qizilish-ton*, *mayna*, *to'ti*, *zag'izg'on*, *bedana*, *kalxat*, *o'laksaxor*, *quzg'un*, *moviy qush*, *ilvasin* (go'shti uchun ovlanadigan yovvoyi qushlar), *oqcharloq* (dengiz bo'yida uchib yuruvchi qush), *tentakqush* (5 oilasi bor: guaxalo yoki jiryaklar, baqaog'izlilar, ispolin, yapaloqqushsimon va oddiy tentakqushlar. 24 urug'i va 103 turi mavjud.) [4]

Qushlarning eski turkiy tildagi nomlar bilan qo'llag'anini guvohi bo'lamiz: *andalib* (bulbul), *sanduwoch* (bulbul)- turkiy tillar oilasidan hozirda tatar tilida ushbu so'z saqlanib qolgan, bu nom bilan ataluvchi qushning makiyonini sayrashi bilan O'rta Osiyo bulbullaridan farq qiladi [5], *qarlug'och* (qaldirk'och), *oqquv* (oqqush), *chug'z* (boyo'g'li) kabilar.

Shuningdek, shoир ijodida mifologik qush nomlari ga murojaatlar ham mavjud: *semurg'*- Sharq xalqlari og'zaki poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi; osmonda uchish, uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu-umidlarning ramziy ifodasi; *ango* – afsonaviy qush, qadimgi Sharq xalqlari afsona, ertak va dostonlarda bosh qahramonga homiy; *baxt qushi*- turkiy xalqlarda semurg'ning variant sifatida qo'llanuvchu qush nomi; *jon qushi*- odam o'lganidan keyin yoki uyqusida ruhi qushga aylanib uchib ketishi haqidagi tasavvurlar o'z aksini topgan qush nomi.[6]

Demak, shoир boshqa ijodkorlardan farqli ravishda tabiatga murojaat sifatida daraxtlar, gullar, qushlar nomlari ichidan barchaga ma'lum bo'lgan, qadimdan qandaydir obrazni ifodalagan qush nomlarni, shuningdek, (sayohatlar davomida) Yevropa qush nomlarni qo'llaganini ko'ramiz, ayniqsa, turna qushi eng ko'p 83 marotaba ishlatilgan. Bu esa shoирning o'ziga xos leksikoni mavjudligini va ko'plab Sharq adabiyotlari bilan tanish ekanligini ko'rsatadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллатоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил. фан. доктори дисс... – Фарғона, 2021.
2. Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд., стереотипное. — М.: Эдиториал УРСС, 2001.
3. A.Madvaliyev.Qomus-info onlayn ensiklopediya.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.Birinchi jild.-T, 2000.
5. Хуршид Даврон. Сандувоч ҳақида. –T, 2014. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz).
6. Ibn Sino, G'azzoliy, Attor, Navoiy ijodida qush obrazlari talqinlari. [www.fayllar.org](http://www.fayllar.org).2023.

## ILMIY-TANQIDIY MATN IMKONIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek matnshunosligining o'ziga xos xususiyatlari va mumtoz adabiy manbalarni ommalashtirish-da ilmiy-tanqidiy matn muammolari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** *birlamchi manba, izoh, ilmiy ko'rsatkich, ilmiy-tanqidiy matn, kitobat tarixi, matbaa ixtirosi, matn tahqiqi, muh-aqqiq, tayanch va yordamchi nusxa, hoshiya.*

**Аннотация.** В статье изучены особенность узбекской текстологии и проблемы научно-критического текста в популяризации классических литературных источников.

**Annotation.** In this article the author analyzing the scientific-critical edition of classical and historical works came to conclusion that any such studies will base on fundamental and academic research.

Har bir xalq o'zining yozma tarixiga ega. Uni o'rganishda yozma yodgorliklar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ajdodlarimiz hayotini butun tafsilotlarigacha qamrab olgan qo'lyozma manbalar o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ko'pri. Insoniyat tamadduni tarixida qadimiy qo'lyozmalarining ahamiyati shu darajada ekan, bu be-baho ma'naviy merosga chinakam voris bo'lism uchun ularni chuqur o'rganish, o'rganilganda hosil bo'lgan bilmni ommalashtirish talab qilinadi. Ajdodlardan qolgan ma'naviy mulkni o'zlashtirish aynan shu jarayon dan boshlanadi.

Shu ma'noda, matbaa ixtirosi nafaqat kitobat tarixida, balki insoniy fikr, insoniy madaniyat tarixida ham yangi davrni boshlab berdi. Matbaa ishi sanoatlashgach, ilgari bitta yoki bir nechta nusxadagina ko'chirish mumkin bo'lgan kitobni yuzlab, minglab nusxada ko'paytirish imkonи tug'ildi. Tabiiyki, bu holat qo'lyozma manbalarini nashr qilish qonun-qoidalarini ishlab chiqishni kun tartibiga qo'ydi.

Masalaning murakkabligi shunda ediki, matnshunoslik ishi dastavval dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan muayyan qo'lyozma nusxalarini aniqlash, aniqlagandan so'ng keyingi tadqiqot uchun ularni jamlashni taqazo qiladi. Matnshunosda o'zi o'rganayotgan asarning bir nechta qo'lyozma nusxalarining qaysi biri nashr qilishga haqliroq, degan prinsipial savol tug'iladi. Qadimiyyrog'imi yo zamonaviyrog'i? To'lig'imi yoki noqisi? Xushxatimi yo badxatrog'i? Ishonchlisimi yoki ishonchsizrog'i? Bu savollarga javob topish nazariy jihatdan oson ko'rinsa-da, lekin aslida engil kechmaydi. Qadimiyyroq nusxa zamonaviyrog'idan yoki to'lig'i noqisidan doim ham ustun bo'lmaydi, ba'zan buning aksi kuzatilishi mumkin.

Nashr uchun muvofiq nusxa tanlandi ham deylik. Eng serzahmat jarayon shundan so'ng boshlanadi, bu – matn tahqiqi masalasi. Tahqiq jarayoni matndagi har bir so'z, har bir jumlaning muallif matniga muvofiqligini ilmiy dalillar bilan har tomonlama asoslashdan iborat. Bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi olim Sharqda "muhaqqiq", deb atalgan.

Manbashunos olim Abdussator Abdulhaq Halujiy<sup>1</sup> va Bashshor Avvod Ma'ruf<sup>2</sup>ning xabar berishicha, qo'lyozma asarlar tahqiqi bo'yicha soha olimlarining fikri xilma-xil. Ba'zilarining aytishicha, qo'lyozmani nashr ga tayyorlayotgan muhaqqiq uchun muhim, bir nechta nusxani o'rganish bilan chegaralanish, ular ichidan bitta nusxani tanlab, o'rtadagi farqlarni ko'rsatib nashr qilish. Boshqalarining fikricha, muhaqqiqning vazifasi tahqiqda muqobil nusxalar bilan chegaralanib qolish emas, balki qaysi nusxa matni qaysisidan kelib chiqqanini aniqlash va shu yo'l bilan asliyatni tiklashdir. Yana bir guruh olimlar tahqiq jarayonida imkon qadar ko'proq nusxalardan foydalanish lozimligini uqtiradi. "Matn aniqligi"(ضبط المتن)ni shart qilib qo'yan bu olimlarning bildirishicha, matnning g'oyat darajada aniqligiga erishish uchun, zarurat bo'lsa, matnni isloh qilish, izohlovchi qo'shimchalar bilan mazmunni ochish, har bir holatga ta'rif berish kerak.

Bu qarash amaliyotda yangi savollarni tug'dirgan. Tuzatishlar, qo'shimchalar, izohlar kattarib, hajmi kitob matnidan ham oshib ketsa, matnga aloqador fikrlar hoshiyada (matn ostida) zikr qilingani yaxshimi yoki asl matndan ajratilib, alohida, mustaqil qism sifatida berilganimi? Shuningdek, matnning nuqson va xatolarini tuzatib taqdim etgan yaxshimi yoki qanday bo'lsa, shundayligicha berib, xato yoxud to'g'ri variantlarni hoshiyada ko'rsatgan afzalmi?

Bu savollarga javobni o'zbek matnshunosligi tarixidan izlab ko'raylik. Matnshunosligimizda olib borilgan ishlarning aksar qismida Navoiy asarlari tadqiqot ob'ekti qilib olingan. Aytish mumkinki, o'zbek matnshunosligi Navoiy asarlarini nashr ga tayyorlash jarayonida shakllandi.

1974-yilda Izzat Sultonov "Navoiyning "Mezon ul-avzoni" va uning kritik teksti"<sup>3</sup> mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiya ikki qismidan iborat bo'lib, avvalgi qismda "Mezon ul-avzon"ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash prinsiplari haqida so'z borgan. "Qo'lyozmaning tasviri", "Farqlarning tiplari", "Ishoralar, "Tayanch qo'lyozmaga tuzatish kiritish prin-

siplari” kabi mavzular tamoyil sifatida olinib, ular misollar yordamida dalillangan. Ikkinci qismda tayanch nusxaning fotonusxasi ilmiy-tanqidiy matn sifatida keltirilgan. Nusxalararo uchrovchi farqli jihatlar tayanch nusxa matnidagi o’sha so’z ustiga raqam qo’yilib, havolada izohlangan.

1956-yilda “Xamsa”ning to’rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor”ning ilmiy-tanqidiy matni nashrdan chiqqan. Kitob avvalida ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash prinsiplari haqida Porso Shamsievning so’zboshi maqolasi berilgan. Maqolada ilmiy-tanqidiy matn uchun bitta tayanch va ikkita yordamchi nusxa tanlangani, shulardan ikitiasi Navoiy hayot chog’ida ko’chirilgani aytilgan. Nashrga tayyorlovchining fikricha, mazkur uchta nusxadan boshqa “turli asrlarda xilma-xil o’zgarishlarga uchragan nusxalarga murojaat qilish ishni murakkablashtirib yuboradi, farqlar soni ko’payib, tekstdan foydalanish qiyinlashadi. Bunga esa ehtiyoj yo’q. Chunki kritik tekst tuzishdan ko’zda tutilgan maqsad faqat ma’lum asarning har qanday shubha va nuqsonlardan xoli bo’lgan mustahkam va ishonchli nusxasiga ega bo’lish, bu bilan shu asardan bermalol foydalanishga yo’l ochishdir”.<sup>4</sup> Maqolada har uchala qo’lyozmadagi yozuv bilan bog’liq holatlar, o’zaro farqlar va ularning ilmiy-tanqidiy matndagi shartli belgilari izohlangan. Ilmiy-tanqidiy matn arab bosma yozuvida terilgan. Har bir bo’lim o’n bayt-o’n baytdan ajratilib, raqamlab chiqilgan. Nusxalardagi farqlar matn ostida berib borilgan, matn ichida ularga ishora qiluvchi belgi mavjud emas.

1963-yilda Porso Shamsiev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn asosida “Xamsa”ning yana bir dostoni “Farhod va SHirin” chop qilindi. Bu kitobda ham oldingi nashrdagi tartib takrorlanganini kuzatish mumkin. Faqat muqoyasa uchun tanlangan nusxalarning soni ortgan, natijada ularning nomlanishi biroz o’zgargan: *asosiy tayanch nusxa; asosiy yordamchi nusxalar; yordamchi nusxalar*. SHuningdek, “ish jarayonida ayrim so’zlarning o’qilishini aniqlashda boshqa qo’lyozmalariga, hatto toshbosma nusxalarga ham”<sup>5</sup> murojaat qilingan. 1970-yilda chop etilgan “Hayrat ul-abror” dostonining ilmiy-tanqidiy matnni tuzishda asos nusxalar soni oltiga etib, shulardan uchtasi toshbosma nusxalar ekani aytilgan.<sup>6</sup>

O’tgan asrning 60-yillarda “Xamsa” matni tadqiqi bilan parallel ravishda, 4 jilddan iborat “Xazoyin ul-ma’oni” devonlari ham ilmiy-tanqidiy matn asosida nashr ga tayyorlangan. Nashr ommaviy bo’lgani uchun hech bir jilda devonlarning asliyat yozuvidagi ilmiy-tanqidiy matni berilmagan. Ammo “Favoid ul-kibar” devoni ga ilova qilingan to’rtta rangli jadvaldagagi ma’lumot va umumlashmalar devonlarning ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash jarayoni naqadar serzahmat bo’lganidan xabar beradi. “Navoiy o’zbekcha qo’lyozma devonlarining redaksiyon klassifikatsiyasi” deb nomlangan birinchi jadvalda “Xazoyin ul-ma’oni” devonlari, shuningdek, ilk devon, “Badee ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” va

terma devonlardan iborat 20 ta mo’tabar nusxalarning har birida 16 ta janr bo’yicha kelgan asarlar hajmi tasnif qilingan. Ikkinci jadvalda “Xazoyin ul-ma’oni” dagi g’azal, ruboiy va muammolarning alifbo bo’yicha kelish tartibi 9 ta nusxa misolida ko’rsatilgan. Uchinchi jadvalda “Xazoyin ul-ma’oni” devonlarining XV asr nodir qo’lyozmalari asosida haqiqiy xronologiyasi aniqlangan. To’rtinchi jadvalda “Xazoyin ul-ma’oni”ning to’rt devonga shartli taqsimlanishi natijasida kelib chiqqan nisbiy xronologiyasi aks etgan.

Fathiddin Ishoqovning “Zarbulmasal” asari bo’yicha olib borgan tadqiqoti o’zbek matnshunosligi, xususan, ilmiy-tanqidiy matn tayyorlash tarixida muhim qadam bo’ldi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Mazkur tadqiqotda manbaga kompleks yondashuv yo’lidan borilib, matnshunoslikning an’anaviy tekshirish usullari yangi tajribalar bilan boyitilgan. F.Ishoqov “Zarbulmasal”ning turli qo’lyozma nusxalarini qiyosiy o’rganish natijasida, avvalo, asarning tarkibini, uning umumiy syujet yo’lini aniqlab olishni zarur bilgan. Shundan keyingina “ichki tafovut”larni tekshirgan va matn tuzish tamiyillarini belgilagan. Tekshirishlar davomida nusxalar orasidagi o’zaro o’xshash va yaqinlikni ko’rsatuvchi belgilarga alohida e’tibor qaratilgan. Nusxalar bir umumiylidan ko’chirilgan emas, lekin hajmi, tarkibiy qismlarning tartibi, hikoyatlarning boshlanishi va oxiri kabi jihatlarga qaralsa, bu qo’lyozmalar turli kotiblar tomonidan ko’chirilgan uch manba(arxetip)ga aloqador, degan xulosaga keligan. Har bir arxetipdan tarmoqlangan qo’lyozmalar shartli ravishda uch guruha ajratilib, “I gruppera qo’lyozmalari”, “II gruppera qo’lyozmalari”, “III gruppera qo’lyozmalari”, deb nomlangan.

“Zarbulmasal”ning ilmiy-tanqidiy matnni tuzishda “faol tanqidiy tanlab olish prinsipi”ga<sup>7</sup> amal qilingan. Nusxalarning qiyosiy manzarasi va ilmiy-mantiqiy tahallili tanqidiy tanlab olishning muayyan asosini belgilagan. F.Ishoqov ilmiy-tanqidiy matnning tuzilishi haqida gapirib, tadqiqotning xarakterli jihatini shunday bayon qiladi: “Nusxalar orasidagi tafovutlar haddan tashqari ko’p va xilma-xil. 2300 ga yaqin o’rinda faqat ma’noqa – so’z qo’llashga, jumla tuzilishi, ayrim maqol yoki qismlarning qay tarzda ishlatalishiga oid 3500 dan ziyo-droq farq bor. Ilmiy apparatda ularning hammasini qayd eta borish, aniqliki, tekstning o’qilishini qiyinlashtirib qo’yishi mumkin. Biroq biz bu farqlarni ilmiy apparatga qisqartirib olish yo’lini tutmadik. Asarning qo’lyozmalari tarixini, demakki, “Zarbulmasal”ning kotiblar qo’lidagi “evolyutsiyasi”ni namoyon qilish maqsadida va asar ustida o’tkaziladigan kelgusi tadqiqotlarga nafi tegsin ma’nosida nusxalar orasidagi hamma va har qanday farqlarni ilmiy apparatda to’liq ko’rsatib borishni lozim topdik va bunda apparatning ortiqcha murakkab tus olishidan cho’chimadik.”<sup>8</sup>

O’zbek matnshunosligida kuzatilgan ushbu holatlardan ayon bo’ladiki, ilmiy-tanqidiy matnga aloqador tuzatish, qo’shimchalarning muxtasar bayoni matn os-

tida, batafsil izohi mustaqil qism sifatida matnning avvalida keltirilgan. Bu holni "Lison ut-tayr" dostoni<sup>9</sup> va "Nasoyim ul-muhabbat"<sup>10</sup> asariga tuzilgan ilmiy-tanqidiy matnlarda ham ko'rish mumkin.

Matnning nuqson va xatolarini tuzatib taqdim etgan yaxshimi yoki matnni qanday bo'lsa shundayligicha berib, xato yoxud to'g'ri variantlarni hoshiyada ko'rsatgan afzalmi, degan savolga kelsak, yuqorida bildirilgan fikrlarga ko'ra, ilmiy-tanqidiy matn tayanch qo'lyozmanning izmiga imkon qadar bo'ysundiriladi. O'rni kelganda tayanch nusxaga ham tanqidiy nazar bilan yondashildi. Bunday holatda mazmun taqazo etgan boshqa nusxalar tayanch nusxadan afzal sanaladi. Soha mu-taxassislari uchun mo'ljallangan ilmiy nashrlarda muallif hayotligida ko'chirilgan qadimiy nusxaning ishonchiligi asoslansa, matnni qanday bo'lsa shundayligicha berib,

xato yoxud to'g'riligi taxmin qilinayotgan variantlarni hoshiyada ko'rsatgan afzal. Ommaviy nashrlarni esa tuzatilgan matn asosida, matnga turli ilmiy ko'rsatkichlarni qorishtirmsandan, agar lug'at va izohlarga hojat bo'lsa, ularni kitob oxiriga ilova qilish yo'li bilan chop qilish maqsadga muvofiq.

Ishonchli ilmiy-tanqidiy matn ommaviy nashr uchun ham, filologik tadqiqotlar uchun ham keng imkoniyatlari va boy ma'lumotlar beruvchi birlamchi manba hisoblanadi. Mumtoz matnlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xoh ommaviy, xoh ilmiy yo'nalishda bo'lsin, birlamchi manbani chetlab o'tar ekan, erishilgan natijalar muvaqqatlik xarakteriga ega bo'ladi. Buning oldini olish uchun mumtoz adabiy manbalar yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlar mustahkam fundament – ilmiy-tanqidiy matnga asoslanishi shart.

1. عبد الحق الحلوجي. استاذ المكتبات أديب قاهرة «أصول النقد النصوص و نشر الكتاب» دوكتور محمد حمدى بكرى. توطئة. عبد الستار «ضبط النص و التعليق عليه». الدكتور بشار عواد معروف. بيروت ٢٨٩١، ص. ٦.
2. 3. Асосий кутубхона. РД/1, Алишер Навоий. Мезонул авзон. Тайёрловчи И. Султонов, 1947 й.
4. Алишер Навоий. Сабъаи сайёри. Илмий критик текст. (Тайёрловчы: Порсо Шамсиев), Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1956, IX-бет.
5. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Танқидий текст. (Тайёрловчы: Порсо Шамсиев), Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1963, VII-бет.
6. Қаранг: Исақоқов Ф. Гулханийнинг "Зарбулмасал" асари. Т.: Фан, 1976, 36-бет.
7. Исақоқов Ф. Гулханийнинг "Зарбулмасал" асари. Т.: Фан, 1976, 4-бет.
8. Алишер Навоий.Лисон ут-тайр.Илмий-танқидий матн.(Тайёрловчы Ш.Эшонхўжаев),Т.:Фан,1965,-283 б.
9. АлишерНавоий. Насойимул муҳаббат. Илмий-танқидий матн. (Тайёрловчы: Ҳ.Исломий), Т.: "Movarounnahr", 2011, -426.

**Шукурова Зилола,**

*Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ўқитувчиси, PhD*

## БАЁЗЛАРНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ТАРИХИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ОМИЛЛАРИ

**Аннотация.** Ушбу мақолада баёзларнинг келиб чиқиш макони, замони, унга хос хусиятлар хақида сўз боради. Шунингдек юртимиизда баёзчилик анъанасининг кириб келиши ва гуллаб яшнаган даври ҳақида ҳам таҳлилий мулоҳазалар берилган.

**Калит сўзлар:** баёз, баёзчилик, Абу Таммол, адабий жанрлар, кўлёзма, тошбосма.

Ўзбек мумтоз адабиётида шоирлар ижодидан таркиб топган ва ўзига хос гулдаста вазифасини ўтайдиган баёзлар алоҳида қимматга эга. Баёзларининг ўзбек адабиётидаги аҳамияти шундаки, унда машҳур шоирлар билан бирга машҳур бўлмаган ёхуд машҳур бўла туриб моддий қийинчиликлар ва бошқа сабабларга кўра девон тузга олмаган шоирларнинг ижод намуналарини учратиш

мумкин. Шу маънода баёзларни шоирларни кашф этувчи фабрика дейиш мумкин. Бу фабрика ўзбек адабиётида қанчадан-қанча шоирларни кашф этишда ёрдам беради.

Баёз (араб. – ок, оклик) – шеърлар тўплами деган маъноларни англатади<sup>1</sup>. Баёзларнинг пайдо бўлиш тарихи узоқ ўтмишга тақалиб, уни дастлаб араб адабиётларида учратиш мумкин. Бироқ унинг

айнан қайси даврда яратилгани ҳақида олимларнинг турли қарашларлари кузатилади. Хусусан, айрим олимлар баёзларнинг пайдо бўлишини араб диёлларларида адабиётнинг энг гуллаган даври VIII-XII асрларда пайдо бўлганлигини келтирса<sup>2</sup>, баъзи адабиётларда илк баёзлар араб шеърияти ривожланган давр (750 – 1055)да юзага келганлиги<sup>3</sup> айтилади, баъзи манбаларда баёзчилик анъанаси мусулмон шарқида VIII-IX асрларда араб адабиётида дастлабки кўринишларини олгани<sup>4</sup> таъкидланган. А.Ҳабибуллаев эса араб мумтоз адабиётида баёзлар IX асрда пайдо бўлганини (шоир Абу Таммом) хабар берган<sup>5</sup>. Юқорида кўрсатилган даврларни янада аниқроқ қилиш ва ягона тўхтамга келиш учун масалани кенгроқ ёритиш эҳтиёжи сезилади.

Маълумки, араб диёлларларида ислом дини кириб келганидан сўнг кўпгина соҳалар қаторида адабиёт соҳасида янгича тамойиллар, йўналишлар пайдо бўлди. Янги жанрлар, таҳлилда ноанъанавий ёндашувлар, янгидан-янги поэтик воситалар шаклланди. Ана шундай эврилишга сабаб бўлган араб шоирларидан Башар ибн Бурд (783 йилда вафот этган) ва Абу Нуvas (вафоти 810) ислом дини кириб, гуллаб яшнай бошлаган даврида араб шеъриятини яна бир поғонага кўтаришда асосий ҳисса қўшишган. Бу мамлакатда ислом дини кириб келишидан аввал ҳам филология, соҳаси анча ривожланган бўлиб, адабиёт, шеърият тараққий этган эди. Кўпгина шоирлар ана шу исломга қадар яратилган шеърларга кўпроқ қизиқар эди. Унинг ўзига хос жозибадорлиги, йўналиши шоирларни ўзига мафтун этар эди. Оғиздан-оғизга ўтиб келаётган, қадимги анъаналарни ўзида сақлаб келаётган ва йўқолиб кетиш эҳтимоли бўлган бу шеърларни йиғиш, тўплаш асрлаб-авайлаш кўпчилик шоирнинг орзусига айланди ва бу даврни олимлар “қадимги анъаналарга қайтиш даври” деб айтишади.

Ниҳоят, Суриялик Абу Таммом (180/796 – 228/843) “Китоб ул-хамаса” (“Жасорат, шону шавкат китоби”) асари<sup>6</sup> орқали ўз давридаги шоирларнинг орзуласини рўёбга чиқарди ва адабиётда баёзчилик анъанасига асос солди. Китобни тузишда шоир ўзининг шеърлари билан бирга, ўзига қадар яшаб ўтган шоирларнинг шеърларини ҳам киритиб, асарни 7 қисмга бўллади. Ҳар бир қисмда маълум бир жанрга тегишли шеърларгина киритилади. Ва унинг бу асари жуда машҳур бўлиб кўпгина шоирларни илҳомлантиради.

Абу Таммомдан кейин иккинчи марта “Хамаса” ёзган шоир унинг шогирди Ал-Бухтурий (206/821—284/897) ҳисобланади. У устози бошлаб берган анъанани мукаммаллаштиради. Асарини 176 бобга бўлиб исломгача ва исломдан кейин яшаган 600 га яқин шоирларнинг ижодини киритади. Материалларни ҳам устозидан фарқли ҳолда ажратиб чиқади. Шу тариқа баёзчилик анъанаси шаклла-

ниб, тараққий эта бошлади.

Албатта, бу асарлар яратилган даврда ҳеч ким уни баёз термини билан атамаган. Бироқ тўпламда турли даврда яшаган шоирлар ижодининг берилishi, материалларнинг хилма-хиллиги каби белгилар бу асарнинг ҳозирги кунда баёз атамаси билан юритилиб келаётган тўплам эканлигини англатади. Демак, баёзнинг яратилиш даври ҳақида гап кетганида уларнинг дастлабки намунаси IX асрда яратилган деб берсак мақсадга мувофиқ бўлади.

IX асрда яратилиб, гуллаб яшнаган баёзчилик анъанаси секин-асталик билан араблар тасаруфидаги мамлакатларда ҳам ёйила бошлади. Ўрта Осиё шоирлари ўртасида ҳам классик шеър намуналарини асрлаб қолиш, севимли шеърларининг гулдастасини бир жойда йиғиш иштиёқи бор эди. Шу сабабли ҳам Ўрта Осиёда кириб келгач, бу анъана анча тараққий этди. Бу худдулда баёзларнинг илк намунаси қачон пайдо бўлгани ҳозирча но маълум. Бироқ манбаларда берилган маълумотга кўра Ўрта Осиё худудида XV асрда ҳам баёз тузиш анъанаси мавжуд эканлигини қайд этилган. Ҳозирча юртимизда сақланаётган баёзлар орасида энг қадимийси XV асрга тегишли деб ҳисобланади. Мазкур баёз Абу Райҳон Беруний номидаги Қўлёзмалар институтида С 100 (249) инвентарь рақами билан сақланиб, 867/1442 йилда тузилган. Унда 22 та Эрон, Ҳиндистон ва Ўрта Осиё шоирларининг ғазал, қитъа ва таржеъбандларидан иборат.

Ўрта Осиёда баёз тузиш анъанаси XV асрда шаклланиб бўлган бўлса-да, унинг ривожланиш чўққиси XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг бошларига тўғри келади. Бу даврда асрлар давомида тўпланиб келаётган анъаналар, тажрибалар янги босқичга кўтарилиди. XIX асрга қадар яратилган баёзларда, асосан, турли даврларда яшаган шоирларнинг турли жанрдаги шеърлари жойланган бўлса, XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб улар нафақат шеър муҳлисларининг севимли шеърий тўплами балки, маълум бир аниқ мақсадларда хизмат қилувчи қўлланма вазифасини ҳам бажарган. Асрий анъаналарни сақлаган ҳолда айрим баёзларда фолклор намуналари, Навоийнинг “Хамса” достони таркибидаги айрим достонлари, математика, фалсафа, ислом дини қонун-қоидалари, пайғамбарлар ҳақидаги қиссалар (уларнинг айримлари ишочиз), савдодаги олди-берди масалалари, подшоҳларга киритиладиган арзнома намуналари, қорхат ва ҳ.клар киритилган. Бу эса ўша даврларда баёзлар шунчаки эстетик завқ олиш воситаси эмас, балки мадрасаларда толиби илмларни ўқитишда фойдаланиладиган дарслек вазифасини ҳам ўтаганлигини исботлайди.

Умуман олганда, баёзларнинг келиб чиқиши араб мамлакатларига бориб тақалса-да, юртимизда кириб келгач уни тузиш анъанага айланниб, XIX

асрда санъат даражасида кўтарилди. Тузилиши ва мавзу кўламига кўра кенгайиб, жамиятнинг кўпчилик соҳа вакиллари учун зарурий эҳтиёж вазифаси-

ни бажарди. Шу сабабли ҳам бу даврда яратилган баёзлар бошқа даврга қараганда анчагина кўп ва хилма-хилдир.

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. (Б ҳарфи) – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти. 22-б.
2. Қаранг. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1976. 80-б; Х. А. Гибб. Арабская литература (классический период), М., ИВЛ, 1960, стр. 36—80.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. (Б ҳарфи) – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти. 22-б.
4. Қаранг. Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. 85-б; Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. Том 2. –, Л., 1956. С 21.
5. Ҳабибуллаев А Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: 2020, 10-б
6. Қаранг. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1976. 81-б; Ҳаннааль - Фахури, История арабской литературы, кн. 2, М., Изд-в а Иностр. лит-ры, 1961, стр. 5.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ҳабибуллаев А Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: 2020
2. Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017.
3. Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. Том 2. –, Л., 1956.
4. Ҳаннааль - Фахури, История арабской литературы, кн. 2, М., Изд-в а Иностр. лит-ры, 1961
5. Х.А.Гибб. Арабская литература (классический период), М., ИВЛ, 1960
6. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1976.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. (Б ҳарфи) – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти.

Firuza XALIMOVA,  
*Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi  
dotsenti, PhD Samarcand davlat chet tillar instituti*

## POETIK MATNDA FREYM FAOLLASHUVI

**Annotation.** *Ushbu maqolada konseptual shakl – freymning nazariy asoslari hamda konsept, semantik maydon va freymning tafovutli jihatlari ochib berilgan. Freym konseptning yadro komponentini va u bilan bog'liq barcha uyushmalarni belgilaydi. Ushbu uyushmalar, o'z navbatida, pog'onali ravishda joylashtirilgan bo'lib, yadro, markaziy (asosiy) daraja, periferiya daramalaridan iborat bo'ladi. Maqolada, shuningdek, Jamol Kamol qalamiga mansub "Itijo" deb nomlangan she'rining freymi tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** konsept, semantik maydon, freym, yadro, markaziy (asosiy) daraja, periferiya, terminal, slot.

**Аннотация.** В данной статье раскрываются теоретические основы концептуальной формы – фрейма, а также различные аспекты концепции, семантического поля и фрейма. Фрейм определяет основной компонент концепции и все связанные с ней ассоциации. Эти ассоциации, в свою очередь, располагаются ступенчато и состоят из ядерного, центрального (основного), периферийных уровней. В статье также анализируется рамка стихотворения Джамала Кемаля под названием «Мольба».

**Ключевые слова:** концепт, семантическое поле, фрейм, ядро, центральный (базовый) уровень, периферия, терминал, слот.

**Abstract.** This article reveals the theoretical foundations of the conceptual form – frame, as well as various aspects of the concept, semantic field and frame. The frame defines the main component of the concept and all associated associations. These associations, in turn, are arranged in steps and consist of nuclear, central (main), peripheral levels. The article also analyzes the frame of Jamal Kemal's poem entitled "Please".

**Keywords:** concept, semantic field, frame, core, central (basic) level, periphery, terminal, slot.

Birinchi marta "freym" atamasi M. Minskiy tomonidan sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlarning konseptual apparatiga kiritildi: "freym – bu stereotip vaziyatni ifodalash uchun mo'ljallangan ma'lumotlar tuzilmasi"[7, 249-338]. Tilshunoslar ko'rib chiqilayotgan hodisaniqning quyidagi formulalarini taklif etadilar, bu esa bir-birini to'ldirib, unga batafsil tavsif beradi. Masalan, N.N.

Boldirevning ta'bıricha, freym – bu konsept emas, balki kognitiv tuzilma bo'lib, konseptlar o'rtasidagi o'zaro aloqa turi, mental makon shakllanishi usuli hisoblana-di[3,14].

T.A. van Deykning tavslificha, freymlar beixtiyor bilimdan ajratilgan "donalar"dir, ular muayyan konsept "atrofida" hosil bo'lgan birliklar bo'lib, o'z ichiga u yoki

bu konsept bilan bog'liq bo'lgan asosiy, odatiy va potensial axborotni qamrab oladi, katta yoki kichik an'anaviy xususiyatga ega, shuning uchun freymlar berilgan jamiyatda "xarakterli va tipik" holatni aniqlashi va tasvirlashi mumkin[4, 16-17].

M. Minskiyning fikriga ko'ra, har qanday freymda boshqa elementlardan tashqari boshqa freymlar qo'shiladigan terminallar to'plami mavjud. Har bir freym bir qator xususiyatlarga ega, ularning yetarli sonining mavjudligi butun freymning faollashuviga olib kelishi mumkin[7, 249-338].

J. Grubber alohida bir leksemaning bitta ma'nosini emas, alohida ma'no turlarini ifodalovchi "matn freymlari" kabi freymlar kategoriyasini ko'rib chiqadi, tangan ma'nolar birikmasining to'g'rilingini hamda turli leksemalarning mohiyat turlari birikmasini aniqlaydi: leksikal, konseptual va ensiklopedik[1, 254-267].

Turli freymlarning umumiy terminallarining (sub-freym) o'zaro bog'lanishi ularning murakkabroq strukturaga – metafreymga birlashishiga olib keladi[6, 105-107].

Har bir inson xotirasida ma'lum miqdordagi bilimlar zaxirasi saqlanadi va aynan shu zaxira axborotni qabul qilib idrok etish vositasi rolini o'taydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida "freymlar to'ri to'plami" mavjudki, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyatini ma'lum ko'rinishdagi "andoza"lar asosida amalga oshishini ta'minlaydi. Freym xuddi shu guruhdagi andozali strukturalar qatoriga kiradi[9, 41].

Freym va konseptual maydonni turli xil kognitiv tuzilmalar sifatida taqqoslaganda, uyushmalarning turkumligi/individualligi, ularning oqilonha/emotsional tabiatи freymli va maydon shakllanishi belgisi sifatida aniqlanadi. Semantik maydon va freym o'tasida farqlar mavjud bo'lib, ular tuzilmaning lisoniy tizimda yoki undan tashqarida joylashuvi bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, freym yuqori darajadagi kognitiv tuzilma, ko'p komponentli konseptdir. Har qanday bilim birligini ifodalovchi umumiy "konsept" atamasidan farqli ravishda, tizimlashmagan "freym" umumiy atamasi faqat tizimli konseptlar: sxemalar, ssenariylar, kognitiv modellarga murojaat qilish uchun ishlatalidi.

Freym bilimlarni ifodalash turiga ko'ra statik yoki dinamik bo'lishi mumkin. Statik freym – insonning sxematik tajribasi "hujayrasi", "qadog'i" sanaladi. Dinamik freym insonning so'zlashuv jarayonida uning diskursiv faoliyatining semantik doirasi sifatida kategorial tajribasini aks ettiradi[8], shuning uchun turli "o'qilish" variantlaridan iborat bo'lган bir turdagи freym, bir nechta ssenariylarga joylashtirilishi mumkin.

O.A. Jarina konsept va freymning farqi va munosabatlarini o'rganib, ularni quyidagicha ta'riflaydi: Konsept – bu bir so'z orqali ifodalangan barcha ma'nolarning to'plami; atrofdagi olamning bir nom bilan aytilgan ideal obyekti, insonning olam haqidagi madaniy-shartlangan tasavvurini aks ettiradi. Freym esa, uning yadro komponentini va u bilan bog'liq barcha uyushmalarni anglatadi. Ushbu uyushmalar, o'z navbatida, pog'onali ravishda joylashtirilgan bo'lib, so'zlar bilan to'ldirilgan darajalarni ifodalaydi: yadro, markaziy (asosiy) daraja,

periferiya. Freymlar kognitiv bazaga tegishli, ya'ni ular ma'lum bir tilda gaplashadigan butun til hamjamiyati uchun universaldir[5, 43-47].

Sh.S. Safarov freym haqida izoh berar ekan, uni konseptning qolipi deb ataydi: "Voqelik idroki natijasida hosil bo'ladigan konsept freym tuzilishida, ya'ni qolipli ravishda kechadi. Freym borliqning idrok etish modeli sifatida turli mantiqiy-ruhiy assotsatsiyalar asosida shakllanadi. Freymni o'ziga xos mantiqiy faoliyat zanjiri ko'rinishida tasavvur etadigan bo'lsak, uning turli tugun, bandlardan tarkib topishi e'tirof etiladi"[10, 76].

N.F. Alefirenko freymni tashkil etadigan ushbu tugun va bandlarni "slotlar (tugunlar) va terminallar to'plami" deb ataydi. *Slotlar* struktura yuqori darajasining mazburiy tarkibiy qismi bo'lib, ular intensiv xarakterdagi konseptual ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. *Terminallar*, quiyi darajadagi komponentlar, ma'lum bir kommunikativ va pragmatik vaziyatga bog'liq bo'lган o'zgaruvchan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi[2, 13].

Ushbu tugun va bandlarning (slot va terminallar) har biri maxsus «topshiriq»ni bajaradi, vazifani o'taydi. Ana shunday vazifalardan biri milliy-madanani mazmunni ifodalashdir. Freym assotsiativ idrok qolipi bo'ladigan bo'lsa, bunday mantiqiy-tafakkur obrazlarining ko'pchilik qismi milliy-madaniylik xususiyatiga ega bo'lishini ham unutmasligimiz kerak[10, 76].

Masalan, shoir Jamol Kamol qalamiga mansub "Iltijo" deb nomlangan she'rining freymini tahlil qilamiz.

*Ey Xudo, men ham qulingman, o'zgadin kam etmagil,*

*Bu jahon qayg'usini jonim aro jam etmagil.*

*San'atingga yo'q taraf, sohib hunarsen, ey Xudo,*

*Aslini hayvon yasab, suvratda odam etmagil.*

*Bor jahoning zalvarin, yelkamga qo'y sang, qo'y, vale,*

*Nafsi shayton zanjirin bo'ynima mahkam etmagil.*

*Kecha berding munchakim, ber endi kunduz, Xoliko, Kulguni bir dam berib, g'amni damodam etmagil.*

*Biruborim bermasang jannatsaroylar, mayliga,*

*Ko'zlarimga bori dunyoni jahannam etmagil.*

*Sen yaratding shu jahonda mardni ham, nomardni ham,*

*Mardni ma'yus aylabon, nomardni hurram etmagil.*

*Ro'baro' etma munofiqni menga, Parvardigor,*

*Senga hamdan bo'lmaganni menga hamdam etmagil.*

*Ey Xudoym, solmasang ko'ngilga ishqdin inqilob,*

*Nozaninlar nozini jonimga malham etmagil.*

Mazkur she'rning freym-konsepti – ILTIJO. Iltijo Xudoga yoki biron bir shaxsga himoya, panoh so'rash maqsadida yalinish, yolvorish, o'tinib so'rash, kuchli iltimos qilishni bildiradi. Iltijo qilayotgan shaxs biron bir holatni o'zgartirilishini xohlaydi, u biron kimsadan yoki holatdan norozi bo'lishi mumkin, yoki biron-bir kamchiliyi to'ldirilishini so'raydi. Ushbu she'rda shoir Ollohga murojaat etib, uni turli xil yomonliklardan, salbiy oqibatlardan himoya qilishini, ya'ni panoh so'ramoqda. Uning freym tuzilishi quyidagicha:

### Iltijo (yadro)

Xudoga iltijo (markaziy daraja – slot)

Iltijoni qabul qiluvchi (periferiya – terminal): *Ey Xudo, Sohib hunar, Xoliko, Biru Borim, Parvardigor, Ey Xudoym*

Iltijoning maqsadi – Panoh so'ralayotgan narsalar (periferiya – terminal): *qayg'u, hayvon-odam, jahon zalvari, nafsi shayton, jahannam, nomard hurrami, munofiq, nozaninlar nozi*.

Freym – bu voqealar ketma-ketligini vaqt tartibida tavsiflovchi ma'lumotlar to'plami. Freym ko'pincha sahnalar chizmasi sifatida qaraladi (masalan, "savdo"). Freym tuzilishi olingen ma'lumotlarni insonga xos bo'lgan olam haqidagi amaliy bilimlar sohasi bilan o'zaro bog'lash orqali quriladi va shuning uchun freym insonning olam haqidagi bilimlarining "kvantidir".

Freym – bu xotirada saqlanadigan uyushmalar to'plami. Konsept-freym murakkab vaziyatni nazarda tutadi; uni "kadr" bilan taqqoslash mumkin, bu ma'lum bir holatlar to'plami uchun odatiy va zarur bo'lgan hamma narsani o'z ichiga oladi (masalan, "kasalxona" freymi). Freymlar nazariyasi nuqtayi nazaridan, inson ma'lum bir vaziyatga duch kelganda, xotiradan "tayyor" freymni chiqaradi, bu unga xulq-atvorning ma'lum bir standart modeliga muvofiq harakat qilishga imkon beradi.

Shunday qilib, freym – bu presupozitsion model, ya'ni inson agar so'z bilan ifodalangan voqelik haqida bilimga ega bo'lsa, ma'lum holat doirasidagi voqelik ketma-ketligi unga ayon bo'lsa, u yoki bu lisoniy tuzilmani freym sifatida qabul qila oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gruber J.S. Lexical, conceptual and encyclopedic meaning // Quaderni di semantica, 1985. Vol. VI, no. 2. – Pp. 254-267.
2. Алефиренко Н.Ф. Язык, познание и культура: Когнитивно-семиологическая синергетика слова: Монография. – Волгоград: Перемена, 2006. – 228 с.
3. Болдырев Н.Н. Значение и смысл с когнитивной точки зрения и проблема многозначности // Когнитивная семантика: Материалы Второй Междунар. шк. семинара по когнитивной лингвистике: В 2 ч. Ч. 1. – Тамбов: Изд-во Тамб. ун-та, 2000. – С. 11-17.
4. Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – 312 с.
5. Жарина О.А. «Концепт» vs «фрейм»: проблема дефиниции и соотношения понятий в современной когнитивной лингвистике // Балтийский гуманитарный журнал / Языкознание и литературоведение, 2017. – С. 43-47.
6. Завадский С.С. Структура матафтонимического мегафрейма / С.С. Завадский // Междунар конгресс по когнитивной лингвистике: Сб. материалов 26-28 сентября 2006 года / Отв. ред. Н.Н. Болдырев; Федеральное агентство по образованию, Тамб. гос. ун-т им. Г.Р. Державина. – Тамбов: Изд-во ТГУ им Г.Р. Державина, 2006. – С. 105-107.
7. Минский М. Структура для представления знаний // Психология машинного зрения. – М.: Мир, 1978. – С. 249-338.
8. Никонова Ж.В. Теория фреймов в аспекте лингвистических исследований, 2006 / Ж.В. Никонова // <http://evcppk.ru/article.php?id=26>
9. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. 76-bet.
10. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. 262-bet.

Gulnoza QURBONOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

## GIDRONIMLAR VA ULARNING NOMLANISH XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gidronimlarning ahamiyati va ularning tuzilish xususiyatlari haqida ma'lumotlar, olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ularning ilmiy xulosalari asosida tushuntirishlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** gidronim, toponim, suv obyektlari, tilshunoslik, xoronim, oykonim, dromonim, nekronim.

**Аннотация.** В данной статье приведены сведения о значении гидронимов и их структурных особенностях, об исследованиях, проведенных нашими учеными, и пояснения, основанные на их научных выводах.

**Ключевые слова:** гидроним, топоним, водоемы, лингвистика, хороним, ойконим, дромоним, некроним.

**Annotation.** This article provides information about the meaning of hydronyms and their structural features, about the research conducted by our scientists, and explanations based on their scientific findings.

**Keywords:** hydronym, toponym, reservoirs, linguistics, burial, oikonym, dromonym, necronym.

Koinotdag'i har bir obyektning nomi bor. Uning ma'nosi va mazmuniga qiziqish o'tmishda mavjud bo'lganligi ma'lum. Tarixiy yozma manbalarda odam, joy nomlarining kelib chiqishi, etnografiyasi, ma'nosi va etimologiyasi haqida ko'plab qiziqarli fikrlar mavjud.

Mashhur otlar tilshunoslik, geografiya va tarix fanlarining ajralmas qismidir. "Har bir nom, – deb yozgan edi T.Nafasov, – fakt, tarixiy voqe, geografiya, adresatdir". U muhim ijtimoiy-siyosiy funksiyani bajarib, yer usti obyektlari uchun belgi hisoblanadi. Toponomika

xalqlar va tillar o'tasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi ko'zgudir. O'tmishda toponimlar birinchi marta geograf va tarixchilar tomonidan o'rganilgan.

Tilshunos olimlar hozirda toponimlarni tizim si-fatida o'rganmoqdalar. Taniqli geograf H.Hasanov "geografiyaning bir tarmog'i – toponimika hozirgacha O'rta Osiyoda "kulrang" soha" [1] ekanligini ta'kidlagan yoki boshqa bir asarda "toponimika aslida geografiyaning bir sohasi bo'lib, u bilan uzviy bog'liqdir. Ham tilshunoslik, ham tarix. Toponimika tilshunoslik yoki tarixning bir tarmog'i, desak xato bo'lmaydi. Har bir olim toponimik taddiqotda o'z ixtisosligini afzal ko'radi" [2], deyilgan. Xulosa shuki, toponimika uch fan orasida hali to'liq o'rganimagan mustaqil fandir. Filologik jihatdan tahlili qiladigan bo'sak, toponimika – joyni o'rganish sohasi bo'lib, nomlar quyidagi turlarga bo'linadi: oronim (tog', tepalik, cho'qqi, dovon va b.), gidronim (okeanlar, daryolar, ko'llar, dengizlar, kanallar va b.), xoronim (cho'llar, qumlar, tabiiy joylar), oykonim (shahar, qishloq, mahalla va b.), ekklezonim (masjid, cherkov, monastir va b.), dromonim (yer osti, quruqlikdagi, suv osti va yer usti yo'llari), nekronim (maqbaralar, qabristonlar va shunga o'xshash muqaddas ziyoratgohlar).

Okean, dengiz, ko'l, soy, quduq – hammasi suv havzalari. Suvsiz hayot yo'q. Yerdagi birinchi hayot suv va okeanlardan paydo bo'lgan deb ishoniladi. Birinchi aholi punktlari suv atrofida paydo bo'lgan [2]. Toponimikaning suv havzalari nomlari, kelib chiqishi, nomlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi gidronimika deyiladi. Yer – xazina, suv – marvarid. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q. Suv – zar, suv – taqinchoq. Shu va shunga o'xshash mavzudagi maqollar xalqimiz orasida keng tarqalgan. Bu suvning naqadar qimmatli ekanligidan dalolatdir. Mamlakatimizda turli xil suv inshootlari mavjud. Har birining o'z nomi bor. Barcha suv havzalari gidronimlar deyiladi (yunoncha *gidro* – suv, *onim* – nom).

H.Hasanov ta'biri bilan aytganda, "nomlar joylarga shunday moslashtirilganki, mahalliy aholining aql-zakovatiga qoyil qolasiz. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism qo'yish oson. Yuzlab tayyor nomlar mavjud bo'lgani uchun siz faqat o'zingizga yoqqanini tanlashingiz mumkin. Lekin joy nomlari tayyor emas. Ular "o'ylab topilgan" bo'lishi kerak, ularning nomlari tanasiga mos kelishi kerak yoki "ismlar tarixi, tog'lar va suvlarning tabiatи, o'simlik va hayvonot dunyosi, savdo, xazinalar, urushlar haqida gapirishi kerak". Darhaqiqat, yurtimizdagi joy nomlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning har birida "tanasi o'xshash nom" bor [1]. Masalan, gidronimlar suvning xossalari qarab farqlanadi. Daryolar, ko'llar, buloqlar, quduqlar rangi, sho'rliги, tozaligi, chuqurligi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi. Yer osti va yer usti suvlardan hosil bo'lgan daryolar Qorasuv, Qoradaryo, tog'lardagi qor va muzdan suv oladigan daryolar ko'pincha Oqdaryo, tiniq

va musaffo ko'llar Oynako'l, Ko'kko'l, loyqa suvlar sho'r bo'lsa Sho'rko'l, Achchiqko'l deb ataladi. Farg'onadagi Tentaksoy va Surxondaryodagi Jinnidaryo daryosi oqimini o'zgartirib, qirg'oqlarini buzgan bahorgi toshqinlar tufayli shunday nomlangan.

Aslida Shohrudning quyisi qismi ("shaharga suv beradigan daryo") Jayhun [2] deb atalgan. Amudaryoning hozirgi nomi o'rta asrlardagi Omul (Omuy, Omuya) (hozirgi Chorjo'y) shahridan olinganligi aytildi. Shahar daryo nomi bilan atalishi mumkin. Akademik V.V.Bartold bu so'z oriy xalqidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin, deb faraz qiladi. Mahmud Koshg'ariyda har qanday sokin, barqaror, turg'un narsa "amul" deyiladi (Devonu lug'at-at turk, 2-jild, 104-bet) [3]. Sirdaryoning nomlari ko'p bo'lgan: qadimgi yunon tarixchilari asarlari, zardushtiyarning muqaddas kitobi "Avesto"da Jahartes (Yaksart), ba'zan Tanais, Danu, Yaosha, X asr "Hudud ul-olam" qo'lyozmasida Hashart, runik turkiy bitiklarda Yenchuo'g'uz, Firdavsiyning "Shohnoma"sida Gulzarriyun Sida va Hamdaloh, Qazviniyning "Nuzhat al-qulub" ("Qalblar borligi", 1339) asarida Sayxun, arablar kelganidan keyingi ko'plab yilnomalarda Hishart, Beruniyda Hasart deb tilga olingan. Shu bilan birga, qayerdan oqib o'tishiga qarab Obi Farg'ona (Farg'ona daryosi), O'zgan daryosi, Obi Xo'jand, Nahr ash-Shosh (Shosh yoki Choch daryosi), Banokat daryosi deb ataladi.

Gidronimlar qaysi so'z asosida tuzilganligi va nomlanish tamoyillarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Quyidagilar gidronimlarning nomlanishiga turtki bo'lgan omillardir:

1. Odam ismlari asosida hosil bo'lgan gidronimlar. Ko'pincha, bunday suv havzalari (ariq, quduq, buloq, kanal va h.k.)ning hosil bo'lishiga (qazilishiga) rahbarlik qilgan shaxs nomi bilan ataladi. Masalan, Nazarboyevquduq, Qosimbekquduq (Forish tumani), Omonbuloq, Mirzabuloq (G'allaorol tumani), Toshbekariq (Jizzax tumani) va b.

2. O'simlik va hayvon nomlaridan hosil bo'lgan gidronimlar, ya'ni suv havzalarining nomlanishi ma'lum bir o'simlik yoki hayvon nomidan kelib chiqadi. Masalan, O'riklisoy (Zomin tumani), Teraklisoy (Baxmal tumani), Qo'ybuloq, Ilonlisoy (Forish tumani) va b.

3. Yer qobig'ining ustki tuzilishi, tuproq tarkibiga ko'ra nomlangan gidronimlar. Bunday gidronimlarda *qum*, *tosh* so'zları ko'p uchraydi. Masalan, Sangzor (Baxmal tumani), Yoyilma (Jizzax tumani), Yonbuloq (Forish tumani), Gumsoy (G'allaorol tumani) va b.

4. Suvning rang xususiyatiga ko'ra nomlangan gidronimlar. Bu gidronimlarning nomlariда *oq*, *qora*, *ko'k*, *qizil* kabi ranglar ko'proq uchraydi. Masalan, Oqbuloq (Zarbdor tumani), Qorasoy (Jizzax tumani), Qorasuv (Baxmal tumani), Ko'kbuloq (Baxmal tumani), Qizilquduq (Forish tumani) va b.

5. Suvning harorati, hidi va ta'miga qarab atalgan gidronimlar. Bunday gidronimlarni ifodalash uchun

ko'pincha sovuq, issiq, iflos, achchiq, shirin, sho'r kabi so'zlar qo'llaniladi. Masalan, Issiqko'l (Forish tumani), Sovuqbuloq, Jilibuloq (Baxmal tumani), Muzbuloq (G'allaorol tumani), Sho'rquduq (Forish tumani), Sho'rcha (Zomin tumani), Sho'rbulog (Baxmal tumani), Sassiqbuloq (Forish tumani) va b.

6. Miqdori, hajmi va soniga qarab raqamlangan gidronimlar. Bu nomlar gidronimning miqdori, soni va ha-jmini bildirish uchun ishlataladi. Gidronimlar ko'pincha *ikki, besh, olti, qirq, yuz, ming, gala, qo'sh, to'da* so'zları

yordamida yasaladi. Masalan, Beshbuloq, Duoba (tojik, du – ikki...) [2].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gidronimlar hosil bo'lishi jihatidan boshqa toponimlarga qaraganda qa-dimiyroqdir. Ularning nomlari bir qancha joy nomlarining asosini tashkil qilgan. Ular haqida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud. Suv belgilari, daryo va ko'llarning nomlari, umuman, toponimlar tarixni eslatadi. Ularni an-glash, tahsil qilish, asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish bizning vazifamizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanov H. Geografik nomlar siri. – Toshkent: O'zbekiston, 1985.
2. Abdunazarova X. Gidronimlar va ularning nomlanish xususiyatlari (Jizzax viloyati misolida). – JDU, 2012.
3. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2002.
4. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва, 1974.
5. <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/131/109>

**Omila YULDASHEVA,**  
*Chirchik State Pedagogical University, Faculty of Foreign Languages*  
*and Literature, a 2nd year master's student;*  
**Umida NASIROVA,**  
*Uzbek State World Languages University, a supervisor, PhD*

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING DISCOURSE (SPOKEN COMMUNICATION) SKILL AMONG HIGH SCHOOL STUDENTS

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada og'zaki nutqni rivojlantirish strategiyalari, ayniqsa, talabalarning nutq qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliy usullari muhokama qilinadi. Umumta'lim maktab o'quvchilariga ingliz tilidan og'zaki muloqot qibiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan nazariyalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** muloqot, og'zaki nutq, instruktiv diskurs, monologik.

**Аннотация.** В статье обсуждаются стратегии продвижения устной речи, особенно, речевых способностей учащихся. Предлагаются теории, которые пытаются помочь учащимся средних школ развить свои способности устного общения на английском языке.

**Ключевые слова:** коммуникация, устная речь, инструктивный дискурс, монологический.

**Annotation.** The article discusses strategies for promoting oral speech, particularly students' speaking talents, and offers theories that attempt to help secondary school students develop their oral communication abilities in English.

**Keywords:** communication, oral speech, instructive discourse, monologic.

Humans are social beings who constantly engage and communicate with one another. Consequently, it is critical to provide contexts for authentic language interactions between pupils. Martin Bygate [4] presents a justification for this theory. "Our kids frequently need to talk with confidence in order to carry out their most fundamental tasks. They place the most weight on it, and their relationships with others depend on it".

Since the goal of speech education is to act as a tool for communication, the issue of developing students' oral speech is becoming more and more significant by the senior stage of the comprehensive school. The objective of a modern school is to develop students' multicultural personalities, which requires that they learn

enough about a foreign language to be able to converse freely in it as well as to understand it.

"In the science of modern methodology, the formation of the ability to create one's own oral speech in monologic and dialogic forms is defined as the main goal of teaching a foreign language and is expressed through the concept of a foreign language", claimed A.V.Semenova [3: 102].

Communication skills are considered to have a very complicated multi-component structure. Because it calls for the incorporation of language, speech, and communicative competences, oral communication demands a lot of time and work from the student in order to be a successful process. It should be a crucial

component of every class as a form of communication action (V.A. Arshinov [1]).

The primary objective of teaching students a foreign language is to have them possess the fundamental speech structures that correspond to the knowledge threshold level per the pan-European scale of language competence. Speech instruction centers on subjects that speak to the interests and requirements of upper-level secondary students.

To promote student engagement, it is critical to foster a favourable environment. They feel free to share their ideas, emotions, and opinions in such a setting without worrying about making a mistake. Also, students are competent in communicating tasks.

The implementation of student communication requires consideration of a number of special speech activity characteristics, such as motivation, purposefulness, activity, link to the person's personality and mental activity, heuristics, independence, tempo, and situationality.

Many English teachers face the problem of "silence of students" in the lessons of the development of speaking skills. To avoid this, contemporary pedagogical technologies advocate for altering the educational environment such that the teacher, rather than serving as the "undisputed authority", becomes a receptive and engaged interlocutor and collaborator in the learning process.

A branch of study centered on the psychology of interpersonal connections and interactions is an interactive learning environment. Such instruction is regarded as a collaborative learning process in which information is acquired through dialogue and polylogue during a shared activity (A.N. Bezrukaya [2]).

S.B. Suvorova [5] offers a unique classification of interactive teaching methods based on communicative functions. In this classification, all methods are divided into three groups:

- 1) discussion (dialogue, group discussion, analysis and analysis of life situations);
- 2) game (didactic games, business games, role-playing games, organizational and activity methods);
- 3) psychological group of interactive methods (sensitive and communicative training, empathy).

In order to teach interactive engagement in English language lessons, real-world learning materials must

be used, which facilitates natural dialogue in the language being studied in a well-organized setting. It is vital to remove the restriction of working with projects in which students must envision themselves in any setting in order to generate situations of interactive contact. Tasks, on the other hand, have a purpose and mention the necessity for interactive participation in their content. Such jobs cannot be completed independently because of the way they are designed.

Discourse (spoken speech) does not have a clear, accepted definition that applies to all usage scenarios, which may be why the term has gained so much popularity in recent years.

The idea of discourse has been widely applied in Western European linguistics since the middle of the 1970s. After some consideration, the word's original meaning of "logical reasoning" changed to "conversation". The theory of oral instructional discourse, which directs the examination of oral "live" instructional discourse, is actively growing at this time due to the influence of American and English linguistics, and instructional discourse is defined by conversation. Moreover, the Anglo-American linguistic heritage contributes to the development of instructional discourse analysis, which is defined as the examination of both oral and written instructional discourse with an emphasis on the interaction between the message sender and recipient.

Normative shifts in the educational discourse of English and Uzbek texts of oral and written speech illustrate the connection between language and speech self-regulation mechanisms and changes in social reality. Each modification to oral communication alone has an impact on written speech. In the instructional discourse speech, the participants become the representative of a certain social group who are communicative and perform certain communicative roles.

In conclusion, we can say that speech is widely recognized as the primary form of oral communication. The goal of speech instruction in the classroom is to improve students' ability to communicate in a variety of settings. We may claim that a student is interested in the science of "foreign language" if he or she enjoys speaking, reading, listening to speeches in it, and learning new things. In this case, the conditions have been set up for success.

### References

1. Arshinov V.A. Educational philosophy and synergetic: How can synergetic contribute to a new model of education? Electronic resource.
2. Bezrukaya A.N. A historical and linguistic overview of the phenomenon of linguistic variation // Innovative technologies in teaching a foreign language in the school-secondary school system: Inter-university. Saturday. scientific method. tr. – Tver: Tver State Publishing House, 2018. – Ed. 3. – 79 p.
3. Semenova A.V. Educational clusters and innovative education at the university. Monograph. – Kazan: School, 2010. – 102 p.
4. Bygate M. Speaking. – Oxford University Press, 1987.
5. Suvorova S.B. Interactive training for new approaches, 2015.

Saida GAZIEVA,  
Chirchik State Pedagogical Institute, Faculty of Tourism,  
English Language Department

## OVERCOMING DYSLEXIC OBSTACLE IN TEACHING ENGLISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada disleksiyaning sabablari va toifalari tushuntirilgan. Disleksiyasi bo'lgan o'quvchilar diqqatini o'rganishga qanday qaratish kerakligi aytildi.

**Kalit so'zlar:** disleksiya, diskaliya, disgrafiya, o'qish, nevrologik, aqliy rivojlanish, vizuomotor.

**Аннотация.** В этой статье объясняются причины и категории дислексии. Учащимся с дислексией указываются, как сосредоточиться на учебе.

**Ключевые слова:** дислексия, дискалия, дисграфия, чтение, неврологическое, психическое развитие, зрительно-моторный.

**Annotation.** In this article, the reasons and categories of dyslexia are explained. Learners with dyslexia are told how to concentrate on learning.

**Keywords:** dyslexia, dyscalis, dysgraphia, reading, neurological, mental development, visual-motor.

Dyslexia is a learning disorder that manifests itself with serious difficulties in acquiring and using listening, speaking, reading, writing, reasoning, and mathematical skills. Children with dyslexia who have begun primary school have difficulty understanding reading, writing, and mathematical operations because their mental development has not yet reached its full potential. However, this does not indicate problems with their level of intelligence. It is also found in children with very high levels of intelligence. Scientists and artists known to have dyslexia include Albert Einstein, Leonardo da Vinci, and Tom Cruise. Attention deficit disorder can also be found in children with dyslexia. Therefore, these children should be taught in the center of attention on a regular basis by a specialist.

Dyslexia is defined as a loss of reading ability, mental retardation, brain disease, normal and insufficient information, normal IQ, and an acceptable socio-cultural context. This issue could be due to central nervous system perceptual integration abnormalities (difficulty identifying words, difficulty placing words in the correct order in a phrase, language difficulties in the form of phonetic-audiovisual integration), or visual-motor dysfunction.

Dyslexia is classified into two types: dyslexia caused by congenital development and dyslexia caused by trauma. Congenital dyslexia is classified into three kinds based on issues before, during, and after birth. Prenatal dyslexia can occur through inadequate and unbalanced diet, infections during pregnancy, and conscious drug use. Dyslexia can occur due to hereditary factors. The major challenge with children with dyslexia is detecting dyslexia rather than treating it. Because dyslexia, like other learning problems, is a dormant condition that cannot be recognized at first glance. Therefore, it can be difficult to recognize this before a youngster joins school. Dyslexia is frequently felt in childhood, at the beginning of reading. Difficulties

in developmental learning are most common in the early years of school, but bright children can compensate for and conceal these difficulties until the age of 9-10. Therefore, dyslexia in bright children occurs later than in normal children. However, the symptoms begin to manifest themselves earlier. Delays and difficulties in differentiating right and left and learning the clock according to its peers, recognizing money, or reversing numbers in locations.

According to the DSM-IV [1: 4], the American Psychiatric Association's Guide to the Diagnosis and Statistics of Mental Illness, people with developmental disabilities are grouped into three subgroups. The first subgroup includes students not reading, math disorder, and writing disorder. Stuttering is classified as expressive language disorder, receptive and expressive mixed language disorder, phonological disorder (articulation problem), and communication disorder in the second subgroup. The third subgroup consists of a violation of motor coordination masquerading as a violation of motor skills.

Dyslexia is also described as a reading disorder. According to this definition, the characteristics of children can be listed as follows: children with dyslexia can confuse concepts from right to left, from top to bottom, before and after. They may have difficulty distinguishing right and left. Most people have a mixed or left-handed hand-foot-eye predominance. They have difficulty distinguishing similar letters (e.g. b / d or p / b) and can use them with each other. They cannot distinguish similar sounds (such as f / v b / m) and use them with each other.

They may read or write synonyms or words from the semantic category. They may miss several letters in the word (e.g., "praise" instead of "money"). They can change the order of priority after the letters. Similarly, they can also omit syllables in words. They can modify the order of the joints. They may omit the lines while

reading. They are unable to distinguish between words when writing. They can write in a form dubbed a "mirror image," meaning that letters and the full word can be written from right to left by rotating it 180 degrees, similar to the text we know when this article is held in a mirror. They may have problems using punctuation. They may have difficulty understanding the general line of the text. They may have difficulty explaining what they read. They have a limited attention span and cry easily. There are issues with concentration. Their social development is sluggish; they do not get along well with friends.

They have difficulty separating the space in the form. Visual and auditory and motor abilities may develop. Their short-term memory (vision or hearing) is impaired. They can sometimes do math only in their heads, but they can't write. They are unable to discern between the years, days, and seasons. They forget the place of their books, they lose their belongings. They fail to complete their homework. Parents are frequently cautioned about these issues, and children are sometimes accused of lying. Friendship relationships are frequently problematic. Children with dyslexia have specific characteristics and may or may not exhibit all of these symptoms depending on the type of dyslexia. Dyslexia may be accompanied with difficulties learning mathematics (discalisis) and other learning abilities (e.g., writing difficulties – dysgraphia).

Children diagnosed with dyslexia should be assisted as much as possible during education. The problem is that the child is supported by special education services in their field and succeeds in a normal classroom setting. At this stage, the family's task is to ensure the self-confidence of the child who is shaken by the difficulty. The child needs to make sure that the problem is not his fault and that he has strengths.

Dyslexia is neurological in origin and is visible in young kids who are thoroughly absorbed in the subject. It is almost impossible to diagnose dyslexia in preschool children because children are just beginning to learn new skills and may make mistakes in reading and writing.

The main symptoms of dyslexia in children:

- systematic reading errors, such as mispronunciation of letters, syllable changes, sound changes, and misunderstanding of what is read;
- incorrect letter-to-sound translation (decoding information);
- inability to accurately and swiftly recognize words;
- basic spelling skills are difficult to grasp.

Dyslexia also has the following problems: how dyslexia emerges in children: indications and symptoms.

The actual causes of this illness remain unknown to science. Nevertheless, doctors attribute this problem to hereditary predisposition, damage to certain areas of the brain, as well as intrauterine development of the

child. The following factors contribute to the development of dyslexia:

- viral and infectious diseases in pregnant women;
- toxic lesions of the central nervous system during intrauterine development;
- umbilical cord confusion or premature placental abruption;
- foetal asphyxia;
- premature birth;
- brain damage during difficult childbirth;
- a lack of social and everyday factors and related speech development.

It is difficult to indicate the top and bottom of the youngster, complicating the notion of right and left.

Dr. R. Davis, who developed his own dyslexia treatment system, successfully overcame the disease. Dylexics, according to the doctor, are gifted individuals with a vivid imagination. The illness has also been noted in Albert Einstein, Walt Disney, Winston Churchill, and many more luminaries who have attained success despite dyslexia. In his book "The Gift of Dyslexia", Ron Davis describes the disease in this manner. What is its approach? The technique's essence is to assist the child in activating his brain by disabling disorientation and learning to perceive the world around him without disruption. This method helps children fill in memory gaps and teaches them about letter shapes. The R. Davis method helps children overcome dyslexia in 99% of cases.

The essence of the technique: help the child to activate his brain by disabling disorientation and learn to perceive the world around him without disruption. This method helps children fill in the gaps in memory and teaches them to understand letter shapes. In 99% of cases, the R. Davis method helps children get rid of dyslexia.

The technique consists of complex procedures that help the child overcome dyslexia. Give your child any text for 5 minutes each day and ask him or her to cut out the letters you named. First, the consonants "a, o, etc." Then there are consonant sounds. When the youngster has clearly cut out the letters you want, complicate the work by suggesting that vowel sounds be enclosed in a circle (any name) and consonants be highlighted. Pay attention to the consonants and vowels that are most challenging for the kid. This exercise will help your child memorize the letters and prevent them from making future reading and writing errors. This should be done every day for 2 months.

Dyslexia - problems with reading ability - is not as common as it seems. True dyslexia is neurological in nature, and what we encounter is, as a rule, caused by the fact that it is not uncommon to read something at home. As I said, 99 percent of children today suffer from not lighting a fire. And if they've never seen their parents light a fire, where do they get that ability? And if

they don't see their parents with a book in their hands, where does their ability to read come from?

Most celebrities (not just Hollywood stars) spend half of their childhood leaning in front of a mirror instead of holding a book in their hands, and then giving interviews complaining about the hardships of life. Conclusion: There are many cases of dyslexia, but in most cases it is a pedagogical problem, not a medical one (pediatrician E.O. Komarovsky).

Prevention of dyslexia is how to teach your child to read properly. To reduce the risk of dyslexia in a child and to engage him in special exercises aimed at mastering the norms of literate speech and writing from an early age. Prevention of dyslexia should be based on learning games, not 45-minute special lessons.

Games contribute to children's mental development, as well as help them think, analyze, and act. In the early stages of learning, it is important for children to show as many images as possible: letters, animals, words. It is easier for them to receive information visually. All of

these images are stored in memory and will not have problems like dyslexia in the future. Even in kindergarten, children are constantly provided with information in the form of pictures and color cards.

Dyslexia is a specific reading disorder characterized by inability to recognize words correctly and quickly. The disease is neurological in nature and is characterized by difficulties in reproducing, and comprehending the information read. However, despite the superficial resemblance, dyslexia is not the result of mental impairment. The disease is not associated with hearing and vision impairment. Reading mistakes and omissions in children with dyslexia can be corrected using the approaches and procedures indicated above. Not all of these methods are effective for all children, but it is critical to first determine which method works best for them. In conclusion, it should be mentioned that dyslexia should not be regarded an illness, and all children have the ability to get rid of it over time.

#### References

1. Guide to the diagnosis and statistics of mental illness. Fourth edition.
2. Kornev A.N. Dyslexia and dysgraphia in children.
4. Disleksiya haqida ma'lumot // [www.disleksi.org](http://www.disleksi.org)
5. Irmak, Olcay; Yazgünoğlu, Jasmin. Disleksiya (o'rganish buzilishi) // [www.bilkent.edu.t](http://www.bilkent.edu.t)
6. Maxsus o'rganish qiyinligi // Indigo jurnali, 2007, 23.
7. Turkan Töney. Aynan qanday disleksiya // Fan va texnologiyalar jurnali, 2002.
8. Turgunovna G.S. Reading is the receptive side of writing // Academic Research in Educational Sciences. 2 (5), 1564-1570.

Anvarova Mohinu,  
II kurs magistrant Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti

## BAHODIR QOBULNING “ENA SHAMOL” VA “OTACHIROQ” HIKOYALARIDAGI AYRIM CHEGARALANGAN LEKSIKAGA OID SO‘ZLARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada asarda qo'llanilgan tarixiy va arxaik so'zlarning asar badiiyatida qanday ruhiy xarakter aks etgani, so'zlar tarixiy vaziyat yoki personaj maqsadi uchun xizmat qilayotganligini aniqlashga doir fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** chegaralangan leksika, tarixiy so'z, arxaik so'z, nutqiylar maqsad, badiiyatda ruhiy xarakter, pragmatik maqsad, xalqchilik, estetik zavq.

Аннотация. Данной статье представлены идеи о том, как духовный характер исторических и архаичных слов, используемых в произведении, отражается в искусстве произведения, служат ли слова историческому моменту или цели персонажа

Ключевые слова: ограниченная лексика, историческое слово, архаичное слово, речевое назначение, духовный характер в искусстве, pragmaticальное назначение, народник, эстетическое наслаждение

**Annotation.** This article presents ideas on how the spiritual character of the historical and archaic words used in the work is reflected in the art of the work, whether the words serve for the historical moment or the purpose of the character.

**Key words:** limited lexicon, historical word, archaic word, speech purpose, spiritual character in art, pragmatic purpose, folkism, aesthetic pleasure.

Til jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri bilan uzviy ravishda rivojlanib borar ekan, uning amaliy jihatni tilning lug'at tarkibida o'z in'ikosini topadi. Jamiyatning muttasil ravishda rivojlanib borishi tilning leksik qatlamidagi ayrim so'z va tushunchalarning iste'mol doirasidan chiqib ketishiga turki bo'ladi, shu bilan bir qatorda tilning lug'at tarkibiga yangi so'zlar kirib keladi [3, 7].

So'z san'atkorlari badiiy matnga badiiy-estetik ruh bag'ishlashda, asar badiiyatini ta'minlashda muhim mezonlardan biri sanalgan eskirgan so'zlardan xalqchilikni ta'minlash, qolaversa, emotsiyonal-ekspressivlikni yuzaga chiqarishda uslubiy vosita sifatida foydalanadilar.

Bizga ma'lumki, tarixiy so'zlar badiiy matnda tarixiy davrni haqqoniy tasvirlash zaruriyatidan kelib chiqib qo'llaniladi. Arxaik so'zlar esa, uslubiy vosita sifatida badiiy matnga badiiylikni ta'minlash bilan birgalikda asarga ko'tarinki, tantanavor ruh bag'ishlab, ifoda-ta'sirchanglikni yuzaga chiqaruvchi estetik vazifani bajarib keladi.

**Tarixiy so'zlar.** Bahodir Qobul tarixiy qatlamga oid leksik birlıklardan hikoyalari ("Ena shamol" to'plamidagi "Ena shamol", "Oqdala", "O'spirinlik" qissalari. (qo'shimcha manba yozuvchining "Otachiroq" to'plamidan "Otachiroq" hikoyasi) tilining badiiyatini ta'minlashda chuqur mulohaza va mahorat bilan foydalanigan. Chunonchi, badiiylik asarda hayotning nechog'ilik haqqiqatga yaqin aks ettirilgani, xalq qalbiga yaqinligi, shakli va mazmuni birligiga erishilishdagi mahorati bilan belgilab beriladi.

Bahodir Qobulning yuqorida keltirilgan hikoyalari aynan tarixiy mavzuga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, biz undagi shu xususiyatlarni ochishga intildik. Ayni vaqtida qalami serqirra ijodkorlardan bo'lmish Abdulla Qahhor ijodi bilan (uning aynan tarixiy mazvuga oid bo'lgan bir qator hikoyalari orqali) ba'zi qiyosiylar tahlillarni olib borishga va bunda Bahodir Qobul ijodidagi tarixiy momentga ishoraviy yondashuvlarni aniqlashga urindik. Bu borada adibning mahoratini taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinov shunday baholaydi "Tarixiy asar yaratishga intilmagan holda xalq hayotining tarixan haqqoniy manzarasini chizish-Abdulla Qahhor ijodining muhim xususiyatidir" [4, 8].

Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Dahshat", "Bemor" hikoyalari tarixiy qatlamga oid leksik birlıklarning ulushi anchayin keng. Yozuvchi tarixiy so'z(istorizm) lardan tarixiy voqe-a-hodisalarining haqqoniy (real) tasvirini yaratish, badiiy asarga tarixiy ruh berishda o'rinni va maqsadga muvofiq foydalangan, Adib hikoyalariagi *dodxo*, *qozi*, *ellikkoshi*, *mingboshi*, *amin* kabi tarixiy so'zlar ijtimoiy nufuz, unvon, mansab semasini ifodalovchi leksik-semantik guruhni tashkil etadi [3, 9].

Bahodir Qobul hiloyalarida tarixiy so'zlardan foydalanar ekan, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalashda, eski xotiralarni o'sha zamon ruhi bilan yodga olib, o'quvchida ham shu kayfiyatni uyg'otishni maqsad qiladi. To'g'ri, ijodkor asosan zamonaviy va erkin ijod

blan shug'ullangani uchun Bahodir Qobul hikoyalardagi tarixiy so'zlarning semantik ta'sir doirasasi tarixiy romanlar ustasi Oybekning yoki G'afur G'ulomning tarixiy asrlaridan ancha farq qiladi.

Ma'lumki, har qanday so'zning ma'nno qirralari, qo'llanilish uslubi badiiy matn doirasida yozuvchi shaxsiyatiga xos bo'lgan pragmatik maqsadlarni yuzaga chiqarish bilan namayon bo'ladi. So'zni qanday va qay maqsadda qo'llash, albatta yozuvchi uslubiga xos [3, 12].

Kuzatishlar natijasida Bahodir Qobulning yuqoridagi hikoyalarda kelgan tarixiy so'zlarning arxaizmlarga xos stilistik vazifada kelishiga guvoh bo'ldik. Bu esa, Bahodir Qobulning Oybek, G'afur G'ulomdan ko'ra farqli ravishda, tarixiy so'zlardan foydalanishdagi o'ziga xos mahoratni belgilaydi. Masalan, yozuvchining "Ena shamol" qissasidagi va "Otachiroq" hikoyalardagi (yozuvchi tomonidan "bitik" tarzida qo'llanilganligini ta'kidlash ayni muddao) qalandarxona, *musofirxonan*, *karvonsaroy*, *olampanoh*, *qozi*, *mudarris*, *sulton*, *qabza mavlono*, *pochchoiq*, *madrasa*, *rasadxona* kabi tarixiy so'zlar bir qarashda asarga o'tmish ma'nosini bera olmagan bo'lsa-da, ammo baribir ular tarixiylik bo'yog'ini yo'qotmaydi. Ayni so'zlar ishtrokidagi jumlalar orqali tarixiy moment tilga olinadi va jarayon gavdalantiriladi.

"Ena shamol" hikoyasida keltirilgan quyidagi misoga e'tibor qarataylik:

*Bunga Enamning Samarqandni ko'rмаган bo'lsalar ham, Katta Otamning bu shaharda о'qиганлари, унинг har bir g'ордан tortib buloqlarigacha, har bir qirdan soyigacha, machit-u madrasasi, avliyolarga liq to'la qabristonlari, qalandarxonalar, karvonsaroylari, musofirxonalar, ikki arava sig'maydigan tor-u tang ko'chasi-yu, burumigacha erinmay aytib bergenlaridan bo'lsa kerak, Samarqand deyilsa, sergak tortadilar* [1, 14].

*Qachon kostyum-shim kiyishimni so'raganimda Enam: "Shuyam gap bo'ptimi, balajon. Hali beklarbegi beklab chaqirmas, chin poshsholar elchilab so'ramas, shohlar to'n yopmas ekan, kelganim yolg'on,-deganlar. – Bekligiyam, poshsholigiyam. Men hali bolaman. Bunaqa gaplarni tushunmayman* [1, 15].

– Buguncha endi *mudarrislik* qilmay turing, Mirzoiy deb kenadilar. Indamay turganimdan jahli chiqib, baqirib ketdi

[1, 15]. Bahodir Qobulning "Ena shamol" qissasidan olin-gan misolda esa tarixiy so'z badiiy matnda nominativ ma'no bilan bir qatorda yozuvchi shaxsiyatiga xos illo-kutiv pragmatik maqsadni yuzaga chiqaruvchi uslubiy vosita sifatida qo'llangan. Bu yerda yozuvchi qahramonning opasi tilida tarixiy so'zni qo'llash orqali badiiy matnga ekspressivlik olib kirgan. Yozuvchi yigitcha o'z yutug'idan faxrlanish holatini yuzaga keltirish uchun amalga oshirgan harakatini opa tomonidan chippakka chiqarish va bu orqali uni kesatiq so'z bilan "siylashi" jarayonini keltirib chiqarmoqda. Kesatiq so'z sifatida esa tarixiy qatlamga oid leksikadan foydalanimoqda.

Ammo asardagi tarixiy leksikalar faqat ma'lum pragmatik maqsad uchungina qo'llanilib o'zining asl ma'noviy qiymati va momentidan ayri tushgan deyish ham noo'rin. Misol uchun, "Bir qo'lida qalqon, bir qo'lida qilich, bir qo'l oq, bir qo'l qaro, bir yelkasi yo'l, bir yelkasi o'r, bir oyog'i johda, bir oyog'i chohda, birovga yaxshi, birovga yomon ko'rinish o'tgan, bir qo'lting'i sodiq, bir qo'lting'i xoin, izi sirga to'la bolaginasining, oti aytilsa dunyo oyoqqa turadigan bolasining kuch-qudratiyam Yaratganning sovuqqinasi oldida hech narsa emasligini eslarkan epkinlarga oqligini yuvib quritgani yarim kun, yarim tun, yarim issiq, yarmi sovuq kunning doriga osadi [1, 199].

Bahodir Qobulning keltirilgan asrlaridan olingan *musofirxona*, *raykom*, *melisa*, *pioneer* kabi arxaik so'zlar davr ruhini haqqoniy tasvirlashda, badiiy matniga o'tmish ruhiyatini berishda asosiy vazifani bajargan.

Ular bugungi kunda mehmonxona, kabi ekvivalentlari bor.

Ma'lumkin, "arxaik so'zlar nutqqa kinoya, piching, mazax-masxara ruhi va xajv ottenkasini berish uchun ham ishlatalidi"[5, 51].

*Buguncha endi mudarrislik qilmay turing, Mirzoiy, - deb kenadilar* [1, 21].

Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda ishlataligan "mirzoiy" so'zi kinoya va piching sifatida tushuniladi. Bu yerda qahramonning opasi uning harakatlaridan asbiylashadi va shu tarzda unga ishi yoqmayotganligini ifodalamoqchi bo'ladi.

Umuman olganda, berilgan asarda tarixiy va arxaik so'zlarning qo'llanilishi asar badiiyatini ko'taradi, personajlarning ayni vaqtidagi kechinmalarini yanada jozibador qilib ko'rsatishga xizmat qiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Bahodir Qobul. Ena shamol. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
2. Каримов С. Ўзбек тилининг балийи услуби. Самарқанд, 1992. – 140 б.
3. Хасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Фил. фан. ном. автореф. 2010. – 26 б.
4. Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари // Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. I том. – Тошкент, 1967. – Б. 8.
5. Шомақсұдов А., Расулов И., Құнғұров Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Үқитувчи, 1983. – 248 б.

#### Hamroyeva Nozima,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

## XURSHID DAVRONNING POETIK USLUBI

**Annotatsiya.** She'riyat tuyg'ular gulshanidir. Biz Xurshid Davronning Vatan, tabiat, jamiyat, sadoqat, ishq haqidagi she'rlarini o'qiganimizda qalbimiz shu gulshandan taralgan nafosat ifori bilan to'yinganday bo'ladi. Boisi, Xurshid Davron obraz yaratishda o'ziga xos uslubga ega. Shoir o'z she'rlarini nafis tashbehtar bilan bezatib, ularغا o'zgacha sayqal berishga astoydil harakat qiladi. Lirik qahramonning ruhiy olamini noyob poetik topilmalar va tasvir vositalari yordamida ifodalaydi.

**Key words:** poetik obraz, poetik topilma, tasvir vositalari, falsafiy ohang, sintez, adabiyotshunos;

Xurshid Davron (asl ismi: Davronov Xurshid, 1952-yil 20-yanvarda Samarqand shahri yaqinidagi Chordara qishlog'ida tug'ilgan) — o'zbek shoiri, dramaturgi, tarixchisi, yozuvchisi va tarjimon. O'zbekiston xalq shoiri (1999). Adabiyot sohasida beriladigan Mahmud Koshg'ariy nomidagi Xalqaro mukofot (1989), Xalqaro „Oltin qalam“ mukofoti (2009), Ozarbayjonning „Mikoyil Mushfiq“ mukofoti (2013) bilan taqdirlangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati (2000). „Do'stlik“ ordeni bilan mukofotlangan (1997).

Shoir nazarida dunyodagi eng yorug' maskan, "ona kabi tabarruk, ulug'" go'sha bu Vatandir. Shuning uchun ham shoir Vatanini jonidan ortiq sevadi. Uning uchun

har narsaga tayyor. Mana shu tarzda Xurshid Davron she'riyatida Vatan bir ulkan poetik obraz, muqaddas go'sha, ulug' sajdagoh sifatida bo'y ko'rsatdi.

Samarqand – za'faron tiramoh,

Buxoro – qirmizi saraton.

Tosh shahri – sovigan qahrabo,

Turkiston... Turkiston... Turkiston...

Xiva "Xayr" kalomi. Sukunat,

Sahroda yangragan qo'ng'iroq.

Qo'qon – bog'. Vatan deb jon bergen

Yigitlar qonini ichgan bog'.

Shahrisabz kabutar patidir,

Zangori ranglarga bo'yalgan.

Termiz – ko'r xattotning xatidir,  
Zamonlar zarbidan tuyilgan.  
*Boburning ko'zyoshi – Andijon,*  
*Marg'ilon – ming yoshli qizaloq.*  
*Turkiston... Turkiston... Turkiston...*  
*Dashtdag'i qon rangli qizg'aldoq.*

Xurshid Davronning boshqa hech kimga o'xshaman gan o'z mavzusi, o'ziga xos falsafiy ohangi, faqat u aytishi mumkin so'zi bor.

Xurshid Davronning adabiy-estetik qarashlarini o'zida jam etgan adabiy-tanqidiy, ilmiy, publisistik ishlarini quyidagi uch guruhga ajratib o'rganish mumkin.

1. Adabiy-tanqidiy maqolalar, suhbatlar.

2. Tarixiy-ma'rifiy badilar.

3. Publisistik lavhalar, maqolalar

X.Davron insonni idrok etish va his etishga undashi, o'rgatishi, inson ma'nnaviy dunyosi chegaralarini tobora kengaytirishi, insondagi estetik qarashlarni tarbiyalashi jihatidan kelib chiqib, she'riyatga yurakning poklanish vositasi deb qaraydi. "Oybek she'riyati xuddi shunday asl she'riyatdir. Haqiqiy shoirning istagi va talablari hamisha xalqning istak va talablari bilan hamnafas. Shoir o'z asarlarida bu istak va talablarni o'zining yurak tuyg'ulariga emakdosh qilib singdirmog'i lozim".

Xurshid Davron she'riyatida tabiat manzaralarining jamiyat hodisotlari bilan uyg'unlashib ketganligi, tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylantirish jarayonlari, poetik fikr va hissiyotlar gammasing yaxlitlik kasb et-

ganligi uning poetik uslubida peyzaj va ijtimoiy lirikaning mavqeini oshirganligi bilan o'zgachalik kasb etadi;

Xurshid Davron lirikasida jahon she'riyatining tank, xokku, terset kabi she'r shakllarini sintezlashtirganligi, milliy she'riyatning Cho'lpon, Oybek, Rauf Parfi kabi namoyondalarining musallas she'r kompozisiyasini tuzishdagi lokanizmi, ramziylikka asoslangan obraziligi, peyzaj yaratish uslubi, falsafiy tafakkur tarzi an'analariga izdoshligi kabi o'ziga xos hodisalarga boyligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi ;

Xurshid Davronning vogelikning poetik idrok etishdagi she'r kompozisiyasi, lafzly va ma'nnaviy ifoda tasvir vositalari, poetik sintaksis, vazn va qofiya, ritm va ohang ustida ishslashdagi adabiy mahorati har bir asarida yaqqol ko'zga tashlanadi;

Shoirning lirika, she'rlar hamda rivoyatlar turkumi, esse, tarixiy badia, sonet, doston janrlariga hamda masnaviy, musallas, murabba, aralash vazn kabi she'r shakllariga mansub asarlarining badiiyatini yanda chuqurroq o'rganish har bir adabiyotshunos uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, adibning adabiy-estetik qarashlarini hayot, adabiyot, shoir va she'riyat, jamiyat oldidagi burch, ijod mas'uliyati, o'tmish saboqlari, tarixdan o'rganish, buyuk shaxslar hayotidan ibrat olish, Vatan oldidagi qarzdorlik hissi, o'zligimizni anglash, qadriyatlarga sodiqlik kabi ko'rkm mulohazalarning sintezi tashkil etadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Даврон X. Тўмариснинг кўзлари. – Т.: Ёш гвардия, 1984. – Б.84.
2. <http://kh-davron.uz/ijod/adib/baxtiyor-nazarov-yuragimning-derazalari.html>
3. Даврон X. Баҳордан бир кун олдин. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.15.
4. Даврон X. Болаликнинг овози. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986. – Б. 141.

#### Mamirova Dilnoza,

*Samarqand davlat chet tillar instituti dotsent v.b.,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

## ADRESANT-ADRESAT MUNOSABATIGA KO'RA REKLAMALAR TASNIFI

**Annotatsiya.** Sotsiolingvistik jihatdan reklama matnlari jamiyat a'zolariga har tamonlama bog'liq bo'lib, ulaming ehtiyojlari dan kelib chiqqan holda davrlar o'tgan sari takomillashib boraveradi. Ushbu maqolada keyingi yillarda reklama matnlari tarkibi da hosil bo'lgan yangi atamalar va birkimlar haqida va shaxs nutqida ularning qanday voqeylanishi kabilar tahviliga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** adresant, adresat, sotsiolingvistika, nutqning ixtisoslashishi, ifoda plani

Sosiolingvistik tadqiqotlarda nutqiy muloqot muhitidagi kommunikatsiya ishtirokchilarining emotsiyonal holati, muhim ma'lumotni anglashga xizmat qiladigan komponentlarning ekspressiv yo'nalganligi, adresant yoki adresat nutqining o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Mazkur masala xususidagi qarashlar o'zbek tili materiallari asosida amalga oshirilgan tadqiqotlarda

ham o'z ifodasini topgan. Ularda adresant yoki adresat nutqining yosh, jins va hududga ko'ra xoslanishi, ayollar va erkaklar nutqi o'rtasidagi tafovutlar, keksalar va yoshlardan munosabati kabi masalalar yoritiladi[1; 127]. Reklama matnlarida mahsulotni tanlashning eng maqbul yo'llini ko'rsatish adresantning vazifasidir. Bir mahsulot sotuvchilarning hammasida uchrashi mum-

kin, lekin uning eng afzal tarafini, boshqa firmalarda uchramaydigan jihatlarini «eng», «juda» so'zlari bilan bo'rttirmagan holda (agar shunday bo'lsa ham isboti bilan) ko'satib berish adresantdan talab qilinadi. Demak, reklamaning vazifasi tez va ko'p sotish ekan, adresant bu muammoni yechuvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Bu borada adresantning birlamchi vazifasi hayotiy tajribalar, millat, kasb, jins, oilaviy ahvol, qiziqish kabilarni o'zida mujassamlashtirgan so'zlardan foydalanishdan iborat bo'ladi. Keyingi yillarda zamonaviy vizual reklama vositalari ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Ulardagi turli ko'rinishda ifodalangan so'z, so'z birikmasi va qis-qartma so'zlardan oqilona foydalana olish ham adresantning zimmasidadir. Hayotdagи har qanday yangilik, yangi paydo bo'lgan buyum, hodisa, munosabat hamda ixtiro o'ziga xos yangi atama – neologizm orqali ifoda qilinadi. «Neologizm – (yun. neos+logos) yangi so'z demakdir. Tilda turli ehtiyojlar natijasida yangidan paydo bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi» [2; 34]. Neologizmlar, ya'ni lingvistik jihatdan yangi ma'noli birikmalar, vizual reklama matnlarida keng qo'llaniladi. Bunday birliklarning ba'zilari keng jamoatchilikka tanish neologizmlar sanaladi. Masalan, «BETA», «BAYGE» – choy mahsulotlari, «MTS», «BEELINE», «UCELL», «PERFECTUM MOBILE», «Uzmobile», «UMS» – uyalı aloqa telefonlari, «AKFA», «ALUTEX», «ASIA PLAST», «AKRILL» – qurilish materiallari, «HYDROLIFE», «MONTELLA», «MOYa SEMYa», «ФРУКТОВЫЙ САД» – suv va sharbat ichimliklari, «МОЯ МЕЧТА», «SONA», «ШЕДРОЕ ЛЕТО», «PURE MILKY», «LAPSHA», «LAVASH», «SHAURMA», «HOT DOG», «AKBEL», «TESTO», «MUZA» – oziq-ovqat mahsulotlari nomlari adresatga tanish. Chunki bu mahsulotlar keng jamoatchilikka tus-hunarli bo'lishi uchun ularni tasavvur qilishga yordam beruvchi, termin ma'nosini izohlovchi dizayn, yorliq, rang, simvol, tasvir, mahsulot belgisi, firma belgisi kabi nolinguistik vositalar bilan birga reklama shakkantiriladi. «Reklama qilinayotgan mahsulotning qaysi yosh va jinsdagi foydalanuvchilarga tegishli ekanligi uning dizaynida ko'rinish turadi» [3; 36-39]. Masalan, Colgate mahsulotining dizayni, ifoda shakli uni qaysi toifa uchun (kattalarga yoki bolalarga) mo'ljallanganligini anglatadi.

Xaridorlarning e'tiborini tortish uchun yil sayin mahsulot shakkllari, ularni nomlovchi so'zlar ham yangilanib boradi. Buning natijasi o'laroq tilimizda oxirgi yillarda turli yangi so'z birikmalarini paydo bo'ldi: iqtisod sohasida: *bozor* (fors) *iqtisodiyoti* (arab), *bozor* (fors) *munosabatlari* (arab), *bojxona* (fors) *qo'mitasi* (komitet), (lotincha, rus tili orqali), *biznes* (ing. rus tilidan kirib kelgan)-*consultant* (ing. rus tilidan kirib kelgan), *biznes* (ing. rus tilidan kirib kelgan)-*inkubator* (lotincha); madaniy-maishiy sohada: *kommunikasiya* (lotin) *tarmog'i*, *kompressor* (lotin) *stansiyasi* (lotin), *kinder surpriz* (italyan), *hududiy* (arab) *bo'linish*, *moliya* (arab) *akademiyasi* (yunon), *ommayiv axborot* (arab) *bozori* (fors), *veb-sayt* (ingliz), *press-shou* (ingliz); axborot-kommunikasion texnologiyasida: *mobil* (lotin) *aloqa* (arab) *vositasi* (arab), *Wi-Fi zona* (yunon), *internet* (ingliz) *klub* (ingliz). Keltirilgan birliklar tarkibidagi so'zlarning grammatik bog'lanishi yuzasidan quyidagicha tasniflash mumkin: sifat +ot va ot+ot.


Sifat +ot tarzida birikkan so'zlar tarkibidagi birliklarning o'z yoki o'zlashma qatlamga mansub ekanligiga qarab ikkiga bo'lish mumkin: a) so'z birikmasining har ikki qismi ham o'zbek tilida bo'ladi: *amaliy tashrif*, *boj haqi*, *xorijiy sarmoya* kabi; b) so'z birikmasining bir qismi o'zga tilida bo'ladi: *akademik litsey*, *kichik biznes*, *strategik hamkor*.

Ot+ot tarzida birikkan birikmadagi komponent o'z qatlam (*bojxona qo'mitasi*, *bozor iqtisodiyoti*, *haj ziyyorati*) va o'zlashma qatlam (*akssonerlik tijorat*, *moliya kredit*) yoki har ikkala qism ham o'zga til (*biznes-consultant*, *parlament assambleyasi*, *press-shou*)da bo'lishi mumkin [4; 16].

«Sotsiolingvistikada nutqning ixtisoslashishida nutq tushunchasi lingvistikada tushuniladigan tilning bevosita voqyealanishi, uning moddiy shaklda yuzaga chiqishi tushunchasidan farq qiladi. Ya'ni, sotsiolingvistikada nutqning ixtisoslashishi deganda, umumijtimoiy imkoniyatlarning muayyan shaklda voqyelanishi emas, balki qandaydir alohida bir guruh uchun me'yор vafasini o'taydigan umumiylig bilan xususiylik oralig'i tushuniladi» [5; 39]. Bu jihatdan reklama matnni qabul qiladigan adresatlar auditoriyasi yoshi, jinsi, mansabi kabi jihatlar bilan bir-biridan farqlanadi. Odatda, nutqiy muloqotda ham bu jihatlar ahamiyatli sanaladi. Biz reklama matnlarida ayol va erkak nutqidagi farqlanish manzarasini sotsiolingvistik jihatdan kompyuter yordamida diagramm ko'rinishda tahlil qilganda ular nutqidagi ayrim o'ziga xosliklarni aniqladik. Dastlab erkak nutqidagi matnnning talaffuzi tahlil qilindi va quyidagi natijalarga erishildi (1.1-rasmga qarang):



Erkak nutqi (aktyor Javohir Zokirov nutqida): *Booknomy dan yangi yil sovg'alari. Booknomy intensiv kurslarini 1 dekabrdan 10 yanvargacha sotib olib, mega aksiyada ishtirok etishingiz mumkin. 15 ta Neksiya 3 va 2 ta Malibudan birini qo'lga kirititing. Hoziroq buyurtma bering!*

Erkak nutqidagi «Hoziroq buyurtma bering» ifodasining talaffuzi uchun 1302 msec vaqt sarflangan. So'zlovchi har bir tovushga o'rtacha 68.5 msecdan vaqt sarflangan. Ifoda darak ma'nosini bergani uchun gapning melodik harakati tushuvchidir. Uning grafik ko'rinishi quyidagicha:




Ko'rinish turganidek, erkak nutqidagi «Hoziroq buyurtma bering» ifodasi talaffuzi tahlil qilinganda asosiy logik urg'u hoziroq bo'lagiga tushgan va uning miqdoriy koefisienti 85.25 db ni tashkil etadi.

Endi aynan shu matnnning ayol nutqidagi (Aktrisa Rayhon Ulasenova nutqida) talaffuzini tahlil qilamiz (1.2-rasmga qarang):

**1.1-rasm. Reklama matnlarida erkak nutqidagi urg'uning miqdoriy koeffisenti tasviri**

**1.2-rasm. Reklama matnlarida ayol nutqidagi urg'uning miqdoriy koeffisenti tasviri**


*Booknomy dan yangi yil sovg'alari. Ingliz, rus, ko'reys tillarini atigi 6 oyda grammatik va so'z yodlash-larsiz intensiv o'rGANISH metodini 1 dekabrdan 10 yan-varga qadar sotib oling va mega aksiyada ishtirok eting. 15 ta Neksiya va 2 ta Malibulardan biriga ega bo'ling. Shoshiling sizni yangi avtomobil kutmoqda. Hoziroq buyurtma bering!*

Diagrammadan ma'lum bo'ldiki, ayol nutqi ifodasi uchun 1047 msec vaqt sarflangan. Har bir tovushning o'rta arifmetik qiymati 55 msecni tashkil etmoqda, bu odatda, ayollarning nutqidagi tezkorlik bilan bog'liq. Shuning uchun ham, birinchi so'zlovchi (erkak) bir tovush uchun o'rta hisobda 68.5 msec vaqt sarflasa, ikkinchi so'zlovchi (ayol) bir tovush uchun o'rta hisobda 55 msec vaqt sarflamoqda. Uning grafik ko'rinishi quyidagicha:



Ayol nutqida ham asosiy logik urg'u *hoziroq* bo'lagiga tushgan va uning miqdoriy koeffisenti 85 db ni tashkil etadi.

Keltirilgan reklama matnida ayol va erkak nutqi talaffuzi o'tasida tafovut mavjudligi ayol nutqi talaffuz ohangidagi tezlik bilan baholanadi. «*Hoziroq buyurtma bering*» ifodasi audioyozuvinning fonetik manzarasi *hoziroq so'zi* erkak nutqida 85.25 db, ayol nutqida 85 db melodik cho'qqi bilan talaffuz qilinishini ko'rsatdi. Mana shu tarzdagi eksperimental kuzatishlar va audioyozuvin eshitish yordamida reklama matnida erkak va ayol nutqining sotsiolingvistik jihatlari haqida muayyan mulohaza yuritish mumkin bo'ladi. M.Gaziyeva ta'kidlaganidek, «Nutqiy muloqotda melodika asosiy ovoz toni va chastotasi o'zgarishidagi ko'tariluvchi, pasayuvchi va tekis tonlar kesimida gersga asoslangan akustik

parametrlar orqali gapning kommunikativ tiplarini shakkantiradi, bundan tashqari, urg'uning disebel miqdoriga asoslangan intensiv harakati normal sekin va emotsiyal (me'yordan ortiq) nutq kabi ifoda tiplarini farqlaydi» [6;12].

Xulosa o'rniда aytish mumkinki, reklama matnida so'zlovchi o'z kommunikativ maqsadiga erishish uchun barcha shartli lisoniy belgilarni jo'yali, o'z o'rniда ishlata olsagina u tinglovchini buyruq ijrosiga unday oladi. Voqyelikdagi predmet-hodisalarining idroki bir xilda kechmasligi tufayli turli shaxslar yagona bir voqyelikka turlicha, o'z nuqtai nazarlaridan qaraydilar, uni idrok etishda shaxsiy motivlariga ega bo'ladilar. Har bir shaxsnинг voqyelikni o'z baholash me'yori (o'Ichov) mavjud va bu me'yor to'g'ridan to'g'ri nutqiy faoliyatda o'z aksini topadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Qurbonova M. O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixololingvistik tadqiqi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. –127 b.;
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд.– Т., 2007. – Б.34 б.
3. Бакланова И. И. Образ адресата рекламного текста с точки зрения постулатов речевого общения Г. П. Грайса (категория качества). – Забайкальский государственный университет. Гуманитарный вектор. 2013. № 4 (36). – С.36-39.
4. Кўшқова Б.И. Тил функционал ривожланишининг социолингвистик таҳлили. Филол. фан. фалсафа д-ри (PhD) дис. автoreф. – Фарғона, 2019. –Б.16.
5. Аликулов З., Боймирзаева С. Социолингвистика. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2010. –Б.39.
6. Газиева М.М. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: филол. фан. фалсафа д-ри (PhD) дис. автoreф. – Тошкент, 2018. –Б.12.

Ziyadullayeva Mokhira,

*2nd year master's student in the direction of Comparative linguistics, linguistic translation studies (by languages) of Samarkand State Institute of Foreign Languages*

## SPECIFIC FEATURES OF THE ADDRESSING

**Abstract:** In this article, information is given about the specific features of addressing and the stages of development. This article, a communicative and pragmatic analysis of Uzbek and English addresses to individuals is carried out in order to identify their national and cultural specifics.

**Key words:** addressee, communicative, pragmatic, comparative.

**Аннотация:** В данной статье дана информация об особенностях адресации и этапах развития. В данной статье проводится коммуникативный и прагматический анализ узбекских и английских обращений к лицам с целью выявления их национальной и культурной принадлежности.

**Ключевые слова:** адресность, коммуникативность, прагматичность, компаративность.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada manzillashning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot berilgan. Maqola o'zbek va ingliz tilida jismoni shaxslarga bo'lgan manzillarini kommunikativ va pragmatik tahlil qilish, ularning milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlash maqsadida olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** manzil, kommunikativ, pragmatik, komparativ.

The address, as a specific contact-fixing agent, is one of the most commonly used speech units in English and Uzbek languages. The address is an integral part of speech etiquette and is used in a variety of communication situations, used by people with a variety of social characteristics, sent to different recipients. The study of the system of appeals

is a specific tool for analyzing the culture of native speakers, since the set of appeals used by representatives of various ethnocultures is a kind of reflection of the signs of communicants and situations of speech communication that are significant from the point of view of ethnopsychology and cultural tradition. Finally, both Uzbek and English addresses carry a significant

communicative load not only by naming the addressee, but also by establishing and maintaining verbal contact with the interlocutor, while regulating the idea of the communication situation as a whole and about the speech positions of partners, their social and personal relationships.

In this article, a communicative and pragmatic analysis of Uzbek and English addresses to individuals is carried out in order to identify their national and cultural specifics. The research shows that appeals in their functional and semantic features bear the imprint of the culture of native speakers, which is associated with a wide range of communication situations in which various appeals are used, a significant communicative load of these units and a variety of forms.

**This change from an address form employed to define intimate relationships within a family or among close friends or business associates to the one used to define general relationships between strangers, between people of asymmetrical age and occupational status, between students and professors, and between young people and their seniors, has been quite a recent development which has naturally stimulated cross-cultural studies of address behavior in different countries [2, 56].**

Addressing takes place so frequently in social interactions that it is an important component of communicative competence. In principle, one cannot expect that the literal translation of the routine expressions of his own language into another will have the same effect in the target language. Nevertheless, in practice, the interference of one's mother tongue in using a foreign language seems to be inevitable for foreign language learner. An American scholar was greatly annoyed when addressed as Mr. or Mrs. instead of Professor by Russian speakers of English, who actually tried to show respect to him. A male Russian student in a university of the United States was also annoyed by the term "pet" directed to him from a cleaner. The student thought how that person could treat him as an animal, say, a dog or cat. He was quite unhappy until someone explained the good will of the cleaner towards her in using the term. There are more examples in actual interactions.

As a fact, a manorial lordship or ladyship is not connected to the [British honors system](#), but rather the [feudal](#) system [1,109]. Ownership of a [manorial](#) lordship will be noted on request in British passports through an official observation worded, 'The Holder is the Lord of the Manor of [6, 33]. Females can inherit the feudal title of Lord of the Manor, unlike titles of peerage. In addition, it is the only title that can be purchased. Lordships of the manor are considered non-physical property in England and are fully enforceable in the English court system. Like their English counterparts, by 1600 manorial titles in the formerly Norman territories in France and Italy did not ennable their holders in the same way as, for example, did a

barony. The status of lord of the manor is associated with the rank of esquire by prescription [5,203].

Kinship terms play an important part in the Uzbek and Russian language address systems. Age, generation and order of seniority are regarded as far more important than those in American system. The use of a person's title, office or occupation is quite common in the Uzbek and Russian languages. Nevertheless, one seldom hears Uzbek Do'm bobo, Rais buva, Birgad. But English speakers addressing others as Bureau Director Smith, Manager Jackson, and Principal Morris. In English, only a few occupations or titles would be used which include Doctor, Judge, Governor, Mayor and Professor.

There are a lot of ways of address forms, rules, variations in the Uzbek and English languages. These rules are very similar to each other. How to address people appropriately needs the taking of several factors into consideration, such as the social status or rank of the other, sex, age, family relationship, occupational hierarchy, transactional status, race or degree of intimacy.

Despite of its occasional inefficiency, we will first look at the general rules of address forms. An English or American person can be addressed by his name, his title his name plus his name, or by nothing at all, that is, no-naming form.

#### Examples:

full name: "A rise! Marry Johnson Black, you know we are at the party?

(2) first name: "They are on your desk, Marry"

(3) nickname: "Joanna, there's something I have to tell you"

(1) full name: Ibodovva Nargiza Aliyevna, bajarilgan ishlarning hisobotini topshiring. In Uzbek it means order or sarcasm.

(2) first name: Aziza, bugun darslaringga bor. Qaytishda bozorga kirib kelarsan.

(3) nickname: Hoy Qalamqosh, shuni ham tushunmadingmi?

#### 2 Title Examples

(1) title concerning family relationship: "All right now, children! Outside for your walk, mother's orders

(2) title of occupation: "Operator, could you please put through a call to Copenhagen?"

(3) title of rank: "You are right, Mrs."

(4) Honorifics: "Your Royal Highness, twenty-four hours. They can't be blank".

(5) other titles: "Oh, darling." / "You dogs!" / "What do you want, fellow?".

(6) Title plus name: Doctor Smith.

(7) No-naming: "Good morning".

#### 2 Title Examples in Uzbek.

(1) title concerning family relationship: "Aziz opansingillarim, bu ishni bajarishimiz biz uchun farz. Axir u onamning vasiyatlariku!"

(2) title of occupation: Buyuring Xonim, sizga bo'lsin jon fido.

(3) title of rank: Boshliq, topshirig'ingiz bajarildi!  
 (4) Honorifics: Ko'zim nuri, qalbim qo'ri, Azizam!  
 Sizni bahor ayyomida shunday latofatli holatda ko'rib turganimidan bag'oyatda baxtiyorman.

(5) other titles:  
 Begonamas **mehribonlarim**,  
 Mehridaryo **onajonlarim**,  
 Yuzi issiq **jonajonlarim**,  
 Bayramingiz muborak bo'lsin!

(6) Title plus name: *So'z kengash raisi Jo'rayevaga beriladi.*

(7) No-naming: Siz o'shami...?

These address forms can be found in daily communication, both in oral and written forms. In addition to causing other people's attention, address forms have other important social functions, such as to show respect, to show intimacy, to honor or to humiliate other people. The various use of address forms sometimes merely serves as a marker of regional difference, but sometimes it is enough to cause miscommunication.

T. Lechner reported that the address form "Mrs." has different meanings in the southern part of the United States than it has elsewhere. In the South, the term "Mrs." is often used a substitution for the formula "I beg your pardon?" or "pardon?" in asking someone to repeat what he has said or to explain something. The contrast in the use of the two forms is exemplified in the following conversation [7,132].

(1) A: Could you tell me how late you're open this evening?

B: Mrs.?

A: Could you tell me how late you're open this evening?

B: Until six.

In addition, it was found that the phrase "Yes, Mrs." is often used instead of "You're welcome" as a response to

"Thank you". For example:

(2) A: Could you tell me how late you're open this evening?


B: Until five-thirty.

A: Thank you very much.

B: Yes, Ma'am.

Not only is the form "Mrs." gives different meanings in the South, it is also used in very different social contexts than elsewhere in the country. In the northeast, for example, "Mrs." was found to occur between strangers and, to a lesser extent, from lower to upper status speakers. In the South, however, it was found

IMMOBILIER



that the term was used not only to strangers but also to acquaintance and even intimates. Thus, graduate students at the University of Virginia were heard to be addressed as "Mrs." by their female professors were given this address form by their female colleagues, and wives were even heard to use this term to their own wives.

The form "daughter." gives different meanings in the viloyats of our country. Sometimes it means address, sometimes honor.

*Balam, shu chamandagul do'ppini topgunimcha rosa bozorni aylandim (Buxoro viloyati shevasida).*

*Ona qizim, bu dastorni sizning sepingizga qo'shish uchun olib keldim. (Vodiy shevasida).*

So, addressing as one of the most important means of attracting attention in the composition of statements of various communicative and pragmatic types is an important unit of speech etiquette. With the help of this communicative unit, speech contact with the interlocutor is established and maintained, the idea of the communication situation as a whole and the speech positions of communication partners, their social and personal relationships are regulated. According to the rules of speech etiquette, the correct address should be present in every speech, only it is necessary to build it in accordance with the national rules of speech etiquette and the rules of its relevance in speech.

### References

1. Aitchison J. *Language Change: Progress of Decay?* – London: Cambridge University Press, 1999. – 172 p.
2. Bates E. & Benigni L. Rules of address in Russia: A Sociological Culture", *Language in society*, London, 2005. – 152 p.
3. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. O'qituvchi nashriyoti, 1973 yil.283 b.
4. Ervin-Tripp S. On sociolinguistic rules: Alternation and co-occurrence. In *Directions on Sociolinguistics*. – New York: Runehart & Winson, 2005. – P. 52.
5. Holmes J. *An Introduction to Sociolinguistics*. – London: 2<sup>nd</sup>

**Saodat KAMBAROVA,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD)*

## O'QUVCHILARNING OBRAZLI VA KONSEPTUAL TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUVLAR

**Annotatsiya.** Maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablarida adabiyot fanini o'qitish orqali o'quvchilarning obrazli va konseptual tafakkuri shakllanishining yosh dinamikasini aniqlash va ularni rivojlantirishning metodik tizimini yaratish masalasi yoriladi. Buning uchun obrazli va konseptual fikrlashni rivojlantirish shartlari, shuningdek, ushbu fikrlash turlarining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydigan ketma-ket va bog'liq operatsiyalar mazmuni bayon etiladi.

**Kalit so'zlar.** Emotionsallik, dialog, konseptual tafakkur, majoziylik, obraz-ramz, obrazli fikrlash, talqin.

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос определения возрастной динамики формирования образного мышления учащихся и создания методической системы его развития через преподавание литературы в общеобразовательных школах. Для этого описываются условия развития образного и концептуального мышления, а также содержание последовательных и связанных операций, обеспечивающих успешное развитие этих видов мышления.

**Ключевые слова.** Эмоциональность, диалог, метафора, концептуальное мышление, образное мышление, образ-символ, интерпретация.

**Annotation.** The article describes the issue of determining the age dynamics of the formation of figurative and conceptual thinking of students and creating a methodical system for their development through the teaching of literature in general secondary schools. For this, the conditions for the development of figurative and conceptual thinking, as well as the content of sequential and related operations that ensure the successful development of these types of thinking, are described.

**Key words.** Emotionality, dialogue, conceptual thinking, figurativeness, image-symbol, figurative thinking, interpretation.

Bugungi kunda adabiy ta'lif tizimida obrazli va konseptual fikrlashning o'zaro bog'liqligi muammosi nafaqat san'atga oid, balki boshqa fanlarni o'qitish jarayonida ham paydo bo'ldi. Xususan, bu borada tadqiqotlar olib borgan rus metodisti V.G.Maransmanning fikricha, "Adabiyot o'qitishda obrazlilik va konseptuallikka, qoida tariqasida, asarni idrok etishning turli qutblari va bir-biriga qarama-qarshi faoliyat turlari sifatida qarala boshlandi. Shuningdek, konsepsiya va tasvir o'rtasidagi bo'shliq zamonaviy mifik o'quvchisi tafakkurining parchalanishiga, ongining "klipi"ga olib keladi. Bunda bir qator o'zgaruvchan yorqin taassurotlar tushunchaga aylanadi, izchil tasvirlar zanjiri shakllanmaydi" [4; 5].

Adabiyot o'qitishdagi estetik yo'naliш o'z mohiyatiga ko'ra idrokni subyektivlashtirish, muallif qiyofasini anglash hamda uning o'quvchi tomonidan o'zlashtirishiga qaratilgan bo'lsa ham, individual obrazlarni talqin qilishda asarning yaxlit tushunchasi mavjud. Shu bois N.V.Belyayeva [1], V.G.Maransman [4], N.D.Moldovskaya [6], I.V.Rijkova [8], T.F.Sigayeva [9], L.V.Shamrey [10] kabi rus metodistlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda adabiy ta'lifning ushbu tamoyillarini birlashtirishga qat'iy harakat qilingani kuzatiladi. Milliy metodikada mazkur muammo Q.Husanboyeva [3], M.Mirqosimova [5], R.Niyozmetova [7]lar tomonidan tafakkurning ijodiyligi, mustaqilligi va mantiqiyligi kabi shakllari asosida yoritilgani kuzatiladi.

O'quvchi berilgan g'oyani aniq idrok etishi, asarda ko'rishi va muallifning uni amalga oshirishdagi harakatlarni tanqidiy baholashi kerak. Adabiyot o'qitishdagi

estetik yo'naliш o'z mohiyatiga ko'ra idrokni subyektivlashtirish, muallif qiyofasini anglash hamda uning o'quvchi tomonidan o'zlashtirishiga qaratilgan bo'lsa da, individual obrazlarni talqin qilishda asarning yaxlit tushunchasi mavjud. Adabiyot o'qitish metodikasida pedagogik psixologiyada bo'lgani kabi obrazli va konseptual tafakkurning o'zaro ta'sir qilish mexanizmlari oydinlashmagan. Ushbu muammo ko'pincha o'quvchi idrokida tasviriy va mantiqiy tamoyillarning o'zaro ta'siri haqidagi savol bilan almashtiriladi. Bu biz qo'ygan muammoga ekvivalent emas, chunki konseptual fikrlash, nazarimizda, majoziy fikrga qarshi turmaydi, lekin uni mantiq va his-tuyg'ularning o'zgarishi yordamida o'z ichiga oladi.

N.D.Moldavskayaning izlanishlarida konseptual tafakkur haqida so'z yuritilgan, lekin bu bilan cheklanib qolimagan ham. Uning fikricha, konseptual tafakkur matnning mantiqiy talqini bilan bog'langan obrazli umumlashtirishni o'z ichiga oladi [6; 169]. Bizningcha, o'quvchi ongidagi konseptual tafakkur deyilganda obrazli taassurotlarni dunyoqarash paradigmaiga qurish qobiliyati tushuniladi, bu esa, majoziy ko'chirish tufayli, estetik idrok etishning taassurotlari va strategiyalarini tartibga soladi. Ta'kidlash joizki, konseptual tafakkur badiiy asarning o'quvchi talqinini yaratish jarayonida aqliy faoliyatning majoziy va mantiqiy tarkibiy qismlarini izchil qo'llash bilan bog'liq emas.

Fikrimizcha, bunda qayd etilgan jihatlarning uyg'unlashuvi mavjud bo'lib, u maxsus birlikni hosil qiladi.

Hissiy, analistik va assotsiativ jihatlarni o'z ichiga olgan badiiy obraz ko'rinishidagi aks ettirish san'at obyektini idrok etishga yordam beradi. Badiiy asar tushunchasi o'quvchi talqinining eng yuqori darajasi sifatida qabul qilinadi. Bu daraja maxsus fikrlash jarayonini ta'minlashi e'tiborga olinsa, uni konseptual tafakkur deb atash mumkin.

Ma'lumki, konseptual tafakkur obrazli elementlarni o'z ichiga oladi va ularni mantiqiy harakatlar yordamida badiiy asarning yaxlit talqiniga aylantiradi. O'quvchi idrokining obrazli boshlanishi nazariy va tarixiy-adabiy bilimlar, tahlil qilish qobiliyatları kabi izchil rivojlanrilishi kerak. Shuningdek, badiiy asarlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar obrazli-konseptual tafakkurining rivojlanish qonuniyatları, shartlari va darajalari belgilanishi maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi shartlar va harakatlarni o'z ichiga olgan metodik tizim talab qilinadi:

- 1) obrazli tafakkurni shakllantirish jarayoni matnni o'qish va tahlil qilish ko'nikmasini hosil qilish orqali rag'batlantiriladi va asarni o'rganish jarayonida muammoli vaziyatlarning konjugatsiyasi sharoitida konseptual tafakkur rivojlanadi; 2) o'quvchi idrokini ochishda oppozitsion diadalar: o'quvchining his-tuyg'ulari – muallifning his-tuyg'ulari, tasavvurni qayta yaratish – ijodiy tasavvur, asar shaklini kompozitsiya darajasida – badiiy detallar darajasida anglash obrazli fikrlashdan konseptual o'zgarishlarga olib keladi; 3) tasviriy va konseptual tafakkurning rivojlanishi asarni tarjima qilish va davrning madaniy kontekstiga kiritish usuli yordamida o'quvchining badiiy taassurotlarini uzatish jarayonida sodir bo'ladi; 4) interaktiv ta'lif va badiiy asarni personajlar, muallif va turli yozuvchilar muloqoti sifatida ko'rib chiqish kontekstida obrazli va konseptual fikrlashni samarali rivojlanirish mumkin.

Badiiy asarning obrazli tuzilishini ajratib ko'rsatish asosida o'rganish tizimi bir necha bosqichlardan tashkil topadi. Bular rus metodisti Ye.K.Maransman ko'rsatganiek quydagilardan iborat:

- boshlang'ich sinflarda asar qahramonlari, mavzusi va sujetiga nisbatan faol munosabatni qaror toptirish; 5–6-sinflarda muallifga nisbatan pozitsiyani rivojlanirish vositasi sifatida muallifning badiiy tizimlarini farqlash. Bu muktab o'quvchilarining adabiy rivojlanishi dastlabki bosqichlarida qiziqarli va mazmunli o'qishni ta'minlaydi; katta yoshdagи o'smirlar (7–8-sinflar) tomonidan badiiy asarlarni talqin qilishdagi intilishlarni obrazlar zanjiridan ajratib ko'rsatish, ularni mantiqiy tushunish va shu asosda asar konsepsiyasini qurish orqali bartaraf etishni ko'zda tutadi; umumiyl o'rtalim maktabida adabiy ta'larning vazifasi sifatida obraz-ramzdagi obrazlilik va mantiqiy tamoyillarni uyg'unlashtirish; ramzi obrazlar ni uyg'unlashtirgan adabiy yo'nalish modelini yaratish va uni faqat bir asar yoki janr darajasida emas, balki muayyan madaniy davrni belgilovchi badiiy uslub darajasida konseptual tushunish kabilari [4; 9].

Ayon bo'ladiki, barcha ma'nolarining yagona obrazda uyg'unlashuvidan asarning obraz-ramzi vujudga keladi, shu asosda asar tushunchasi quriladi. Natijada obrazli va mantiqiy tamoyillarning uyg'unlashuvi orqali asar qurilishida obraz-ramzni tanlash va talqin qilish; obraz-ramzning metaforik tarzda ifodalangan ma'nolarini personajlar harakatining real ma'nolari va motivlariiga o'tkazish bosqichlari tashkil qilinadi. Badiiy asarni talqin qilishda obrazli va konseptual tamoyillarni uyg'unlashtirish o'quvchilar adabiy rivojlanishining turli bosqichlarida olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda bitta tasvirdagi majoziy va mantiqiy uyg'un birikmaning propedevtikasi amalga oshiriladi, bu asarning ma'nosini tushunishni ta'minlaydi. Umumiyl o'rtalim muktablarda obraz-timsolni tanlash va anglash adabiy ta'larning mustaqil vazifasiga, asar talqinini qurish asosiga aylanadi.

Obraz-ramzni idrok etish uslublari shu obrazga singdirilgan metaforalarning ma'nosini ochishga asoslanadi. Qoida tariqasida, o'quvchilar tasvirning ma'nosini og'zaki tushuntirishga qynaladi. Bu boshlang'ich va o'rtalim muktab o'quvchilar uchun ham amal qiladi. Ma'noni ko'rish uchun ular og'zaki tasvirni boshqa belgilar tizimi – grafik yoki kinestetik tasvirga aylantiradigan oraliq bosqichga muhtoj. Axborotni qayta kodlashning bunday usuli ma'noni tushunishga olib keladi, tizimni boshqasiga qoldirib, o'quvchilarining ko'rish sohasini kengaytirishni ta'minlaydi. Bu J. Brunerning ma'lumotni kodlash "nafaqat boshqasini keltirib chiqaradi" degan g'oyasini tasdiqlaydi, balki mazkur qarash boshqa ma'noni anglash imkonini ham beradi [2; 267].

Majoziy va konseptual fikrlashni shakllantirish faqat muloqot tizimida sodir bo'lishi mumkin. Binobarin, o'qituvchining kommunikativligi, o'zaro munosabatlardagi faoliigi, shaxsiy munosabatni hamda o'quvchilarining haqiqiy qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishini ta'minlaydi. Majoziy va konseptual tafakkurni rivojlanirish vazifasi faqat interaktiv ta'lif sharoiti olib boriladi. Avvalo, badiiy ongning ushbu tomonlarini birlashtirish tartibi o'zi dialog bo'lgani uchun, ikkinchidan, u faqat o'quvchi va yozuvchi, o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot vaqtida amalga oshirilishi mumkin.

Badiiy asarlarda qahramon va muallif, kitobxon va qahramon suhbatini o'z ifodasini topadi. Adabiy jarayon hamisha yozuvchilar, adabiy oqimlar muloqotida, zamonlar va milliy madaniyatlar muloqotida rivojlanib boradi. Qahramonlar dialogi masalasiga adabiy ta'lif jarayonida o'quvchilarining obrazli va konseptual tafakkurini rivojlanirish bosqichi sifatida qaraladi. Asardagi personajlar dialoglari tizimi juda xilma-xil shakllarda tuzilishi mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan asarlarda mavjud bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri real dialoglardan tortib, umumiyl badiiy yaxlitlikni tashkil etuvchi bitta muallifning turli asarlari qahramonlari dialogiga qadar. Zamonaviy adabiy ta'lif standarti o'qituvchi va metodistlarga turli darajadagi dialoglarni, shu jumladan, o'quvchilarining majoziy va konseptual tafakkurni

tushunish uchun turli yo'llar bilan ko'tarilishni tashkil qilish imkonini beradi. Demak, ongning har ikkala tomoni uyg'unlashuvi o'quvchi shaxsi rivojlanishi uchun tabiiy

ravishda sodir bo'ladi. Natijada bu ham bilimlarni, ham sharhlovchilik faoliyatining badiiy tajribasini majburlashlardan xoli egallahshi ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Беляева Н.В. Формирование читательского восприятия при изучении лирики в школе: теоретические основы и практика. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 1997. – 20 с.
2. Брунер Дж. Психология познания. – М.: Прогресс, 1997. – 412 с.
3. Husanboeva Q. Р. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.
4. Маранцман Е.К. Методическая система развития образного и концептуального мышления школьников в процессе изучения литературных произведений. Дисс. ... док. пед. наук. – М., 2005. – 457 с.
5. Миркосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.
6. Молдавская Н.Д. Литературное развитие школьников в процессе обучения. – М.: Посвещение, 1986. – 128 с.
7. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гурухлари мисолида). Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 242 б.
8. Рыжкова И.В. Литературное развитие школьников в процессе диалога читателя и писателя: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – СПб, 1998. – 21 с.
9. Сигаева Т.Ф. Взаимодействие эмоционально-образного и логического начал в читательской деятельности пятиклассника. Дисс. ... канд. пед. наук. – 1984. – 146 с.
10. Шамрей Л.В. Функциональные закономерности взаимодействия науки и искусства в школьном изучении литературы. Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – СПб., 1995. – 35 с.

Холматова Шохидা,

Сираджитдинова Наргиза,

Кафедра «Узбекский язык и литература» Ташкентского

государственного технического университета имени

И.А.Каримова, старшие преподаватели

## ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda universitetlarda rus tilini o'rganishda turli innovatsion usullar qo'llanilmoqda. Masalan, siz yangi texnologiyalar, interaktiv o'yinlar va dasturlar, raqamli ta'lim plattformalari, shuningdek, avtomatik baholash va qayta aloqa tizimlaridan foydalanishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Kontsepsiya, intellektual faoliyat, kognitiv strategiyalar, yodlash strategiyalari, uslubiy texnikalar;

**Annotation.** Currently, various innovative methods are used to study the Russian language in universities. For example, you can use new technologies, interactive games and programs, digital educational platforms, as well as automatic assessment and feedback systems.

**Key words:** Concept, intellectual activity, cognitive strategies, memory strategies, methodical practices;

**Аннотация.** В настоящее время для изучения русского языка в вузах используются различные инновационные методы. Например, можно использовать новые технологии, интерактивные игры и программы, цифровые образовательные платформы, а также системы автоматического оценивания и обратной связи.

**Ключевые слова:** Концепция, интеллектуальной деятельности, когнитивные стратегии, стратегии запоминания, методические приёмы;

ekanlar, deb o'ylanib qolamiz. Bu savollarga Shafoat  
akaning timsolda muayyan ma'noda javob bor edi.  
Chunki ma'naviy martaba oddiylik va xokisorlikning  
ichiga yashiringan bo'ladi. Bu shoирning hayoti va ijo-  
dida ham, yurish-turishi-yu turmush tarzida ham ularning  
munosib vorisi ekanligini ilg'asa bo'lardi. Shuning  
uchun ham unga Termizi taxallusni yarashib tushgan.  
Bu taxallusning yukini uncha-muncha ijodkor ko'tarol-  
may qolishi ham aniq.

U haqiqiy shoир edi, hamma narsa unda tabiiy edi,  
ko'ngli ham tabiat singari keng, tanti va beg'ubor edi.  
Go'yo Bobo Farajning ko'ylagi yirtig'idan nur to'kilib  
turganday uning tabassumi siniqlaridan mehr yog'ilib  
turardi. Shuning uchun bu xokisor tabassumni bir mar-  
ta ko'rgan odam Shafoat akaning ichi nurga to'lib ket-  
ganini his eta olardi. U zamonaviy she'riyatning qadimiy

baxshisi edi. Uning ovozi yangi, so'zi yangi, ruhi qad-  
imiy edi. Shu bois shoирning o'zi "Do'mbira — mening  
ilk ustozim" deb aytgandi. Bu qalb — ona yurtini, eli-  
ni, tabiatini kuylash uchun yaralgan benazir bir qalb  
edi. Shoирning she'rлaridan o'zbek ruhi porlab ko'rinih  
turardi. Baxshilarimizning ijodiy ruhi uning she'rлarida  
o'zgacha tusda namoyon bo'ldi. Adabiyotga sadoqat va  
mehr bilan xizmat qilish Shafoat akaning kundalik va  
umrboqiy a'moli bo'lib qoldi.

Shafoat Rahmatulloning adabiyotimizga janub na-  
simlariday kirib kelgan ilk "Janub shamoli" kitobidan in-  
son va Vatan istiqolli uluqlangan "Ozod so'z" kitobi yoki  
"Ko'rinxmay gulladim", "Umid ostonasi", "Shoh va shoир"  
kabi kitoblari ayni shu sadoqat va mehrning mevalar-  
idir. SHe'rxonlarga zavq va g'ayrat, ilhom va samimiyyat  
ulashib kelayotgan bu kitoblarning har biri haqida uzoq  
gapiresh mumkin.

Termizga borgan har qanday ijodkor Shafoat  
akani ko'rgisi kelardi. Nega shunday? Chunki, u  
Surxondaryoga o'xshardi, ko'hna Termizga o'xshar-  
di. Onda-sonda Toshkentga kelib qolsa, guyo unga  
Surxondaryo ergashib kelganday bo'lardi. Shu o'rinda  
bir narsani ta'kidlab o'tish zarur: o'zining tug'ilib o'sgan  
joylari, mo'jazgina qishlog'i, dalalari haqida yonib  
kuylagan shoир Vatani haqida ham yonib kuylay oladi,  
bunda o'zaro bog'liqlik bor. Zero, alifboni o'rganmas-  
dan turib, katta kitobni o'qib bo'lmaydi.

...Shafoat Rahmatullo Termiziya vafot etdi. O'lim  
xaq. Lekin shoирning shoirligi ham shunda bo'ladi-  
ki, u tirikligida o'z asarlariga ruhini ko'chirib ulguradi,  
el-yurtiga, Vataniga muhabbatini, eldoshlariga mehrini,  
ezgu tuyg'ularini tirik satrlarida qoldiradi. Shafoat aka,  
Shafoat Rahmatullo Termiziya ham bu saodatga erish-  
gan shoirlarimizdan edi".

Eshqobil Shukur Shafoat Rahmatullo Termiziya  
butun bo'y-bastini mahorat bilan tasvirladi. Haq so'zlar,  
shoir chin ma'noda ona-Vatan kuychisi edi.

Eshqobil Shukurning fikrini tasdiqlab, Termiziylar  
haqida adabiyotshunos Shaydullo Murodov aytga-  
nidek, o'ta pok-pokiza, halol, toza, rostgo'y, bilimli,  
e'tiqodi mustahkam, imonli, diyonatli, kamtar, go'zal  
ahloq egasi Termiziylar bo'lishgan. Shafoat Rahmatullo  
Termizi ham bu borada o'zini ruhan tayyorlab, chuqur  
o'ylab keyin taxallusni olgan.

Shoir Surxon elini kuychisi sifatida adabiyotda man-  
gu qoldi. Buni barcha tan oldi, e'tirof etdi.

"Shoirning aksariyat she'rлari Vatan, ona-yurt  
– Surxondaryo va uning go'zal tabiat, odamlari,  
shifobaxsh suvleri haqida. To'plamini ochsangiz, uning  
ilk sahifasida "Vatan" degan she'rga ko'zingiz tushadi.  
Odatda, kitobning boshidgan she'r shoирning iste'do-  
didan darak beribyu turadi. Kitobxon birinchi she'rga  
qarab o'z xulosasini chiqarishi, agar yoqmasa, bosh-  
qalargani o'qimay qo'yishi mumkin.

Mazkur she'rda Shafoat Vatan mavzuiga o'z tasav-  
vurini, o'z tushunchasidan kelib chiqibi yondashgan. U  
tarixning qat-qatiga murojjat qilib, noyob haqqatlarni  
topib oladi va chirolyi badiiy liboslarga o'rab o'quvchi-  
larga taqdim etadi:

Axir jahon al-jabri - biz bo'lsak,  
Islomiylar ilmlarning ham kabiri - biz bo'lsak.

Bu fikrlardan qalbimizda iftixor, g'urur tuyg'ulari jo'sh uradi.

Shuningdek, shoir teran topirlarimi – o'tmishning buyuk zotlariga yangicha nuqtai nazardan yondashib, tarixiy haqiqatni yuksak poetik mahorat bilan ochib beradi:

Dastur qilsa otalar Amir Temur tuzugin,  
Taqsa oqil onalar To'marisning uzugin.

Shafoatning she'rлari o'quvchini izlanishga, fikrlarsha, tarixiy asralarni titkilashga undaydi. Shunday qilmasangiz, uning zohiriy tomonini bilib, botiniy tomonidan bexabar qolishingiz mumkin. Masalan, "Xalqim, ajdoding izi moziyning qat-qatida. Men uni ko'rayapman SHemerning loy xatida" misralarini mazmunini

bilib olmoqchi bo'lsangiz, tarixga murojaat qilishingizga to'g'ri keladi. Shoir ijodidad bunday misraarni tez-tez uchratamiz". Bular surxondaryolik adabiyotshunos olim Shaydulla Murodovning e'tiroflari. U Shafoat Rahmatullo Termiziyy ijodini muntazam kuzatib keladi. Shoirning she'rлarini izlanishlar manbai deb biladi. Eng muhim, bu she'rлarni teran tahlilga tortadi. O'quvchini ham she'r mazmuni va shoirning tushunchalarini tushunishga chorlaydi.

Darhaqiqat, Shafoat Rahmatullo Termiziyy birinch bo'lib ona-Vatan kuychisi sanaladi. Uning she'rлarida Surxondaryo bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. Eng qizig'i, shoir Surxondaryoning ishongan shoiri degan e'tirofga sazovor bo'ladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Prezident Sh.Mirziyovning Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyoboni ochilishidagi nutqi. / Xalq so'zi, 2020 yil 21 may. №106(7608)
2. Shaydulla Murodov. "Tirik so'z timsollari". G'.G'ulom nomidagi NMIU. Toshkent-2011. 152-bet.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shafoat-rahmatullo-termiziyy-korinmay-gulladim-tortliklar.html>
- 4.<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/shafoat-rahmatullo-termiziyy-vatan-haqida-monolog-eshqobil-shukur-oz-yurtiga-oxshagan-shoir.html>

**Muminova Farida,**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

## TOG'AY MUROD QISSALARIDA FOLKLOR TASVIRI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotidagi folklor an'analari Tog'ay Murod qissalari misolida tahlil qilinib, yozma adabiyotda folklorning tutgan o'rni, yozuvchining xalq og'zaki ijodiyoti janrlaridan foydalanish mahorati, milliy urchodatlar tasviri, muallifning rivoya uslubidagi o'ziga xosliklar haqidagi mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** folklor, obraz, xarakter, xalq o'yinlari, kompozitsiya, uslub, epos.

Yozma adabiyotda folkloridan foydalanish har doim ijodiy xarakterga ega. Badiiy adabiyotdagi folklorizm shu asar bilan, uning barcha komponentlari bilan shu qadar birikib, kirishib ketadiki, ularni tashqi tomonidan ajratib olishga imkon bo'lsa ham, biroq mazmunan, shaklan shu asar bilan zaruriy, muhim bog'lanishda bo'ladi. Folklorga xos barcha komponentlarning adabiyotdagi o'rni ijodiy qayta ishlanish, rivojlantirish orqali belgilanadigan, natijada bu komponentlar folklorga asoslangan, ammo yozma badiiy adabiyotning muhim zaruriy komponentiga aylanib qolgan bo'ladi. Ushbu o'rinda taniqli yozuvchi Ch.Aytmatovning quyidagi so'zlarini eslash o'rinnlidir: "Men hamisha epos haqida fikr yuritaman. Bu xalq donishmandligining o'ta murakkab, ko'p qirrali tajassumidir. Lekin men eposni o'z asarimga shunchaki emas, balki uni o'zlashtirgan holda kiritaman" [3,88]. Mana shunday xalq og'zaki ijodi an'analarni ijodiy qayta ishlab o'z asarlari tarkibi singdirib yuborgan yozuvchilardan biri Tog'ay Muroddir.

T.Murodning qissalarini bevosita folkloridan o'sib chiqqan, xalq og'zaki ijodining zamonaviy yozma bir ko'rinishi deyishimiz mumkin. Negaki u o'z qissalarida nafaqat xalq maqollari va matallari, iboralaridan foydalanadi, balki xalqona mushohada yuritadi, bo'layotgan voqeah-

disalarni xalqona ko'z bilan ko'rib, ulardan xalqona xulosalar chiqaradi. Ushbu xil xalqchillik yozuvchi asarlarining barcha komponentlariga xos bo'lib, uning birortasini asar tarkibidan chiqarib, asar leytmotividan ayro holda tahlil qilish qiyin hodisa.

Yozuvchining "Ot kishnagan oqshom" qissasi ham muallif tomonidan folklorga yanada yaqinlashish ro'y berganligini ko'rsatadigan asardir. Qissa quyidagi jumla bilan boshlanadi: "Birodarlar, ko'rgilik-da, ko'rgilik! Bir erta uyg'onib, kallamga qo'l yogurtirsam, sochlarmi orasida yara-chaqa uch beribdi. Parvoyi palak yuraverdim. Onagayam aytmadim" [6, 410]

Keltirilgan matni parchasidan ko'rinib turibdiki, bu jumlar xalq dostonlarini baxshilarining bayon usulini eslatadi. Shuning uchun asar bir o'tirishda o'qiladi. Asar kitobxonni o'zi bilan ergashtirib, dashtga yetaklaydi, qahramonlar bilan qo'shilib, dashtning sof havosidan to'yib-to'yib nafas olgandek, ular bilan qo'shilib uloq chopgandek bo'lasiz.

Ziyodullaning kalligi uni xalq og'zaki ijodi an'analari bilan bir bahya yaqinlashtiradi. Ma'lumki, ertak va dostonlarda kallar obrazi juda ko'p. Ular aksariyat holda kambag'al, quiyi tabaqa vakillaridan bo'lishidan qat'i nazar, o'zlarining uddaburronligi, zakovati bilan, ayrim ertaklarda baxtli ta-

sodif tufayli orzulariga erishadilar. O'ziga qarshi turgan kuchlar ustidan ba'zan jiddiy kurashlar natijasida, ba'zida tasodifiy hodisalar natijasida g'alabaga erishadilar, murod-maqsadlariga yetishadilar.

Muallifning rivoya uslubida xalq ertaklaridagi bayon shakliga ijodiy ergashish holati seziladi: "Ayni kunlarda katta choyxonada yonboshlab yotar emish... Choynagidagi choyi oq emish! O'zi quyib, o'zi ichar emish. Elga ermak, xalqqa shaloq emish" [6, 450].

"Oydinda yurgan odamlar" qissasi barcha o'quvchi ommasiga ma'lumki, hayot qiyinchiliklariga dosh bergen ikki taqdir haqidagi doston desak, chin ma'noda adashmagan bo'lamiz. Shuningdek, yozuvchi Odil Yoqubov "Muhabbat haqidagi bir kuy, to'g'riroq'i muhabbatga suyanib, barcha hayot dovullarini yengib o'tgan ikki dil, ikki pok inson haqidagi tipik bir qo'shiq desak yarashadi", – degan fikrida juda katta badiiy haqiqat bor. Asar kompozitsion jihatdan 3 bobdan iborat bo'lib, ilk bobida asar qahramonlari Qoplonbek va Oymomoning to'y marosimlari shunday mahorat bilan tasvirlanadiki, o'zbegimning so'nmas qadriyatlar, urf-odatlari, rasm-rusmlari o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalanadi. Turkiy xalqlarning qadim dostonchilik an'analari asosida, xalq og'zaki ijodi sifatida, yaxlit doston nomini olgan "Alpomish" dostoni ming yillik tarixga ega ekanligi barchamizga ma'lumdir. Qissada keltirilgan "It g'irillatar" (Alpomish) dostonining Fozil Yo'l dosh o'g'lidan yozib olingen variantida "It irillatar" shaklida qo'llangan) [2,76], "Soch siypatar", "Qo'l ushlatar", "Oyna ko'rsatar", "Kampir o'Idi" kabi marosimlarning ildizi "Alpomish" dostonidagi voqealarga borib taqalishi, asar badiiy qiymatini oshirgan va folklor bilan yanada yaqinlashishiga xizmat qilgan.

Yozma adabiyotning negizida xalq og'zaki ijodining boy merosi yotadi. Aksariyat obrazlarning etimologiyasiga nazar tashlasak, ular xalqning badiiy ijod mahsulidir. Shular jumlasida mumtoz adabiyotda juda keng qo'llanadigan Xizr obrazi ham mifologik qahramonlardan biriga aylangan. "Oydinda yurgan odamlar" qissasiga Harzati Xizr obrazi kiritilishida yozuvchining qissa qahramoni Qoplonning azaliy orzusi bo'lgan farzandsizlik qismatini yoritib berish, qolaversa, Qoplon va Hazrati Xizr suhbati orqali qahramon ruhiy kechinmalari, dil qatlaridagi orzu-armonlarini va shu orqali mazkur tipdag'i oddiy odamlar hayotini tasvirlashni badiiy maqsad qilgan desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, xalq og'zaki ijodi sarchashmalaridan oziqlanmagan, ijodiy madad olmagan birorta san'atkorni uchrata olmaysiz. Biroq bu oziqlanish, madad olish turli ijodkorlarda turlichsha kl va darajada voqe bo'ladi, uni bir xil qolip va shakllar bilan belgilash qiyin.

T.Murod rivoyatning asosiy mazmunini saqlagan holda ularni reallashtiradi. Ya'ni ishtirokchilarning harakat, so'z va hissiyotlarining realistik tasviri orqali ularning ha-

yotiyligini, bo'lgan vaqealarga o'xshashligini ta'minlaydi. Masalan, xalq og'zida So'fi Olloyor Vaxshimordagi ilon saltanati podshosi Oq ilonga bir maktub jo'natib, ularni ushbu joydan ketishga majbur qilgan, degan juda qisqa rivoyatni T.Murod quyidagicha tasvirlaydi:

Emishki, Olloyor ilonlar podshosi Oq ilon nomiga noma bitdi.Nomani yurakliroq bir xalifasiga berdi.

Bor, oq ilon saltanatiga borib kel, - dedi.

Qo'rqaman, taqsir, - dedi xalfa.

Unda saltanat qaribiga tashlab qayt, u yog'iga navkarlari yetkazadi.

*Xalfa nomani qo'yniga soldi.*[6, 530]

T. Murod shu taripa afsona ko'rinishdag'i rivoyatni reallashtiradi. Xalfa shu darajada qo'rqaqidi, o'zini butunlay yo'qotib qo'rgan holda, yo'lda uchragan "navkarlarning" vishillishini ham sezmay to'g'ri Oq ilon - podsho oldiga kirib borganini ham bilmay qoladi...

Albatta, ilonning maktubni o'qishi, mazmunini chaqib, biror xulosa chiqarishiga zamonaiviy kitobxon unchalik ishonmaydi. Shuning uchun ham

T. Murod bu o'ringa realistik bo'yoq beradi.

Tog'ay Murod qissalarida xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan ham unumli va o'rinli foydalanadi. Qissalarda "Ot o'rnini toy bosadi", "Ko'rpangga qarab oyoq uzat", "Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi", "Yon qo'shi ni-jon qo'shni", "Mol egasiga o'xshamasa harom bo'ladi", "Eshak egasini, pishak bekasini tanimas" kabi maqol va matallar o'z ma'nolarida ishlatalib, asar matni, ba'zan qahramonlar nutqining ta'sirchanligini ta'minlagan. Shunisi diqqatga loyiqliki, T.Murod xalq og'zaki ijodi materiaillari asosida, ba'zida esa butunlay original, aforizm xarakteridagi ibora va matallarni to'qib, asar tarkibiga singdirib yuboradi. Masalan, "Ot kishnagan oqshom"da quyidagi original matal va maqollarni uchratish mumkin: "Bir kishiga bir yomon har yerda bor", "Kal o'zini ovutar, qo'ltig'ini sovutar", "Indamagin kalga, o'zi kelar holga", "Yaxshi otan yiqilsa, yomon ta'nachi bo'ladi" va hakozo

Yozuvchi qissalaridagi "kurash", "uloq", "poyga" kabi ming yillardan beri yashab kelayotgan xalq o'yinlari, "yash-inmachoq", "oqsuyak o'yini" kabi bolalar o'yinlari orqali o'sha davr muhitini, xalq turmush-tarzini ko'rsatib berishni badiiy maqsad qilib olgan.

Xullas, yozuvchi o'z g'oyaviy niyati, mahoratiga qarab folklor materialiga turlichha munosabatda bo'ladi. Ya'ni bu o'rinda u folklor materialini aynan ishlatsa, yana bir o'rinda uni shu darajada o'z asarining ruhiga singdirib yuboradi, uni oddiy folklorizmni qayd etish yo'li bilan aniqlab bo'lmaydi. Biroq har ikki holda ham folkloridan foydalanish ijodiy rivojlantirish-novatorlik xarakteriga ega bo'lmog'i lozim. Yozma adabiyotning ilm tarixidan boshlangan ushbu an'anaga qiziqish, uning keng imkoniyatlaridan foydalanish, saboqlaridan o'rganish zarracha ham susaygan emas. Buni yuqoridagi misollar ham ko'rsatib turibdi.

### Adabiyotlar ro'yxati

- Адабий турлар ва жанрлар. III томлик. I том.– Тошкент: Фан, 1991. –384 бет
- Алпомиш. –Т.: Ўзбекистон, 1992. – 76 бет
- Amilova M. "O'zbek sovet adabiyoti folklor an'analari". T., Fan, 1970. 267 bet
- Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – 560 бет.
- Jo'rayev M, Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – T: "Barkamol fayz media", 2017, 180-bet
- Мурод Т . Танланган асарлар: романлар, қиссалар . – Т.: Sharq, 2019. 704 бет

Nasrulloyeva Nasiba,  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent  
axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filiali Tillar kafedrasи dotsenti

## INGLIZ KOMPYUTER VA INTERNET JARGONLARINING YASALISH XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Har bir tilning terminologiyasi mazkur tilning leksik fondi bazasida so'zlar yasash, so'zning leksik ma'nosi ni o'zgartirish, boshqa tildan terminlar o'zlashtirish, boshqa tilda mavjud terminni kalkalash orqali shakllanadi. Jargonlarni o'zlashtirishda ham xuddi shunday xususiyatlar ustunlik qiladi. Professional tillarda terminlar avval professionalizmlarga xos stilistik bo'yodkorlikka ega bo'ladi va o'zining stilistik maqomini izchil oshirib borgani sari avval professionalizmga, keyin esa jargonlarga aylanadi.

**Tayanch so'zlar:** kompyuter, termin, internet, jargon, jargonizatsiya, professional jargonlar, metaforizatsiya, taraqqiyot, xususiyat.

**Abstract.** The terminology of each language is formed by creating words on the basis of the lexical fund of the language, changing the lexical meaning of the word, borrowing terms from another language, making a loan of existing term in another language. The same features can dominate in borrowing of jargons. In professional languages, terms first acquire a stylistic connotation typical of professionalism, and as they gradually increase their stylistic status, they first become professionalism and then jargon.

**Key words:** computer, term, Internet, jargon, metaphorization, development, characteristic, borrowings.

**Аннотация.** Терминология каждого языка формируется путем создания слов на основе лексического фонда языка, изменения лексического значения слова, заимствования терминов из другого языка, путем кальки существующего термина на другом языке. Подобные черты доминируют и в заимствование жаргонов. В профессиональных языках термины сначала приобретают стилистический оттенок, типичный для профессионализма, а по мере того, как они постепенно повышают свой стилистический статус, сначала становятся профессионализмом, а затем жаргоном.

**Ключевые слова:** компьютер, термин, Интернет, жargon, жаргонизация, профессиональный жаргон, метафоризация, развитие, характеристика.

Oxirgi paytlarda tilshunoslikda kompyuter va butun jahon internet tarmog'i terminologiyasiga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar paydo bo'ldi. Kompyuter va internet tizimlarining rivojlanishi jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlar bilan bog'liq axborot olishga asosslangan bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq. "Jamiyatda yuz beradigan har qanday jarayonning aksi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoxud muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi natijasida namoyon bo'ladi" [2,9]. Tilshunoslar ijtimoiy kompyuter va internet terminlarining shakllanish taraqqiyoti ikki yo'nalishda borayotganligini e'tirof etmoqdalar:

**Birinchidan,** kompyuter va internet tarmog'idagi predmet va hodisalarni ifodalash uchun ko'plab yangi tushunchalar paydo bo'lishi, sohaviy mutaxassislardan foydalanilayotgan terminologik leksikan yaratilishiga sabab bo'limoqda.

**Ikkinchidan,** Butunjahon o'rgimchak to'ridan foydalanuvchilarning soni ham ortib bormoqda, ular Internet muloqot qilish uchun o'ziga xos leksika va so'z yasash vositalaridan foydalanishi orqali o'z tilini yaratmoqda [5, 2-14]. Albatta, kompyuter tilining kommunikativ aspekti internetning leksik tarkibidan farq qiladi va o'z xususiyatlari ega.

Kompyuter va internet texnologiyalarining taraqqiyoti, inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa sohalarning rivojlanishi kabi tilda yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Baxtin M.M. aytganidek, "... odamlarning barcha sohalardagi faoliyati tildan foyda-

lanish bilan bog'liq" [1, 159], kompyuter va internet sohasi ham bundan istisno emas, albatta.

D. Saidqodirova ta'kidlaganidek, "Dunyo kompyuter tarmog'i o'zida cheksiz axborot va ma'lumotlarni jammaydi. Internet – bu turli-tuman ma'lumotlar ombordir. Aynan shu imkoniyat Internet foydalanuvchilarini o'ziga jalb etadi", – deb hisoblaydi [8,8]. Darhaqiqat, o'z ahamiyati va dunyo tamadduni rivoji hamda ilmiy-teknikaviy taraqqiyotga ta'siri borasida internet davrimiz axboriy jamiyat timsoliga aylandi.

Zamonaviy terminshunoslikda *professionalizmlar* va *professional jargonizmlar* ajratiladi. Jargonizmlarda professionalizmlardan farqli baholovchi komponent informatsion komponentdan ustun keladi. Shunday bo'lsa-da, ta'kidlangan professional birliklarning tasni-flash mezonlari hanuzgacha bahs-munozaralarga sabab bo'limoqda. Bunda obrazlilik va baholash komponentini aniqlash konkret sub'ektning hissiyotlari bilan bog'liq [3, 124]. "Jargon – biror bir ijtimoiy guruhning faqat shu guruhga xos va boshqa odamlarga tushunarsiz so'zlar va iboralarga boy nutqi (masalan, aktyorlarning j., dengiz j.)" [4, 12 ].

M.Mirtojiyev bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: "Jargon jamoadagi tabaqalanish bo'yicha o'z tabaqasi va qarshi tabaqaga qo'llanadigan terminlardir". Masalan, *aslzoda, oqsuyak, yalangoyoq, qoracha, xo'ja, janob, hazrati oliy* kabi terminlarini ko'rsatish mumkin".

Professional jargon odamlarni kasbiy belgilariga qarab, ijtimoiy guruhlarga birlashtirish natijasida hosil

bo'ladi. Professional jargon paydo bo'lishining sabablaridan biri – "konseptual professional apparatning alohida ajralib chiqishi va ixtisoslashuvi, subyektiv omil rolining kuchayishi; yangi bilimlarni yaratish va uzatish zarurati; ilmiy tajribani oddiy maishiy tajriba holatga o'tkazish" [9, 91].

Qator olimlar internet jargonlarning barcha turli yasalish usullari "inglizcha jargonni o'zining sharoitlariga moslashtirish va doimiy qo'llashga yaroqli qilish uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi.

O'zbekcha kompyuter jargoni turli usullar orqali shakllanadi:

1. Inglizcha so'zni kalkalash va boshlang'ich so'zni talaffuz uchun qulay so'zga aylantirish maqsadida uni fonetik qayta ishlash (*CD-Rom - sidiushka, vintches-ter - vint, administrator - admin, flesh xotira - fleshka, programma - proga, klaviatura - klava, Demo - demka, game over - gamover, bug - bag, device - divays, noob - nub*) va h.k.

2. O'zbek tilida aytilishi jihatidan ingliz va ruscha so'zga o'xshash so'zni qidirish (rus tilida Emelya, mylo E-mail so'zidan, rus tili *sovun* tarzida bo'lsa, o'zbek tilida *ko'pik* tarzida qo'llanilmogda). *File - file, driver - drav, modem - moped, telegram - teleg, Sun Microsystems Computer Corporation - santexnika* va h.k.

3. Inglizcha so'zning so'zma-so'z tarjimasi (*mother board* dan - so'zma so'z. *ona platasi*), *sichqon* (*mouse* dan), *ko'prik* (*bridge*), *SPU tosh* (*CPU stone* dan), kurt(worm), *multisystem* - *multitzim*, *macrocommand* - *makrobuyruq* va h.k.

4. O'zbek tilida biror bir predmetni ifodalovchi so'zni o'ylab topish, masalan, @ – bu simvolni o'zbek tilidagi varianti *kuchukcha* tarzida saqlanib qoldi.

Shunday qilib, kompyuter va internet jargonlarida quyidagi lingvistik vositalar farqlanadi:

umummilliyl tilning birliklari bilan mos keladigan ekspressiv nominatsiyalar. O'zbek tilida dasturiy mahsulotlar, dasturlar, buyruq va fayllar nomlarini bildiruvchi terminlar quyidagi jargonlar orqali ifodalananadi: *qurt, qumursqa, qo'ng'iz, hayvon - kompyuter virusi; glyuk*

- xato, dasturdagi nosozlik; *as'ka* - ICQ dasturi (global tarmoqda yozishma uchun); *dosya* - DOS disk operatsion tizimi; *aybolit* - antivirus dasturi.

(2) metafork ko'chma ma'noda keladigan jargonlar. Ingliz va o'zbek tillarida ko'chma ma'no kompyuter va internet jargonlarida asosiy ma'noning boshqa obyekt sifati, xususiyati tarzida namoyon bo'lishi natijasida paydo bo'lishi kuzatildi. Bilvosita (yoki vositali) nomnatisiyada:

– inson tanasi qismlari nomlari: ingl.:*eyeballs* – veb-saytdan foydalanuvchi; *shoulder surfing* – muhim ma'lumotni olish uchun foydalanuvchilarni yelkasini ustidan (orqadan) qaragan vaziyat va h.k.

– inson faoliyat jarayoni yoki predmetlarda o'xshashliklar: *yaweb dead* – shaxsiy ma'lumotlarni internetdan o'chirish; *internesia* – internetda foydalanuvchilarning holati.

Umumiy jargonni talqin qilishdagi xilma-xillik argolar, jargonlar va slenglarning oddiy xalq nutqida qo'llanganida, ulardagi yorqin ijtimoiy markerlanganlik xususiyatini yo'qotib, o'z ma'nolarini o'zgartirishi bilan bog'liq. Bunda interjargonda ekspressivlar "ochiq-oydin to'g'ri dan-to'g'ri masxara qilish va yashirin peyorativlik" [6,152] dan mahrum bo'ladi hamda sotsiolektizmlar orasidagi chegaralar ma'lum bo'lib qoladi.

Rang bilan bog'liq bo'lgan xolatlar: Kompyuter tizimlarida rang bir necha model bilan tavsiflanishi mumkin bo'lgan xolatlari, asosiy "qizil, yashil, ko'k" ranglarni yagona tarzda birikmasi RGB deb ataluvchi model, ko'pgina kompyuterlarda foydalaniladi. Ularda jargonlarni metaforizatsiya xodisasini kuzatish mumkin: "qizil ishton"; "feruza ko'z", "ko'k osmon"; oq yig'im - Amerika, Yevropa va boshqa joyda ishlab chiqarilgan kompyuter va modeollar; sariq yig'im - Xitoy, Singapur va boshqa joyda ishlab chiqarilgan kompyuter va modeollar. Kompyuter va internet leksikasi tarkibiga terminologiyadan iborat adabiy leksika hamda kompyuter professionalizmlari va jargonizmlaridan iborat noadabiy leksika kiradi va har ikkala toifadagi leksika o'z vazifasini bajaradi va o'z qo'llanish sohasiga ega.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. Бахтин М. М. Собрание сочинений в 7 т. Т. 5. Работы 1940-х - начала 1960-х гг. / ред.: С. Г. Бачаров, Л. А. Гоготишивили. Ин-т мировой лит. – Москва. 1997. – С. 159.
2. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам // Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. – Москва: МГУ. 1971. – С. 9.
3. Елистратов А.А. К проблеме стилистической стратификации спортивной лексики // Филологические науки. Вопросы теории и практики. - № 1 (5). 2010. – С. 124.
4. Ефимова О.А. Происхождение и словообразование жаргона пользователей сотовых телефонов // Вестник Вятского государственного университета. 2. - № 4 – Ташкент. 2009. – С. 47.
5. Қодирбекова Д. Инглизча - ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Фал.фан.ном...диссер. – Тошкент. 2017.
6. Липатов А.Т. Сленг как проблема социолексики. – Москва. 2010. – С. 152.
7. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ. 2000. – Б. 54 - 58.
8. Сайдқодирова Д.С. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи. Фалсафа. фанлари номзоди ...дис. – Тошкент. 2017.– С. 10.
9. Терских Н.В. Профессиональный жаргон как одна из форм существования языка // Язык и социальная динамика. - № 10 - 1. 2010. – С.91.

**Vohidova Mushtariy,**  
*TerDU erkin tadqiqotchisi*

## JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGI ASARLARINING YUKSAK MAFKURAVIY-TAFAKKUR YO'NALISHI BILAN

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sharq va G'arb adabiyotining qarashlari tahlilga tortilgan. Badiiy asarlardagi obrazlarni qiyosiy va chog'ishtirma tahlil qilishning amaliy ko'nikmalarini egallashini hamda umumgumanitar dunyoqarashni kengayishiga xizmat qilishi haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, obraz, filolog, atamalar, qiyosiy adabiyot

**Аннотация.** В данной статье говорится о том, что Восток и Запад приобретают практические науки сравнительного и сравнительного анализа образов в произведениях, а также служат расширению общегуманистического мировоззрения.

**Ключевые слова:** литература, образ, филолог, термины, сравнительная литература.

**Annotation.** This article states that they have practical skills in comparative and comparative analysis of images in Eastern and Western works, as well as serving to expand the overall humanitarian worldview.

**Keywords:** literature, image, philologist, terms, comparative literature.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda adabiyotlarni qiyoslab o'rghanish - bu zamонавиyl filologiyaning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Xususan qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi bo'lajak filologlarda adabiy aloqa shakllari hamda uning qonuniyatları haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, badiiy asarlardagi obrazlarni qiyosiy va chog'ishtirma tahlil qilishning amaliy ko'nikmalarini egallashini hamda umumgumanitar dunyoqarashni kengayishiga xizmat qiladi.

Har bir sohada bo'lgani kabi adabiyotshunoslikda o'ziga xos tushunchalar va zaruriy nazariyalarga egadir. Adabiyotshunoslikda ham shu kabi termin, tshuncha, qonuniyatlar va konsepsiyalarni uchratishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ilmiy tadqiqot ishimizning yanada aniqroq tushunchalar va nazariyalar bilan boyitishimizni ta'minlab beradi. Shu bilan birgalikda, ilmiy tadqiqot ishimizning maqsadini analitik-qiyosiy o'rganishimizga ham yordam beradi.

Tadqiqot ishimizning mavzusidan kelib chiqib adabiyotshunoslikda ko'p uchraydigan Sharq va G'arb adabiyotining qiyoslanishi, ya'ni "Jahon adabiyoti" tushunchasi muhim hisoblanib, uning tub ma'nosini anglashimiz esa ishimizning asl mohiyatini ochish berishimizni ta'minlaydi. Aniq fanlar uchraydigan atamalar va tushunchalarga nisbatan adabiyotshunoslikdagi atamalarning ko'p ma'noli, murakkab, o'zgaruvchan, ba'zida esa bir-biriga umuman to'g'ri kelmaydigan ma'nolarga ega bo'lishini qayd etadilar. Lekin adabiyot nazariyasida ham, tarixida ham uchraydigan ma'lum bir darajadagi isbotsiz qabul qilinadigan tushunchalar mavjud bo'lib, ular o'zi anglatadigan ma'no-mazmunlarida yetarli darajada aniq-ravshan shakllangan bo'ladi. Har bir tushuncha, qonuniyat yoki konsepsiya nisbatan o'rganish ishlari olib borilgan, ushbu o'rganish ishlari esa ularga bo'lgan qiziqlichlarni anglatadi. Xususan, adabiyotshunoslikda "jahon adabiyoti" tushunchasiga nisbatan

ham o'zoq vaqt davomida qizg'in bahs-munozaralar bo'lган. Bu esa o'z navbatida uning fan sifatida XIX asrda to'liq shakllanishiga olib kelgan. XX asrning boshlaridayoq ilk bor I.V.Gyote tomonida iste'molga kiritilgan "Weltliteratur" ("jahon adabiyoti") iborasi doimiy tarzda ishlatila boshlaydi, bu esa endilikda jahon adabiyoti tushunchasi birinchi darajali ekanligini anglatadi hamda milliy adabiyotlarga bo'lgan qarashlar esa pasaytiradi va o'z ahamiyatini yo'qotayotganini anglatardi.

I.V.Gyote aytgan fikrning birinchi qismi haqiqatga ancha yaqin bo'lishi mumkin, boisi chindan ham XIX asrda boshlab butun dunyo bo'ylab, shu jumladan G'arb mamlakatlarida ham, ma'naviy va madaniy boyliklar bilan o'rtoqlashish jarayoni ancha kuchaya boshladi. Lekin milliy adabiyotlarning o'z ahamiyatini yo'qota boshlaganligi haqidagi fikr-mulohazalariga qo'shilish esa biroz qiyin edi. Chunki aynan o'sha davrdan boshlab milliy mafkura tushunchasi rivojlanma boshlaydi, qolaversa millatlarning shakllanishi va rivojlanishi mobaynida dunyo xalqlari adabiyotlarida ham chegaralar belgilangan edi. Haqiqatan ham XIX asrda bir vaqtning o'zida ham jahon, ham milliy adabiy ongning rivojlanishi, bir-biriga yaqinlashishi kuzatilgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan esa adabiyotlarning aniq chegaralari belgilab quyilgandi.

"Jahon adabiyoti" tushunchasining paydo bo'lishi milliy adabiyotlar bilan qiyoslaganda yangi bir bosqichni boshlab beradi. Shuni ta'kidlab o'tishiz kerakki, adabiyotshunoslikda umumiylikni milliylikka qarama-qarshi qo'ymaslik kerak. Bunaqa holatda adabiy jarayonlarning hodisalarini barchasini, misol uchun milliy aspektga ega bo'lmagan antik davr adabiyotini qamrab olib bo'lmaydi.

Jahon adabiyoti, shunchaki mahalliy yoki milliy adabiyotlarning yig'indisi sifatida qaralmaydi, aksincha, bu kabi qarashlar juda ham keng tarqalgan bo'lib, ko'plab

tadqiqotlarda, xususan, V.Shlegel (1801-1804) ning ma'ruzalaridan boshlab O.Valsel yoki K.Vays, Yulius Xart, P.Vigler, Jakomo Prampolinilarning adabiyoti tarixiga oid asarlarida, Raymon Keno rahbarligicha chop etilgan "Pleyada" ensiklopediyasida ham uchratishimiz mumkin bo'ladi. Jahon adabiyotini shu ma'noda tushunish esa bugungi kunlarda ham, eng avvalo G'arb adabiyotining tarixiga oid asarlarda ham uchrab turadi, buni eski G'arbdagi yevropotsentrik konsepsiyaning asorati deb qabul qilish mumkin, garchi davrimiz, umumjahon-tarixiy xarakterga ega ekanligi barchaga ayon bo'lsa-da.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin, jahon adabiyoti deyilganda milliy va mahalliy adabiyotlar bilan qiyoslaganda yangi bir bosqichni tushunishimiz mumkin bo'ladi, lekin bu milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari nisbatan bepisand qarash kerak degani emas, chunki mohiyatan olganda aynan ular adabiyotshunoslikdagi umumiyligining asosini tashkil qiladi.

Jahon adabiyotidagi asarlarda o'sha davrga xos barcha adabiy xususiyatlarni o'zida aks ettirishi, asarning badiiy obrazlarining tasvirlanish metodlari hamda asarning boshqa zamonlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi bu nodir asarlarning o'ziga xos mafkuraviy-tafakkur qilinishini anglatuvchi muhim omillardan biri sifatida aytishimiz mumkin bo'ladi. Zero, har bir zamonning o'zida takrorlanmas badiiy ta'sir darajasi mavjud bo'lib, uni davrlar o'zgarishi bilan yanada qiyosiy tahlil asosida chuqur anglasimizga imkon bo'ladi.

Jahon adabiyotshunosligida Sharq va G'arbdagi noyob durdona asarlar bo'lishiga ham aynan o'z davridagi nafis badiiy-estetik tasvirlarning ta'siri ni-hoyatda katta ahamiyatga egadir. Sharqona madaniyatning o'zgacha namoyon bo'lishi, milliy qadriyatlarning benazir tasvirlanishi, badiiy asarlarning syujeti, badiiy obrazning qurilishi, uslubiyati hamda g'oyaviy mazmunini qiyosan o'rganish imkoniyatini mavjudligi fikrimezning isbotida aytishimiz mumkin. G'arbdagi esa qiyosiy adabiyotshunoslik tarixidagi ilk bor tajribalar XVIII asrda Germaniyada amalga oshirilgan bo'lib, unda turli millatlarning ma'naviy-madaniy hamda adabiy an'analarni qiyoslagan nemis olimlari yagona Yevropa va jahon "madaniy makoni" mavjud, degan xulosaga keladilar.

Adabiyotlararo aloqalar, avvalo, tarixiy hodisa sanaladi. N.I.Konrad aloqalarning bir butun adabiy jayondagi ko'lami, roli, shuningdek, ayrim xalqarning adabiyotlari tarixidagi mohiyati turli davrlarda va har hil tarixiy sharoitlarda turlicha ekanligini ta'kidlaydi.

Jahon adabiyotshunosligining rivojlanishida bosqichli-tipologik o'xhashliklar, ayniqsa, bir-birlari bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro uzviy bog'lanish yoki ta'siri bilan aloqada bo'Imagan adabiyotlardagi alohida asarlar, janrlar va uslublarda, umumiy ijtimoiy-tarixiy sabablar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan u yoki bu darajadagi o'xhashliklar namoyon bo'lganda aniq-ravshan ko'rnadi.

Jahon adabiyotshunosligining yuksak mafkraviy-tafakkur bilan ajralib turishligini G'arbdagi yashab ijod qilgan olimlarning fikr-mulohazalar, sharqqa bo'lgan qiziqishlari va asarlarining sharq madaniyatlar-

ga, an'analariga yo'naltirilganligi bilan ham anglashimiz mumkin bo'ladi. Namuna sifatida I.V.Gyotening quyidagi gaplarini keltirishimiz mumkin bo'ladi:

"G'arb va Sharq adabiyotlarining boyib rivojlanishin ularning bir-biri bilan yaqinlashuvidadir. Sharq bilan G'arb, o'tmish bilan hozirgi zamon, ularning urf-odatlari, an'analar, milliy qadriyatları, muloqat va mushohadarini biri orqali ikkinchisini tushunishni maqsad qilib qo'yadi."

I.V.Gyote "Mag'ribu mashriq devoni" asarida sharqning buyuk shoirlari sifatida Hofiz, Nizomiy, Firdavsiy hamda Sa'diy ijdolarini nozik did bilan talqil qilib, falsafiy lirika janrlarini yaratadi. Shu bilan birga shoirlarning devoni sharq va g'arb poeziyasi bir-biriga yaqin umum-bashariy adabiyot ekanligini ham isbotlab beradi.

Ushbu harakatlari bilan sharq adabiyoti san'atining har tomonlama mushohada qilib, qiyosiy ta'riflab, uni jahon adabiyotshunoslikning eng yuqori cho'qqisiga olib chiqadi. Bu esa o'z navbatida asarlardagi tafakkurning eng oliy darajasini belgilab beruvchi omildir.

Aminmizki, Sharq adabiyoti o'zining mahorati, mahobati bilan ajralib turadi. Sharqning asosiy namoyondalariga Firdavsiy, Nizomiy, Attor, Rumiy, Hofiz, Sa'diy, Umar Xayyom, Rudakiy, Jomiy, Dehlaviy kabi shoirlarni keltirishimiz mumkin bo'lib, ularning badiiy-estetik ta'siri nafaqat Sharq xalqlari, balki dunyoning ko'pgina ilg'or mamlakatlarining adabiyotiga qadar yetib borgan.

Xususan, shu o'rinda I.V.Gyote Sharqning yetti ulkan shoirlari haqida juda baland fikrlarni bayon qilgan: "Sharqning 7 ulug' shoiri bor, bu safga kirmaganlarning allaqanchasi ham mendan buyukroqdir... Yana jahon she'riyatida 7 yulduz bor, ularning barchasi Sharq shoirlaridir."

Sharq adabiyotshunosligidagi asarlarning mafkurasi – bu yoshlarning ma'naviy barkamol, sharqona odob-axloqli, faol, ma'suliyatli, ona-Vatanga sadoqatli bo'lib yetishishi jamiyat, davlat taqdiri uchun g'oyat muhimlida namoyon bo'ladi.

Adabiyotning o'ziga xos belgilari hozirgi kungacha muhokama qilib kelinmoqda. Lingivistikaning qo'shima-chi darajalari, gapdan amaliy kontekstning ajratilishi, dunyoga badiiy bog'liqlik - hammasi "Tilning estetik vazifasi" nomli umumiy sarlavha ostida kelishi mumkin. Estetika san'at nazariyasining tarixiy nomi bo'lib, go'zallik san'atning obyektiv xususiyatimi, yoki tomoshabinlarning subyektiv javobimi, go'zallikning haqiqat va yaxshilikka bog'liqligi degan muhokamalariga sabab bo'lgan.

Zamonaviy G'arb adabiyotida estetikaning asosiy nazariyachisi bo'lgan Immanuel Kant uchun estetika bu - moddiy-ma'naviy dunyo, kuchlar dunyosi va g'oyalar dunyosi o'rtasidagi farqni qisqartirishga urinishdir.

Jaxon adabiyotini qiyosiy tarixinining asosiy dastlabki sharti insoniyatning ijtimoiy-tarixiy jihatdan rivojlanish jarayonining birligi bo'lib, u o'z navbatida g'oyaviy mafkuralardan biri bo'lgan adabiyot rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqdir.

Adabiyot hamda mafkura o'rtasidagi munosabati qanday bo'lishini quyidagicha izohlashimiz mumkin bo'la-di: Muayyan mafkura ko'zlagan maqsad ancha yaqin, faqat unga ma'lum bir vaqtida erishiladi. Ya'ni, agar asar

konkret mafkuranigina targ'ib etishga xizmat qilgudek bo'lsa, uning umri o'sha maqsadga yetilgunga qadar bo'ladi xolos. Holbuki, chinakam badiiy asar esa mangulikka intilmog'i lozim, qolaversa u vaqt e'tibori bilan davr o'zgarishi bilan ham uning maqsadlar doirasida qolib ketolmaydi. Mutaxassislar G'arb ma'rifatchilikini "adabiy, falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konsepsiya", yangicha dunyoqarashni shakllanshiga asos sifatida mafkurani hisoblaydilar. Yangi mafkuraning o'zagini esa "faqtgina insonning aql-u zakovati dunyonи o'zgartirishi mumkin", degan qarash tashkil qiladi. Muayyan ijtimoiy

sharoit mahsuli sifatida dunyoga kelgan bu mafkura jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, adabiyot va san'atda tub o'zgarishlarni yasadi. G'arbda ma'rifatchilik g'oyalari ta'sirida yangicha estetik tamoyillarga tayangan adabiyot shakllandiki, uning asosida "dunyonи va insonni o'zgartirishga qodir g'oyaviy adabiyot kerak", degan mushohada yotadi. YA'ni, boshqacha qilib ayt-sak, ma'rifatchilarning ijtimoiy ideali - "inson tabiatи va "aql"ga muvofiq jamiyat qurish" ma'rifatchilik adabiyotining estetik idealiga aylandi. Bu esa adabiyotning-da shunga muvofiq holda o'zgarishini taqozo qildi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Weltliteratur – жаҳон адабиёти ана шундай тушунчалардан бири. ҳисобланади. Zur Weltliteratur werden literarische Werke gezählt, die über nationale und regionale Grenzen hinweg große Verbreitung gefunden haben und die gleichzeitig als für die Weltbevölkerung bedeutsam erachtet werden.
2. Г.Халлиева, С.Султонсаидова, Ю.Бобокулов, Д.Расулмуҳаммедова, М.Қўчқорова. Адабиётшунослик фанидан Ўкув-услубий қўлланма. ТОШКЕНТ 2018. 23 бет.
3. О. Қаюмов ва Қ. Азизов Чет эл адабиёти тарихи. (XVIII XX асрлар) Т. 1987 й.
4. Конрад Н.И. Запад и Восток. - М.: Наука, 1972. - С.319.
- 5.Гёте. "Шарқ мотивлари" асаридан.

I.S. Qilichev

TFI akademik litseyi direktori

## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA O'QITISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Oliy ta'lismuassasalarida kredit-modul asosida ta'lismarayonini tashkil etishning o'qitish mehanizmini takomillashtirish, kredit-modul tizimining asosiy xususiyatlari, Kredit-modulli tizimni amalga oshirishda «modul» tushunchasining o'rni haqida mualifning tavsiya va fikrlari ilmiy asoslab ko'rsatilgan. Maqola ilmiy adabiyotlar va xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida yorilgan.

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul, Bolonya deklaratsiyasi, reyting, kredit, kompetensiya.

**Аннотация.** В данной статье представлены рекомендации и мнения автора по совершенствованию педагогического механизма организации кредитно-модульного учебного процесса в вузах, основных чертах кредитно-модульной системы, роли концепции «модуля» в реализации кредитно-модульной системы. Статья основана на анализе научной литературы и зарубежных исследований.

**Ключевые слова:** Кредитный модуль, Болонская декларация, рейтинг, кредит, компетентность.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmon1i bilan tasdiqlangan2 «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi»ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi ryejalashtirilgan.

Bu yaqin yillarda davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Oliy ta'lismuassasalarida ta'lismarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimi, modulli ta'lismarayonining texnologiyalari va kredit ta'limi sohalarining kombinatsiyasiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish modulidir. Ta'lismarayonini tashkil etish va amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab tizimdir. Kredit-modul tizimi Bolonya deklarasiyasining ajralmas qismi sifatida oliy ta'limda quyidagi funksiyalarni amalga oshiriladi:

1. Talaba va professor-o'qituvchilarning mobilligini ta'minlash va oliy ta'lim tizimida tanlovni osonlashtirish.

2. Talaba tomonidan barcha o'quv va ilmiy faoliyat turlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ish hajmini aniq belgilash.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida pedagog ma'lumot manbai hisoblanib, talaba ta'lismarayonining ob'ekti va shu bilan birga axborotni idrok etish va o'zlashtirish sub'ekti bo'lganligi sababli, o'quv jarayoni asosan ta'lim berishga yo'naltirilgan. Axborot ta'minotini rivojlanishning hozirgi holati ma'lumot manbalariga kirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi va shu bilan birga ta'lismarayonini mustaqil tashkil etishda birmuncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi3.

Shundan kelib chiqib, kredit-modul tizimida asosiy e'tibor ikkita muhim xususiyatga qaratiladi:

- talabalarning mustaqil ta'limi;

- o'quv jarayonini nazort qilish va baholashning reyting tizimi.

Kredit-modulli tizimni amalga oshirishda "modul" tushunchasini mazmunan to'dirib borish muhim o'ringa egaligi tizimning joriy etilishi talabaning samarali ishini rag'batlantirishning muhim omilidir. Modullar ma'lum bir kasbiy faoliyat ob'ektiga muvofiqlik belgisi bilan birlashtirilgan ta'lif elementlari tizimi sifatida ishlab chiqilgan. Talabaning aqliy faoliyatni jarayonida ma'lumot bilan ishlashga imkon beradigan mustaqil mantiqiy tuzilishga va tarkibga ega bo'lgan ma'lum miqdordagi ma'lumot sifatida qaraladi. O'quv jarayonining mazmunini modulli tashkil etish har bir dastur bo'limlarini o'quv modullariga mexanik ravishda uzatish tushuniladi, chunki bu fanning semantik mazmuni, uning tizim sifatida tuzilishi bo'yicha chuqur analitik va mantiqiy ishlarni talab qiladi.

Ta'lif jarayonini tashkil etishda kredit-modul tizimi fanning mazmunini modullarga bo'ladi (semestrda 2-4 modul), ya'ni o'quv jarayoni modullar tizimi sifatida shakllanadi. O'quv jarayonini tashkil qilishda modul tamoyilini amalga oshirishning ikkinchi sharti - bu kasbiy kompetensiyani shakllantirish orqali, har bir modulni o'zlashtirishga qaratilganligidir.

Talaba - mutaxassis sifatida ma'lumotni tushunish va o'zlashtirishi, balki amalda qo'llash va qaror qabul qilish usullarini ham bilishi muhimdir. Bunda qo'llaniladigan ma'lumotdan tashqari to'g'ridan-to'g'ri pedagog rahbarligida talabalarni interaktiv shakllar va usullardan foydalangan holda, faoliyatni laboratoriyalarda va ishlab chiqarish ob'ektlarida tashkil etiladi.

yevropa amaliyoti pedagog ta'lif ob'ekti, shuningdek ta'lif tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, o'quv jarayonida yuqori faoliytkni ta'minlaydigan shaxs sifatida nazarda tutiladi. Bu jarayonda talaba o'zini o'zi anglash darajasi yuqori bo'lishi, ikkinchidan, talaba va o'qituvchi o'tasidagi munosabatlar belgilanadi. Talaba predmetdan predmetga oldindan belgilangan traektoriya bo'ylab harakatlanadi va modullarni o'zlashtirishga imkoniyat yaratiladi. Bu esa majburiy fanlardan tashqari, individual o'quv dasturini shakllantirishni taqozo qiladi. Demak, talaba individual ehtiyojlarga yo'naltirilgan ta'lif yo'nalishini shakllantirib, o'quv jarayonida mehnat intensivligining o'lchovi bo'lgan kreditlar tegishli mavzular bo'yicha individual yoki guruhli loyihalarni ishlab chiqish va himoya qilish orqali o'zlashtiriladi.

Oliy ta'lif tizimida kredit-moduldan foydalinish quydagi afzalliklarga ega:

- bir vaqtning o'zida o'rganiladigan fanlarning modullarga biriktirilishi, pedagogik jarayonning individualizatsiyasi, amaliy yo'nalish, shuningdek talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- zamonaviy standartlar asosida mobil, malakali mutaxassislarni tayyorlashga imkonini beradi.

Kredit-modulli tizimni amalga oshirishda "modul" tushunchasini mazmunan to'dirib borish muhim o'ringa

ega. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, modullar bir nechta variantda, tematik yoki tashkiliy-tarkibiy principga muvofiq shakllantiriladi.

Modul quydagi hususiyatlarni o'z ichiga oladi: birinchidan, ta'lif dasturining bir qismi sifatida ma'lum bir-biriga bog'liq yaxlitlikni tashkil etadigan fanlarning bloki bo'lib, bunda dasturning umumiy tuzilishi doirasida mantiqiy tuzilma hisoblanadi. Modulning hajmi uning tematikasi bilan belgilanadi. Shuningdek, modul malaka xarakteristikalari talablariga javob beradigan o'quv fanlar to'plamini aks ettiruvchi yo'nalish sifatida o'quv dasturining asosiy qismi sifatida talqin etiladi.

ikkinchidan, o'quv jarayonining mustaqil tashkiliy va uslubiy tarkibiy qism bo'lib, didaktik maqsadlarni, o'quv materialining mantiqiy yakunlangan birligini, uni ishlab chiqish uchun uslubiy ko'rsatmalarni va boshqaruv tizimini aks ettiradi. Bunda modullarning kombinatsiyasi fanning o'quv-uslubiy majmuasini tashkil etadi.

Bugungi kunda "modul" atamasi ko'pincha o'quv jarayonining o'quv va kasb-hunar o'quv dasturining (EEP) normativ qismini anglatadi. Shakllangan an'analarga ko'ra, modul kursning bir qismi, yoki yakunlangan qismi sifatida tushuniladi.

Har bir modulni o'zlashtirish, ya'ni unda belgilangan vazifalarni bajarish fanni o'rganish natijasida berilgan yakuniy bahoning bir qismi bo'lib reytingga asoslanadi. Yevropa universitetidagi har bir kurs uchun berilgan umumiy ball odatda kumyulitiv ta'sirga ega bo'lgan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat. Masalan, umumiy balning 30% talabaning ma'ruba va seminarlardagi akademik faoliygiga, 30% - oraliq test natijalariga (ma'lum mavzudagi insho, mustaqil ish, test shaklida oraliq nazorat, va boshqalar) va 40% - sinov-imtihonlar uchun belgilanadi. Ko'p darslarni qoldirgan, oraliq nazoratdan muvaffaqiyatli o'ta olmagan talaba imtihonda qoniqarli baho olgandagina kursni yakunlashi mumkin. Aksincha, joriy topshiriqlarni bajarish jarayonida faol bo'lgan va yuqori reytingni to'plagan talaba, imtihonda to'liq javob berolmagan taqdirda ham, yakuniy bahoga ega bo'lish imkoniyati mavjud4.

Kredit-modulli tizim sharoitida har bir modul o'quv dasturining yakunlangan segmenti sifatida, o'zlashtirish natijasi bo'lib, talaba tomonidan ma'lum bir kompetensiyalar to'plamini egallash tushuniladi. Egallangan malaka sinovdan o'tkazilishi va baholanishi kerak. Baholanish har bir ta'lif dasturi yoki kurs davomida amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa o'rnida 2020-2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekistonidagi barcha ta'lif muassasalarida maskur tizim joriy qilingan bo'lib Kredit-modul tizimi xalqaro tajribadan o'tgan tizim hisoblanib talabaning asosiy bilim funksiyasini mustaqil ishlash orqali amalga oshirishi ahamiyatli.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsyepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan «Ta'lif to'g'risida»gi O'RQ-637-sonli Qonuni
3. Bolonskaya konvensiya // NGTU Inform. 2002. N 8(114).
4. Bolonskomu protsessu v Rossii byit! ili kazatsya? // Delovoy mir, 18.12.2007 Davyidov Yu.S. Bolonskiy protsess i rossийskie realii. M., 2004. S. 67.

Zohida Tursinova,  
A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot  
instituti tayanch doktoranti

## MAKTAB INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI BAHOLASH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi modernizatsiya jarayonida ta'lism sifatini oshirish, buning uchun esa o'qituvchilarning o'z ustida uzlusiz ishlashiga qaratilgan masalalar, ularning pedagogik kompetentligi va bu tushunchaning mazmun-mohiyati hamda shart-sharoitlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kompetent yondashuv, ta'limi modernizatsiyalash, pedagogik vogelik, kasbiy kompetentlik, ta'lim muammo-lari.

Hozirgi zamон sharoitlarida ta'lim muassasalarida o'qituvchining sifat jihatidan mukammal tayyorgarligiga ehtiyoj sezilmоqda, bu esa kasbiy boshlang'ich bilimlarning asosini innovatsion fikrлаsh va amaliyotga yo'naltirilgan, muayyan ta'lim muammolarini hal qilishda ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yondashuv bilan birlshatirishga imkon bermoqda. YUNESKO ma'lumotlarida ta'limga kerakli natijasi sifatida ko'rib chiqiladigan bir qator kompetensiyalar keltirilgan.

Kompetent yondashuv oliy ta'limi modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik vogelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birlilklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limga an'naviy uch elementi (triada) - "bilim - ko'nikma - malaka"ni oltila birlik (sekstet) - "bilim - ko'nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik" tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab "kompetensiya" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) - sub'yeqtning maqsadni qo'yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "kompetensiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiyo'rta ta'lim bilan bog'liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo'lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

1. Jomonov R. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish va imlo muammolari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2013.
2. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2014.
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent, 2010.
4. Superenskaya A.V. O'zlashgan so'zlar va amaliy transkripsiya. – Moskva: Nauka, 2012.

Kamola ALAUTDINOVA,  
O'zbekiston milliy universiteti Ingliz tilshunosligi  
kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

## NUTQIY FAOLIYAT MULOQOT NEGIZI SIFATIDA

Tilshunoslik rivojlanishining hozirgi bosqichi til birliklarini ma'lum voqelik holatiga muvofiq qo'llanilishi ni o'rganish, turli vaziyat jarayonlarida so'zlovchining nutqiy muloqot maqsadini hisobga olgan holda tilga antropotsentrik yondashuvning afzalligi bilan tavsiflandi. Bu kabi tilga oid tadqiqot yo'nalishi tilshunoslik tizimining asosiy birligi sifatida so'zning pragmatik jihatdan o'rganishilishini taqozo etadi.

*Ta'kidlash joizki, muloqot mazmuni bilan bog'liq masalalarini o'rganish obyektiga aylangan matn lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning asosiy ilmiy paradigmalariga muvofiq bir necha yo'nalishda keskin rivojlanayotganiga guvoh bo'lamiz. Matnni o'rganishda muhim bo'lgan bir nechta jihat, jumladan, tarkibiy, kommunikativ va lingvomadaniy yondashuvlar, uning o'ziga xos xususiyatlari va turlari yoritilgan. Tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, matnda ifodalangan ma'no qirralarini tushunish uchun uni bir qator aspektlar nuqtayi nazaridan o'rganish maqsadga muvofiqdir.*

Nutqiy faoliyatni nafaqat zamonaviy tilshunoslik, balki uning sohalaridan bo'lmish psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik jabhalari uchun ham o'rganish muhim sanaladi. Nutqiy muloqotda qo'llaniladigan ko'plab terminlar ma'nolari pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik sohalari nuqtayi nazaridan ham talqin etiladi. Bu kabi tushunchalar qatoriga diskurs terminini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Ushbu tushunchaning tilga nisbatan keng ma'noga ega bo'lishiga, bu borada ko'plab tadqiqotlarning turli aspektlarda olib borilganligi sabab bo'ldi. A.A.Potebnyaning fikricha, "tilning rivojlanish jarayoni so'zlarda ifoda etilgan poetik va prozaik fikrlarning almashinuvidir". Binobarin, muloqotda fikrning ifoda etilishi ijodiy jarayon bo'lib, predmetning inson ongida turlicha aks etishi sinonim so'zlarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Bunday jarayon, bir predmetning ma'lum bir tilda turlicha nomlanishi nutq boyishini ta'minlaydi. Aslida, fikrlar mohiyati va ong munosabatlari so'zning ichki shaklini tashkil etadi. So'zlarning paydo bo'lishi, xilma-xilligi predmetning inson tafakkurida qanday namoyon bo'lishi bilan bog'liqidir. Bu borada ma'lum bir to'xtamga kelish uchun boshqa tilshunoslik muktablarining ilmiy qarashlariga nazar solsak. Qozon lingvistik maktabi vakili N.V.Krushevskiy nutqning ravonligini ta'minlovchi turli so'z turkumlariga oid har xil ma'nodagi so'zlar izchilligi – "til – ishoralar tizimi [1: 420]" degan g'oyani ilgari surgan. B.N.Golovin esa, "nutq – til qoidalari hamda ifoda etilgan ma'lumot tabablariga muvofiq qurilgan til ishoralarining izchilligidir", deb ta'kidlaydi [2: 22]. Keyinchalik u, "nutqning tashqi ko'rinishi – matnning qoidaga muvofiqligi; nafaqat til tuzilishi va uning tarkibi, balki tilga oid bo'lmagan ma'no-

larga ham ega" ekanligini ta'kidlab, uni til materiali va unga xos bo'lgan qoidalar asosida qurilgan deb ta'riflaydi [2: 22]. Bu o'rinda yana shuni ta'kidlash lozimki, F. de Sossyur e'tirof etganidek, nutq yoki nutqiy faoliyat ikki tomonidan iborat bo'lib, biri individual, biri esa ijtimoiydir [3: 15]. Demak, diskursni nutqiy faoliyatda fikrlarning ketma-ket vaziyatga muvofiq bayon etilishi bilan bog'liq hodisa deyish mumkin.

Nutqiy faoliyat insonyiatning jamiyatdagi eng asosiy vositalardan biri bo'lib, muloqotning negizi hisoblanadi. U nafaqat nutq tovushlaridan tashkil topgan so'zlar, balki imo-ishoralar, turli nutq tovushlariga xos bo'lmagan taqlidiy tovushlardan ham iborat bo'lishi mumkin.

Nutqiy faoliyat tarixiga nazar solar ekanmiz, insoniyatning qadimgi ajdodlari nutqning noverbal shaklidan foydalanishganligiga guvoh bo'lamiz. Bunga qadimgi bitiklar dalil bo'la oladi [4: 35]. L.A.Vvedenskaya hamda P.P.Chevinskylarning fikriga ko'ra [5: 57], jest, ya'ni imo, ishora ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan yoki biror bir ma'noni anglatishda qo'llanilgan hayvonlar harakatiga taqlid tovush kompleksiga sabab bo'lib, nutqdan oldin paydo bo'lgan [6: 57]. Shu sababli bo'lsa kerak, insoniyat haligacha imo-ishoralardan og'zaki nutq muloqoti jarayonida foydalanib kelmoqda [7: 264].

V.G.Kostomarov va N.D.Burvikova diskursiya (ma'lumotni qabul qiluvchi tafakkurida matnning aks etish jarayoni) bilan diskurs (adresant jo'natgan matn mazmunining qabul qilingan ma'no bilan mos kelishi natijasida xabarni qabul qilish) tushunchalarini bir-biri bilan taqqoslaydi. Ushbu tushuncha mantiqiy-falsafiy an'anaga mos kelib, unga ko'ra, diskursiv va intuitiv, ya'ni, aql-idrok hamda mulohaza yuritish natijasida olingan bilimlar majmuyi sanaladi. Shuningdek, diskurs mantiqiylik, tartiblilik hamda ifoda etilgan fikrga muvofiqlilik kabi xususiyatlarni o'zida aks ettirib, til haqidagi bilimlarga ega bo'lish bilan birga so'zlarning tuzilishi (til ishoralarini) va ularning mantiqiyligi xususida ma'lumot beradi. Nutqiy faoliyat tafakkur hosilasidir. Tafakkurgacha bo'lgan daraja esa ko'rgan nar-salarni anglash, idrok etish jarayonidir. Bu xususda B.I.Kosovskiy quyidagi fikri bildiradi: "...nutq va tafakkur o'rtasida oraliq zanjir yo'q. Nutq va tafakkur bu – bir voqeanning ikki tomoni" [6: 57]. Garchi, nutqda o'z aksini topgan fikr bilan ongning yashirin munosabati ifodalanadi. Inson ongida yashirin nutq, ya'ni ifodalanmagan fikr ham mavjud.

L.I.Skvorsovnning izohlashicha, "tilning kelajagi bugun, nutqiy vositalarning qo'llanilish jarayonida, jonli muloqotda yaratiladi" [8: 57]. Shu sababli ham lingvistik qarashlar jonli tilning evolutsion mexanizmi muammosi bilan chambarchas bog'liq.

B.I.Kosovskiy nutqiy faoliyatdagi ichki fikri "yashirin nutq", deb baholaydi [6: 69]. V.Gluxov va V.Kovshikovlar

esa uni “nutqiy faoliyatni xarakterlovchi omil, ya’ni faoliyatning bir formasi”, deb izohlaydi [9: 25]. Yana shuni inobatga olish kerakki, nutqiy faoliyat tilga oid jarayon bo’lib, ma’lum bir vaziyatlarda tilni qo’llay bilish qobiliyatini anglash va, qolaversa, nutq tuzishda zarur bo’lgan inson organizmining psixofiziologik faoliyati majmuyidir. Ma’lumot berish, ya’ni nutqni ifoda etishning o’zi bir nutqiy faoliyat. U inson faoliyatlarining bir shakli bo’lib, insonning muloqot paytida ongli-kommunikativ ehtiyojlarini ta’minalashga yo’naltirilib, til vositasida shakllantirilgan yoki ifodalangan fikrni faol, maqsad hamda faktga asoslangan jarayonda yuborish va qabul qilishni o’zida aks ettiradi. Shunday ekan, nutqiy faoliyat jarayonidan ko’ra bo’lib o’tgan muloqot natijalari muhim rol o’ynaydi. Negaki insoniyat aynan shu natijaga erishish yo’lida muloqotga kirishadi. Muloqot natijasi matnni bir tildan boshqasiga tarjima qilishda juda katta ahamiyatiga ega va buning natijasida tarjima jarayoni oson kechadi. Yana shuni inobatga olish kerakki, nutqiy faoliyat ijtimoiy xarakterga ega bo’lib, u ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan holda sharoit tanlovi asosida amalga oshiriladi.

Y.E.Kubryakovaning fikriga ko’ra, nutqiy faoliyat til va nutq uyg’unligida qayd etilgan barcha dialektik ziddiyatlarni bir qatorda birlashtirishi bilan murakkab ta’limdir [10: 11].

Nutqiy faoliyat ikki qismidan iborat bo’lib, birinchisi ichki formada kechadigan jarayonlar, ya’ni ehtiyoj, motiv, maqsad, g’oya, dastur, bilim, vaziyatni har tomonlama o’rganish, fikrni so’zlarda ifodalash yoki ifodalamaslik qarori bo’lsa, ikkinchi shakl tashqi faoliyat bo’lib, ichki qarordan so’nggina amalga oshiriladigan jarayonlar, jumladan, maqsadga muvofiq nutqni so’zlash va unga mos so’zlar tanlovini ta’minalash va boshqalardan iborat. Negaki, u so’zlovchi ijtimoiy hayotining bir qismini tashkil etadi. Nutqda qo’llanilgan til birliklari so’zlovchi haqidagi ma’lumotni o’zida namoyon etadi. Inson ongi muloqot orqali o’sib boradi.

Y.E.Kubryakovaning izohlashicha, “mashhur va rad etib bo’lmaydigan farqlari asoslangan bo’lishiga qaramasdan, nutq va nutqiy faoliyat tushunchalari sinonimlardir” [10: 9]. Nutqiy faoliyat doim nutq strukturasi va normasiga mos ravishda to’liq hamda sermazmun axborot almashinish jarayoni kommunikativ nuqtayi nazaridan nazorat qilinadi va bu nutq madaniyatining asl mohiyatidir. Nutqning nutqiy jarayonlar bilan har tomonlama bog’liqligi yozma nutq madaniyati shakllanishi va rivojlanishini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

V.Gluxov nutqiy faoliyatni tashqi og’zaki, tashqi yozma va ichki nutqqa bo’ladi [9: 38]. Tashqi og’zaki nutqda so’zlovchi so’zlarni qanchalik mohirona qo’llamasin, baribir xatolikka yo’l qo’yishi mumkin. Fikrimizni Agata Kristining quyidagi gapi tasdiqlaydi: “uch narsa – vaqt, so’z, imkoniyat hech qachon orqaga qaytmaydi. Shuning uchun vaqtini bekorga sarflama, so’zni to’g’ri tanla va imkoniyatni qo’ldan berma”. Ichki nutq esa faqat shaxsning o’zigagina ma’lum bo’lib qolaveradi. Shunday ekan tashqi yozma nutqning afzallik tomoni ko’proq, masalan: ko’ramiz, yozamiz, eshitamiz va o’qiyimiz.

Ma’lumki, nutqiy faoliyat ikki xil bo’ladi: dialogik va monologik. Yozma nutq o’zining kommunikativ tabiatiga ko’ra, asosan, monologik shaklda bo’ladi. Yozma nutq insonning sun’iy xotirasini bo’lib, u ma’lumotlar va fikrlarni yozuv orqali saqlab qolishga xizmat qiladi. Vaqt o’tishi bilan yozuvda aks ettirish usullari o’zgarib, mukammallahib boradi, biroq maqsad o’zgarmagan. Yozma nutq o’zining tuzilishiga ko’ra hamsuhbatsiz nutq hisoblanadi [9: 117]. Biroq hozirgi kunda Internetdan foydalanish yozma nutqda ham suhbatdoshga ega bo’lish imkonini yaratdi. Darvoqe, og’zaki va yozma nutq xususidagi bilim inson hayoti davomida egallanadi va faqat yozma nutq og’zaki nutqdan farqli ravishda ma’lum bir darajada egallangan bilim va ko’nikmalardan so’nggina amalda qo’llanilishi mumkin. Bundan tashqari, uning boshqacha ko’rinishlari ham mayjud, masalan, kitob o’qish, suhbatlashish, radio tinglash, televizor ko’rish va boshqalar. Ong tashqi olam bilan muloqot qilish natijasida rivojlanadi. Ushbu o’zlashtirilgan ma’lumotlarni nutqiy muloqot orqali aniqlashimiz mumkin. Bu o’renda shuni aytib o’tish joizki, nutq so’zlovchi subyekt, uning fikri, bilimi va dunyoqarashi haqida ma’lumot beruvchi omildir. Til bo’lsa, barcha ma’lumotlarni aniqlashdagi bir vosita.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, borliqni ko’rib, idrok etib, so’ng fikr yuritiladi va til birliklari orqali nutqiy muloqotda ifoda etiladi. Fikrni til birliklaridan to’g’ri foydalanib ifodalash xabarning adresat tomonidan to’liq idrok etilishiga olib keladi. Chunki adresant tomonidan ifodalangan har qanday so’z nutqiy muloqotga oydinlik kirituvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Predmetning inson ongida turilcha namoyon bo’lishi nafaqat sinonimiyaga, balki fikrlar, nutqlarning xilma-xilligiga sabab bo’ladi. Nutq paydo bo’lib, ravonlanmaganida insoniyat bir-birini tu-shuna olmagan bo’lar edi.

### Foydalangan adabiyotlar

- Хрестоматия по истории русского языкоznания. – Москва: Высшая школа, 1973.
- Головин Б.Н. Основы культуры речи. – Москва: Высшая школа, 1980.
- Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 1999.
- Обнорский С.П., Бархударов С.Г. Хрестоматия по истории русского языка. – Ленинград: УЧПЕДГИЗ, 1938.
- Введенская Л.А., Червинский П.П. Теория и практика русской речи. – Санкт-Петербург: Питер, 2005.
- Косовский Б.И. Общее языкоznание. – Минск: БГУ, 1969.
- Коляденко Г.С., Сенкевич М.П. Развитие речи с элементами стилистики. – Ленинград: Просвещение, 1981.
- Норма. Литературный язык. Культура речи / под ред. В.Г. Костомарова и Л.И. Скворцова // Актуальные проблемы культуры речи. – Москва: Наука, 1970.
- Глухов В., Ковшиков В. Психолингвистика. Теория речевой деятельности. – Москва: ACT, 2007.
- Кубрякова Е.Е. Номинативный аспект речевой деятельности. – Москва: Наука, 1986.

Odina ARIFJANOVA,  
Chirchik State Pedagogical University, Tourism  
Faculty, a 2nd year master's student

## GAMIFICATION AS A TOOL TO IMPROVE SECOND LANGUAGE ACQUISITION

Werbach and Hunter (2012) define gamification as the application of game mechanics and game design principles in situations other than those of actual games. It is supported by decades of study on human psychology, the growth of the video game industry, and social media. Fundamentally, gamification may be applied to any activity, assignment, procedure, or theoretical setting.

The primary goals are on boosting a person's participation – who is sometimes referred to or described as a "user" – and motivating him or her by combining game features and tactics, such as leaderboards and instant feedback. Users feel empowered and more engaged as a result, which encourages them to follow processes and complete tasks. Also, while defining and utilizing gamification as a strategy, having a fundamental grasp of game mechanics is crucial. But even before considering the motivating benefits that this notion offers, it is essential to go over the four definitional parts again: games, elements, design, and non-game situations. According to the dictionary, "the term "game" is typically understood to imply the following situational components: a goal, which has to be achieved; limiting rules, which determine how to reach the goal; a feedback system, which provides information about progress towards the goal; and the fact that participation is voluntary". The word "element" aids in separating the idea of "gamification" from "serious games", which refers to complete games played for non-entertainment purposes. On the other side, gamification describes the deliberate usage of certain game components in situations other than gaming.

Instead of using game-based technologies or techniques from the larger game ecology, the term "design" refers to the usage of game design. Gamification may be used in a wide variety of contexts, as was previously mentioned. The range of applicability is simply indicated by the phrase "non-game-scenarios" to account for this and avoid restricting the definition to particular contexts. These elements, which must each be comprehended separately, are explained in a foreign language. On the other hand, the notion of gamification assumes a new viewpoint when the aspects that are considered to be crucial play a crucial role in its creation and implementation. The notion will incorporate ideas like game components, game design, and non-game background, for instance. Gamification is multi-

faceted and has a variety of applications.

Game components are the typical design patterns used in game development. These components, commonly referred to as elements, may be found in the majority of games nowadays and include things like leaderboards, quests, levels, avatars, progress bars and charts, performance graphs, and awards. All of these components serve various functions and may be used to essentially any workplace, commercial setting, or educational setting. In the table below, each constituent is given a brief definition:

Points	Numeric accumulation based on certain activities.
Badges	Visual representation of achievements for the use shown online
Leaderboards	How the players are ranked based on success
Progress bars/ Progression	Shows the status of a player
Performance graph	Shows player performance
Quests	Some of the tasks players have to fulfill in a game
Levels	A section or part of the game
Avatars	Visual representation of a player or alter ego
Social elements	Relationships with other user through the game
Rewards/reward system	System to motivate players that accomplish a quest

The teaching and learning of L2 are naturally improved by each game element employed in gamification. These components are present in the majority of games nowadays, yet they all adhere to a set strategy. Every game incorporates the three fundamental components of growth, rewards, and meta-centred activities (Dickey, 2005). This is in line with what Smith-Robbins (2011) stated, who claimed that all game activities are meta-centred and contain such activities because they are geared toward a particular goal that ultimately focuses on winning by overcoming challenges and other constraints in order to achieve or complete a quest. Each game also uses a reward system or method for the player to obtain prizes, based on the situation. There are three main groups, which are leaders, rewards or honors, and accomplishments.



Users are ranked according on how well they perform in games to become leaders. The same idea is applied

in sports, and it frequently includes a leaderboard, which may be a powerful motivation.

#### References

1. Caponetto I., Earp J. & Ott M. Gamification and Education: a Literature Review. Professor Dr.-Ing. Carsten Busch (ed.) // Proceedings of the 8th European Conference on Game-Based Learning - ECGBL 2014, 50-57. Academic conferences and publishing international Limited, London (Regno Unito). ISBN: 978-1-910309-55-1.
2. Deterding S., Sicart M., Nacke L., O'Hara K., & Dixon D. Gamification. Using game design elements in non-gaming contexts // Proceedings of CHI Extended Abstracts, 2011, 2425-2428.

**Sitora YADIGAROVA,**  
*Termiz davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasи o'qituvchisi*

## KIYIM NOMLARINING INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Kiyim ijtimoiy xatti-harakatlar regulatori, kiyim-kechak, ichki makon dizayni, oziq-ovqat, musiqiy kompozitsiyalar va, ba'zan, jamiyatdagi xulq-atvor yo'naliishini tanlash uchun o'ziga xos qoidalar va ko'rsatmalar to'plamidir. Uning iste'molchiga ta'siri mexanizmini tus-huntirish uchun ushbu hodisani bilimlarning turli sohalarda o'rganadigan kiyim nazariyotchilarining ishlariiga murojaat qilaylik. Sotsiologlar ushbu hodisani o'rganishda bir nechta yondashuvlardan foydalanadilar: ba'zilari kiyimni aloqa va innovatsiyalarning interpenetratsiyasi deb hisoblashsa, boshqalar esa ijtimoiy tabaqalish manbayi sifatida kiyimga e'tibor berishadi; bir qator tadqiqotchilar kiyimni jamoaviy xulq-atvor sifatida ko'rib chiqqanlar [1].

Fransuz tilshunosi Lui Alzusser o'zining "Sur le fenomen aktuel de la Mode" maqolasida kiyimning mafkuraviy mohiyati va uning jamiyat hayotidagi ko'p funksionalligi haqida gapiradi: masalan "kiyim mafkuraning bir qismidir. Biz nafaqat tanamizni noqlay ob-havodan himoya qilish uchun, balki ma'lum bir kasbga mos kiyimda paydo bo'lish va shu bilan mehnat taq-

simotida munosib o'rinn egallash uchun ham kiyinamiz", deb aytgan [2:58].

Shunday qilib, biz kim ekanligimizni: g'isht teruvchi, mashinist, o'qituvchi va boshqalarni aniqlashimiz uchun va boshqalardan ajralib turish uchun kiyinamiz. Shu bilan birga, biz o'zini "to'g'ri" tutish, muayyan ijtimoiy (yoki axloqiy yoki estetik) me'yorlarga rioya qilish uchun kiyinamiz.

Kiyim va libos tushunchalari mazmun-mohiyati jihatidan bir-biri bilan mushtarak ko'rinsa-da, ushbu tushunchalar o'tasida birmuncha farqlar ham mavjud. Kiyim deganda, avvalo, inson tanasining turli qismlarini berkitish uchun nazr bo'lgan, uni tashqi muhitning turli ta'sirlaridan himoyalaydigan buyumlar tushuniladi. Kiyimning qator turlari mavjud. Bular: ichki kiyim, ustki kiyim, turli uzunlikdagi paypoqlar, poyabzal, bosh kiyimlari. Mana shu predmetlar turli vazifalarni bajaruvchi aksessuarlar, bezaklar, soch turmag'i, pardoz bilan birga libosni tashkil etadi. Aynan libos insonning ijtimoiy kelib chiqishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, yoshi, jinsi, xarakteri va estetik didini namoyon etadi.

Ingliz tilshunosi Donaldson ingliz tilida kiyim nomlari, asosan, diaxroniya nuqtayi nazaridan o'rganilishi ni aytib o'tadi [3: 195]. Dundarning fikricha, Angliya tarixidagi bosqichlarning tavsifi, Fransiyaning uning rivojlanishiga ta'siri va, shunga mos ravishda, kundalik voqeliklarning, shu jumladan, ayrim kiyim turlari va elementlarining inglizlar hayotidagi ahamiyati o'rganilishi ingliz mualliflarining asarlarida ko'rindi [4: 382]. Etnografik va madaniy asarlar, asosan, kastum tarixiga bag'ishlangan bo'lib, nominatsiyalarini tahlil qilishda tadqiqotchilar talqin yoki etimologik ma'lumotlar bilan cheklandilar. Ingliz tilshunosligida zargarlik buyumlarining nomlari faqat sobit bo'lib, ularning to'g'ri lingvistik tavsifi olimlarning e'tiboridan chetda qolmoqda. Hozirgi bosqichda esa kiyim-kechak bezaklarini tahlil qilish sa-noat texnologiyalari va badiiy ijod manfaatlariga munofiq amalga oshiriladi [5: 300]:

*byssus* (bisson, qimmat mato) – a very fine, high quality textile known to the ancients and applied to fabrics made from cotton, linen or silk. Originally referred to a kind of flax (qadimgi odamlarga ma'lum bo'lgan va

paxta, zig'ir tolasi yoki ipakdan tayyorlangan matolarga qo'llaniladigan juda nozik, yuqori sifatli mato. Dastlab, zig'irning bir turiga ishora qilingan);

*bayadere* (yo'l-yo'l mato) – a striped fabric in silk and wool, the stripes being alternately matt and shiny (ipak va jundan tayyorlangan yo'l-yo'l chiziqlı mato, yo'l-yo'l chiziqlar navbat bilan jilosiz va jiloli bo'ladi);

*faille* (ipak mato) – a light, soft ribbed fabric woven in silk (ipakdan to'qilgan yengil, yumshoq qovurg'ali mato);

*lace* (krujeva-dantel) – made entirely of thread (butunlay ipdan qilingan);

*muclin* (fransuzcha *mousseline* – muslin) – a fabric of cotton, wool or silk which is soft and generally very fine (yumshoq va, odatda, juda nozik paxta, jun yoki ipak mato).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilshunoslikda har bir termin, leksikaning alohida o'mi bo'lgani kabi kiyim nomlarining ham alohida o'mi bor. Kiyim nomlarini o'rganishda turli olim va olimalarning "kiyim" haqidagi farazlari muhim o'r'in tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lang G. Collective behaviour. – New York, 1961. – pp. 465-471; Turner A.H., Surace S.J. Zoot suiters and Mexican symbols in crowd behaviour // The American Journal of Sociology, 1956, No. LXI. – pp. 14-20; Horowitz R.T. From elite fashion to mass fashion // European Journal of Sociology. Archives. Vol.6, No.2. – Cambridge University Press. – pp. 283-295.
2. Lui Alzusser. Sur le fenomen aktuel de la Mode. 1998.
3. Donaldson G. The shaping of nation. – London: Newton Abbot, 1974.
4. Dundar J.T. The costume of Scotland. – London, 1981.
5. Changing Design / Evans B., Powell J. A., Talbot R. (eds). – Chichester, N.Y., Brisbane, Toronto, Singapore, 1982.

Mukhlisa KENJAYEVA,

Chirchik State Pedagogical University of Tashkent Region, a master's student

## TYPES OF EVALUATIVE ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK

The evaluation is a universal category: there is no language in which there would be no idea of "good / bad". When evaluated it should be noted that evaluation is a subjective expression of the significance of objects and phenomena of the world for our lives and activities, that is, the evaluation is a mental act, which results in the relationship of the subject to the object being evaluated in order to determine its value for life and meaning of the subject. Evaluation is characterized by a special structure that includes a number of mandatory and optional elements. The following components of evaluation can be distinguished: subject, object, basis and character of evaluation. The object of evaluation is a person (or socium) that shows the value of a particular subject, by expressing an assessment.

The subject of evaluation is an object or phenomenon whose value (or anti-value) is determined. This

basis of evaluation is numerous classifications of ratings. The character of the evaluation is a recognition of the value (positive, negative or zero) of the object of evaluation. Depending on which characteristics are actualized in the evaluation act, the basis for the evaluation is taken to differentiate into external and internal. The inner expresses the emotional sphere of a person, his feelings, positive and negative emotions associated with the mental sphere of sympathy and antipathy. External oriented at the cognitive sphere of man, they reflect the knowledge of the subject, formed by the ratio of the mental and social nature of the surrounding person of reality. There are usually two types of evaluation - absolute and relative. In the first, terms such as "good / bad" are used, and the second one is "better / worse". In absolute assessment, as a rule, one object

is evaluated, and in the case of a comparative one, at least two objects or two states of the same object. In absolute evaluative structures, the comparison is not directly expressed.

In the first group, the given adjectives pass an absolute mark. Expressions of this type always mean the stereotype and the scale on which the evaluation is oriented. Consequently, an absolute estimate is based on the general nature of social stereotypes. The adjectives of the second group represent a comparative estimate based on the matching of objects with each other.

Many terms are composed of both descriptive and evaluative information. Adjectives in English can be represented by two classes: empiric and rational. By the present stage of the English language development there defined several groups of empiric adjectives, that is, the ones "denoting signs perceived by the senses and realized by the person as a result of a single-stage mental comparison operation with "a standard". Empiric adjectives designate their own signs to specific subjects, their content is in full compliance with the logical and philosophical categories and rational adjectives, that is, indicating the category of signs that are not perceived by the senses, and are the result, comparison, conclusions. It should be noted that adjective attachment to a certain group is quite relative on its main meaning as for its derivative, metaphorical and redefining meaning they can be members of other groups. Rational adjectives indicate the category of features that are not perceived by the senses and they are the result, comparison, conclusions. Rational adjectives do not form a single class of words, and depending on the compatibility they are divided into four types: adjectives indicating the characteristics of a human, adjectives indicating the signs of animals, adjectives indicating features of objects, adjectives indicating the signs of the animal subjects estimated by a human."

While we have taken beautiful and ugly to be aesthetic adjectives par excellence, it remains unclear whether there is a single, unified class of aesthetic adjectives: as noted earlier, it is plausible to think that one can express an aesthetic judgment using, so to speak, ordinary adjectives. To get started, it may help here to take a look at the adjectives that aestheticians themselves consider relevant. Famously, Frank Sibley proposed something like a list of what he called "aesthetic concepts", among which we find the following: unified, balanced, integrated, lifeless, serene, sombre, dynamic, powerful, vivid, delicate, moving, trite, sentimental, tragic, graceful, delicate, dainty, handsome, comely, elegant, garish, dumpy, and beautiful. However, it takes little to see that not all of these (probably not even half of them) are exclusively aesthetic. For example, to say of a faded flower that it is lifeless is not necessarily to make an aesthetic judgment about it.

On the other end of the spectrum, to say that Picasso's Guernica is one of the most beautiful paint-



ings of 20th century is to attribute a (very) positive aesthetic value to Guernica and, quite controversially, to express an aesthetic judgment about that painting of Picasso's (as well as, derivatively, about other paintings of 20th century). The more interesting questions about aesthetic discourse arise with cases in which we do seem to apply an aesthetic concept without necessarily assigning any aesthetic value to a work of art, the way we do when we judge it to be one of the most beautiful paintings. Consider the followings:

- a. Picasso's Guernica is dynamic.
- b. Picasso's Guernica is sombre.
- c. Picasso's Guernica is moving

Evaluation is the second indicates the value of the first for a person. Although pearls and ruby in nature have their function and value, they are reborn in the human mind as an aesthetic value in society. Linguistic derived words of thinking such as eyes diamond (eyes like diamond), ruby lips (scarlet lips) in English, tishlaring sadafdek (teeth like pearls), lablaring yoqut (lips like rubies), apple of my eyes (ko'zimning oq-u qorasi) in Uzbek, are the result of national stereotypes of aesthetic axiological assessment. Having aesthetic value, the stone creates a panorama of the national picture of the Uzbek people - having formed as knowledge, it is expressed in the language through mental devices. Because the value factor plays an important role in the concept of culture. First of all, the individual himself evaluates a social phenomenon and forms a national consciousness.

As a result, the Uzbek language combines stylistic colouring and poetic character in complex words, and if the lexical semantic field "user (person)" has a synonymous feature, in the semantic field of national values they form an anonymity feature.

**Madina ASHIRBAYEVA,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti;*  
**Muhabbat YUSUPOVA,**  
*Ingliz tili kafedrasi mudiri (PhD), ilmiy rahbar*

## OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN WEBQUEST VAZIFALARINI 11-SINF O'QUVCHILARIDA QO'LLASH

Bizning asrimizda chet tillarni bilish va o'rganish jahon madaniyati bilan tanishish imkoniyatini beradi, ko'pgina davlatlar o'tasidagi munosabatlarni rivojlanтиди, undan tashqари, Internet-resurslardan mumkin qadar to'liq foydalanishga yordam beradi. Bizning davrimizda Internet-resurslar ham o'qituvchining, ham o'quvchining umumiy axborot madaniyatining bir bo'lagi hisoblanadi. Internet har bir o'quvchining shaxsiy faoliyat doirasini kengaytirib, bir dars mobaynida sifatli materiallar yetkazib berish tezligini oshiradi. Internetni ta'lim jarayoniga integratsiyalash, undan chet tillarni o'qitish jarayonida ta'lim va tarbiya berishda foydalanish dolzarb bo'lib, ko'p maqsad va vazifalarini amalga oshirishda yaxshi yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, zamonaviy o'qituvchi texnik vositalarni bilishi va ulardan dars jarayonida foydalana olishi zarur. Hozirgi zamonda o'qituvchi uchun dolzarb bo'lgan texnologiyalardan biri WebQuest ta'lrim texnologiyasi bo'lib, mazkur maqolaning asosiy maqsadi ham undan umumta'lim mакtablarida foydalalangan holda o'quvchilar og'zaki nutqini oshirish va ularga til o'rganishda motivatsiya berishdir. Ushbu texnologiyaning asosiy xususiyatlari shundaki, birinchidan, bu texnologiyadan foydalanish uchun Internet kerak bo'ladi, chunki WebQuestning o'zi va uning vazifalarini bajarish tarmoq resurslarisiz mumkin emas. Ikkinchidan, texnologiya o'quvchilarning zaruriy vazifalarini mustaqil bajarishini talab etadi. Uchinchidan, topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun o'quvchilarning birlashishini taqozo etadi. To'rtinchidan, vazifa qandaydir rol bajarish orqali amalga oshiriladi, ya'ni bunda vazifani bajaruvchiga bir qancha rollar taklif etiladi, masalan, analitik, jurnalistik, skeptik, teoretik va boshqa rollar bo'lishi mumkin, va bu rollar mustaqil ravishda tanlanadi. Rol variantlari va ularning xususiyatlari ushbu texnologiyaning muallifi tomonidan belgilanadi va veb-saytning tegishli sahifasiga joylashtiriladi. Beshinchidan, bu texnologiya blok strukturasiga ega. Ushbu strukturering elementlari: 1) kirish; 2) vazifa; 3) bajarish jarayoni; 4) resurslar; 5) baholash; 6) xulosa; 7) foydalanilgan abbiyotlar; 8) o'qituvchining sahifasi. Vazifani bajaruvchilar ushbu elementlardan ketma-ketlikda o'tishlari kerak bo'ladi. Har bir elementning mazmuni muallif tomonidan ssenariyni yozish davrida o'ylab chiqiladi. Ssenariya yuqorida keltirilgan elementlar muallifning maqsadiga qarab o'zgarishi va, zarur bo'lganda, qo'shimcha elementlar qo'shilishi ham mumkin bo'ladi.

WebQuest texnologiyasidan foydalanib Bo'stonliq tumanı umumta'lim mакtablari yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tilidan og'zaki nutqini rivojlanтириш va tajri-

ba-sinov ishlarining dars sifatiga bo'lgan ta'siri natijalari kuzatildi. Dissertatsiya ishining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar (og'zaki nutqni rivojlanтиришда nazorat va tajriba guruhlari o'tasidagi farqlarni aniqlash va solishtirish; tanlangan umumta'lim mакtablari tajriba guruhlari o'tasidagi farqlarni aniqlash)ga erishish uchun o'quvchilar faoliyati va yutuqlarini aniqlashda og'zaki nutqni rivojlanтиришга qaratilgan "pre-post" testlar o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari uchun Bo'stonliq tumanidagi 3 ta umumta'lim mакtablarining 10-11-sinflari – 1-sinfdan ingliz tili o'ргangan 15-16 yosh oralig'idagi 214 nafar o'quvchi tanlab olinib, tajriba va nazorat guruhlari bo'lindi va 2022-2023-o'quv yilining birinchi yarmida tajriba olib borildi:

	1-maktab		2-maktab		3-maktab	
	10-sinf	11-sinf	10-sinf	11-sinf	10-sinf	11-sinf
Umumiy ishtirokchilar	41	40	21	19	36	17
Nazorat guruhlari	18	21	21	19	18	8
Tajriba guruhlari	23	19	21	19	18	9
Jami					214	

Tajriba-sinov davomida WebQuest vazifalaridan foydalish uchun o'quvchilardan Internet aloqasi mavjud gadjetlar, kompyuter va Internet aloqasi talab etildi.

Tajriba-sinov uchun ishlab chiqilgan WebQuest vazifasi 11-sinf "Prepare" darsligidagi "Extreme weather" mavzusiga moslashtirilib, "The 3 'R's" deb nomlandi. "The 3 'R's" konsepti Ga'rб davlatlariga xos bo'lib, bunda atrof-muhitni asrash va himoya qilish global muammoning yechimi hisoblanishi bois mакtab yoshidan boshlab shu tushuncha singdirib boriladi. Bu tushunchadagi 3 ta "R" "Reduce, Reuse, Recycle"ni bildiradi (*Reduce* – iste'molda foydalanilayotgan mahsulotlarni kamaytirish va isrof qilmaslik; *Reuse* – ishlatilgan mahsulot va materiallarni tashlab yubormasdan qayta foydalanish; *Recycle* – mahsulotlarni qayta ishlab chiqib foydalanish uchun yangi mahsulotga aylantirish).

WebQuest vazifasiga kelsak, u odatiy WebQuest strukturasiidan boshqacha tuzilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: *Introduction; Karaoke time; Task; Process; Roles; Resources; Questions; Practice; Project work; Evaluation; Conclusion*.

11-sinf uchun WebQuest vazifasi 10-sinf WebQuest vazifasi singari BookWidgets.com platformasida yaratil-

## Kichik tadqiqot

di. Tajriba-sinov uchun Bo'stonliq tumanidagi umumta'lim mакtabalarining 11-sinf o'quvchilari (47) tanlandi. Har bir mакtabda 1 ta nazorat va 1 ta tajriba-sinov guruhlari tayinlandi. Ular uchun ishlab chиqilgan tajriba-sinov WebQuest vazifasi hozirgi dunyo muammolaridan biri – yer yuzi va atrof-muhitning ifloslanishi va bu muammoning yechimlariga bag'ishlanib, o'quvchilarining yoshlikdan atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish maqsad qilindi. Atrof-muhit ifloslanishi muammosining asosiy yechimlaridan biri 3 ta "R" (Reduce/Reuse/Recycle) bo'lib, unga bag'ishlangan WebQuest ham "The 3 'R's" deb nomlandi va 5 ta darsga rejalashtirilib amalga oshirildi. Bu o'qituvchi va ota-onalar bolalarga 3 "R" oltin qoidasi, ya'ni Reduce/Reuse/Recycle ni amaliyot va kundalik hayotda qo'llash javobgarligini singdirishda juda muhimdir. Iste'mol qilinayotgan mahsulotlar va materiallardan unumli foydalanib borish ona zaminimizning hech bo'Imaganda yuzasini asrashda ulkan hissa qo'shishi nuqtayi nazaridan ushbu oltin qoidanining sekin-asta o'quvchilar o'ngiga singdirib borilishi maqsadga muvofiq.

Boshida ushbu qoidalarga amal qilish birmuncha qiyin bo'lisi mumkin, lekin o'qituvchi va ota-onalarining yordami bilan WebQuestdagi video va mashqlarni bajarish o'quvchilarga ushbu qoidani tushunish va amalda qo'llashda yordam bo'ladi. Bu oddiy vazifalarning kundalik vazifalar qatoridan joy olishi atrof-muhit muhofazasi uchun qo'yilgan ulkan qadamdir.

"The 3 'R's" WebQuest vazifasi mакtablarda haftasiga 1 marta o'tkazildi va kuzatildi. WebQuest texnologiyasi yordamida darslarga Internet-texnologiyalar va gadjetlardan foydalanishlar kiritildi, natijada, o'quvchilar ingliz tilini o'rganishda motivatsiya olib, Internet maydonida ishlash, katta hajmdagi ma'lumotlar ichidan o'zlariga zarurlarini aniqlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini oshirishdi; atrof-muhit muammolari bilan tanishib, o'z fikrlarini bildirishdi.

WebQuest vazifasi natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi navbatda, o'quvchilar bilimi oldindan tekshirib ko'rildi, natijalari WebQuestdan keyingi natija bilan solishtirildi.

WebQuest vazifalarining o'quvchilar tomonidan qanchalik bajarilganligi aniq mezonlar asosida baholandi: 3 ball – a'lo; 2 ball – yaxshi; 1 ball – qoniqarli deb belgilandi.

3 ball – WebQuest vazifasining barcha bosqichlari-

da faol qatnashib, o'z og'zaki nutqlarini yaxshi ko'rsatgan o'quvchilarga;

2 ball – WebQuest vazifalarida qatnasha olgan va berilgan vazifalar bo'yicha ozgina gapirgan o'quvchilariga;

1 ball – WebQuest vazifalarida to'liq qatnasha olman, yoki to'liq og'zaki nutq bo'yicha vazifalarni bajara olmagan o'quvchilarga berildi.

WebQuest texnologiyasi yordamida o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishning samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida tajriba va nazorat guruhlarining o'ttacha o'zlashtirilishi Pearson x-kvadrat matematik-statistik tahlil metodi ko'magida solishtirildi.

Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarining og'zaki nutq ko'nikmasini WebQuest texnologiyasidan foydalanib rivojlantirish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarini va ularning natijalari bo'yicha quydagicha xulosaga kelindi:

1. Ingliz tili darslari jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan WebQuest texnologiyasi asosida vazifalar tayyorlandi, tanlangan mavzular o'quvchilarining qiziqishi va dunyo miqiyosida muammo bo'lib kehayotgan jihatlarga qaratildi. Vazifalarning asosiy maqsadi yuqori sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiya va kreativlikni oshirishdan iborat bo'ldi.

2. Tajriba-sinov ishlarini olib borishdan oldin o'quvchilarining ingliz tili darajalari aniqlandi, buning uchun ular bilan test va suhbat (savollarga javob berish) olib borildi va natijalar tahlil qilindi.

3. Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarida WebQuest vazifalari uchun tayyor Internet-resurslardan to'g'ri foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlar ichidan zarur bo'lganlarini aniqlab foydalanish kabi ko'nikmalar rivojlantirildi. Buning uchun ulardan tahlil qilish va tanqidiy fikrash talab etildi.

4. Dars jarayonlarida WebQuest texnologiyasi, zamonaliviy texnologiyalar va Internet-resurslardan foydalanib nafaqat ingliz tili, balki boshqa fanlardan ham darslar tashkillashtirilsa, o'quvchilarining o'zlashtirishi bir muncha samarali bo'ladi. O'z navbatida, o'quvchilarida motivatsiya va qiziqish oshadi. WebQuest texnologiyasiga asoslanib ishlab chиqilgan vazifalar moslashuvchan bo'lib, ta'llim jarayonining istalgan qismida qo'shib olib borilishi mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Ashirbaeva M.N., Yusupova M.A. The effects of applying WebQuest tasks on the development of speaking skills in 10th grade students // So'z san'ati xalqaro jurnali, 1-maxsus son, 7 (2022), pp. 43-47.
2. Ashirbaeva M.N. WebQuest technology in teaching speaking skills // Innovative Developments and Research in Education, 2022, Part 2, pp 296-299.
3. Ashirbaeva M.N., Yusupova M.A. Using WebQuest in teaching foreign languages as an Internet-based technology // Academic Research in Educational Sciences, 2020, Vol. 3, Iss. 5, pp. 530-535.
4. Dance F.E. & Larson C.E. The functions of human communication: A theoretical approach. – New York: Holt, Reinhart and Winston, 1976.
5. Dodge B. Webquests: A technique for Internet-based learning // Distance Educator 30, 1995. No. 1(2), pp. 10-13.
6. Dodge B. Some thoughts about WebQuests. 1995-1997 // <http://webquest.sdsu.edu/about:webquest.html>
7. Dodge B. WebQuest taskonomy: A taxonomy of tasks. 1999 // <http://webquest.sdsu.edu/taskonomy.html>
8. Dodge B. A rubric for evaluating WebQuests. 2001 // <http://webquest.sdsu.edu/webquestrubric.html>
9. Dodge B. Creating a rubric for a given task. 2001 // <http://project.edtech.sandi.net/staffdev/tpss99/rubrics/rubrics.html>
10. Yusupova M.A. Successful way of being a skilled English teacher // Science and Education, 2020, 1 (Special Issue 2), 198-203.

Eldorjon SHERMATOV,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
katta o'qituvchisi

## ELEKTRON PLATFORMA XORIJY TILLARGA O'QITISH VOSITASI SIFATIDA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi "Oliy ta'lif tashkilotlarda masofaviy ta'lif shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi 559-sonli qarori 3-bobida masofaviy ta'lifni tashkil etishga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Qarorga ko'ra, oliy ta'lif muassasalarida masofaviy ta'lifni tashkil etish, avvalo, masofaviy ta'lifni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot "Learning Management System" (LMS) platformasi mavjudligi talab etiladi [1].

Shuningdek, ushbu qarorning 4-bobida masofaviy ta'lifni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minotga qo'yiladigan talablar haqida so'z boradi. Unga ko'ra, masofaviy ta'lifni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot — LMS platformasi SCORM (Sharable Content Object Reference Model) standartlariga mos hamda unda avtoproktorning tizimi mavjud bo'lishi lozimligi aytildi:

Zamonaviy universitetda ta'larning kelajagi aynan axborot texnologiyalari, elektron ta'lifdan foydalanish bilan bog'liq. Chet (ingлиз) tilni o'rgatish jarayonida bo'lajak jurnalistlarni tayyorlashda bu ta'lif shakli ko'p jihatdan talaba jurnalistlarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini sifat jihatidan qondirish imkonini beradi. Shunday ekan, jurnalistika talabalariga sohaga yo'naltirilgan chet (ingлиз) tilni o'rgatishning asosi bir qator muhim kasbiy vazifalarni belgilab beruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'lib, ularning yechimi tegishli kompetensiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi.

O'qituvchi va talabaga dasturlarning interfaol imkoniyatlari (elektron pochta, onlayn konferensiylar) orqali o'zaro ta'sir qiladigan bunday o'qitish, talaba qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'qituvchining talaba uchun qulay kurs yoki o'quv dasturini ishlab chiqishini anglatadi, uni amalga oshirish individual rejimda amalga oshiriladi.

Elektron ta'lif (e-learning) – ta'lif maqsadlarida boshqaruvin tizimidan foydalangan holda Internet orqali elektron shaklda o'rganish jarayoni. Ushbu turdagidan trening onlayn o'qitishning keng doirasini qamrab oladi.

S.E.Kushnerova, E.V.Yushkevich elektron ta'lilda ikkita yondashuvni ajratadi: asinxron va sinxron [4: 158]. Olimlarning fikricha, ularning har biri o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va shaxsiy imtiyozlariga mos keladi [6: 253]. Asinxron elektron ta'lif odatda elektron pochta, munozara forumlari va xabarlar taxtasi kabi turli xil ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida, hamma bir vaqtning o'zida onlayn


bo'limasa ham, ishtirokchilar o'tasidagi doimiy aloqani rag'batlanadiradi. Ular mustaqil darslar, seminarlar, master-klasslarni o'z ichiga oladi, sinxron onlayn darslar esa ta'limiyl Internet resurslarini rivojlantirishda kuchli salohiyatga ega. Talabalar va o'qituvchilar sinxron elektron ta'lifni ijtimoiy o'zaro ta'sir sifatida qabul qilishadi va shuning uchun u real vaqt rejimida savollar berish va ularga javob berish orqali umidsizlikdan qochish imkonini beradi. Ushbu turdagi mashg'ulotlar an'anaviy mashg'ulotlarga o'xshab, ma'ruza va seminarlar, talabalarning davomatini hisobga olgan holda amalga os-hiriladi. Talabalar odatda veb-kamera yoki jonli forumlar orqali onlayn sessiyalarda qatnashadilar, shuningdek, guruhda ishslash uchun virtual xonalarga o'tishlari mumkin. Sinxronlashtirilgan mashg'ulotlar talabalarga o'zlarini bevosita o'quv jarayoniga jalb qilingandek his qilishlariga yordam beradi [5: 162].

Asinxron onlayn darslar elektron ta'larning asosiy komponenti bo'lgan o'z-o'zini o'qitish uchun moslashuvchanlikni taklif qiladi. An'anaga ko'ra, asinxron elektron ta'lif talabalarga o'z tezligida o'rganish, elektron ta'lif muhitiga istalgan vaqtida, o'z jadvali bo'yicha, ko'pincha uzoq vaqt davomida ulanish imkonini beradi [2]. Ko'pchilik tadqiqotchilar asinxron muhitni ma'lum turdagи o'rganish uchun yetarlicha qulay deb hisoblaydi [5: 163].

Bizning so'rovnomamiz xulosasi bo'yicha, o'qituvchilar sinxron onlayn darslarni afzal ko'radir, chunki bu format kommunikativ yondashuvga imkon beradi, chunki material tezkor fikr-mulohazalarni talab qiladi.

Moodle ochiq kodli platforma sifatida ishlab chiquvchilarga tizimni foydalanuvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Ushbu platforma, shuningdek, ishlab chiquvchilarga ijodiy va ko'p qirrali bo'lish imkonini beradigan ko'plab onlayn resurslar (Facebook, YouTube, Wikipedia, JClik, Hot Potatoes va b.) bilan yaxshi aloqada (1-rasm qarang).

MOODLEda har qanday formatdagi fayllar almashinuvi mavjud – o'qituvchi va talaba o'tasida ham, talabalarning o'zlarini o'tasida ham. "Xabarlar" xizmati kursning barcha ishtirokchilarga dolzarb voqealar haqidagi ma'lumot beradi va "forum" xizmati guruhda muammolarni o'quv muhokamasini tashkil qilish imkonini beradi. Platformaning dinamik boshqaruvi va modulli o'qitish tuzilishi o'quvchilarning individual talablarini qondirishga imkon beradi. Butun kurs tematik rejada



taqdim etilgan oltita modulga bo'lingan. Talabalarning mustaqil ishi ma'lum bir ustunlik bilan sinf va sinfdan tashqari ishlarning o'zaro bog'liq bloklari sifatida namoyon bo'ladi. Reja-jadval va taqvim talabalarga materialni o'rganish tartibi va muddatlarini boshqarishda yordam beradi [7: 65].

O'qituvchining vazifasi talabalarning sinf va darsdan tashqari ishlarini birlashtirib, ularning mustaqil va guruh ishlarini nazorat qilish va LMS Moodle interfaol vosita-

lari asosida talabalar uchun onlayn yordam ko'rsatish/yaratish: Blogs – bloglar; Wiki – Wiki; Forum – Forum; Viktorina – Test; Chat – Chat; Glossary – Lug'at va b. Dars soatlarini qisqartirish sharoitida elektron kursni yaratishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyati hisobga olinadi [7: 66].

Quyidagi jadvalda LMS Moodledagi interfaol vositalarning imkoniyatlari va vazifalari haqida ma'lumot keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Interfaol vositalar	Interfaol vositalar imkoniyatlari va vazifalari
Blogs – bloglar	Blog – teskari-xronologik tartibda postlar (oxirgisi birinchi turadi) va o'rganuvchilarning fikr bildirishi uchun variantlari bo'lgan onlayn jurnal, kundalik yoki yangiliklar ustuni. Foydalanuvchi blogi Moodle foydalanuvchi profilining bir qismi sifatida avtomatik tarzda o'rnatiladi; u kursga emas, balki foydalanuvchiga xosdir. Shuningdek, o'qituvchi kurs doirasidagi faoliyat sifatida foydalanuvchi bloglarini yoki kurs blogini yaratishi mumkin.
Wiki - Wiki	O'rganuvchilar ma'lumot qo'shishi yoki o'zgartirishi mumkin bo'lgan bir yoki bir nechta bog'langan veb-sahifalarning osongina tahrirlangan to'plami. Birgalikda kontent yaratishni osonlashtiradi. Wiki faoliyati talabalarga Vikipediya o'xshash sahifalarni birgalikda qurish orqali hamkorlik hujjatini yaratish imkonini beradi. Boshqa hamkorlikdagi tahrirlash dasturlaridan (masalan, Google hujjatlari) farqli o'laroq, Wiki standart Moodle faoliyati bo'lib, qo'shimcha ruxsat yoki login talab qilinmaydi. Wikilar odatda hamkorlikda bo'lsa-da, har bir talabaga individual foydalanish uchun o'z Wikisini yaratishga ruxsat berish mumkin.
Forum	Foydalanuvchilar yangi mavzular yoki munozaralarni boshlashlari va mavjud mavzularga javob berishlari mumkin bo'lgan e'lonlar paneli yoki xabarlar paneli. Forum faoliyati talabalalar va o'qituvchilarga "mavzu"ning bir qismi sifatida izoh qoldirish orqali fikr almashish imkonini beradi. Tasvirlar va media kabi fayllar forum postlariga kiritilishi mumkin. O'qituvchi forumdagi xabarlarni baholash va/yoki baholashni tanlashi mumkin, shuningdek, talabalarga birlarining xabarlariga fikr bildirishga imkon beradi.
Viktorina – Test	Viktorina (Quiz) ko'plab o'qitish ehtiyojlarini qondira oladigan juda kuchli mashg'ulot bo'lib, oddiy, ko'p tanlovli bilim testlaridan tortib, batafsil fikr-mulohazalarga ega bo'lgan murakkab, o'z-o'zini baholash vazifalarigacha mavjud. Testlar "Savollar" bankida alohida yaratiladi va saqlanadi va ularni turli viktorinalarda qayta ishlatish mumkin.

Chat – Chat	Chat faoliyati kurs ishtirokchilariga Moodle kursida real vaqt rejimida sinxron muhokama qilish imkonini beradi. Turli xil mavzulardan foydalanish mumkin va foydalanish mumkin bo'lgan interfeys mavjud.
Glossary – Lug'at	Glossary faoliyati ishtirokchilarga lug'at kabi ta'riflar ro'yxatini yaratish va saqlash imkonini beradi. U faqat o'qituvchi tomonidan o'rnatilishi va ishlatalishi mumkin bo'lsa-da, uning asosiy vazifasi hamkorlikdagi mashqdir. Glossaryni avtomatik bog'lash filtri lug'atda joylashgan kursdagi har qanday so'zni ajratib ko'rsatadi.

Tababalar uchun LMS Moodle platformasining pedagogik afzalliklari:

- kontent bilan ishlash qulayligi, o'quv vaqtini optimallashtirish, kontentni doimiy ravishda yangilab turish;
- foydalanuvchi uchun istalgan joyidan istalgan vaqtga guruhning barcha a'zolari uchun vazifaning mavjudligi;
- guruhdagi faol muloqot;
- matn yoki loyiha ustida hamkorlikda ishlash / kontentni hamkorlikda yaratish va tahrirlash (wiki);
- audiovizual ma'lumotlarni uzatish formatini kuchaytirish;
- o'quv jarayonini individuallashtirish va differensialashtirish;
- o'qituvchiga fikr bildirish [7: 65].

